O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY KITOB PALATASI INV.№

Kuch — bilim va tafakkurda

Ma'rifat

ENLIGHTENMENT * XALQ ZIYOLILARI GAZETASI * معرفت

1931-yildan chiqa boshlagan | 2003-yil 20-avgust, chorshanba | № 67 (7572)

Da'vat

Odamlar bilan shunday yashaginki, do'stlaring dushman bo'lmasin, dushmanlaring esa do'stga aylansin.

PIFAGOR

Ibrat

Beruniy tumanidagi "Qiyotobod" shirkat xo'jaligida zamonaviy bolalar sport majmui uchun yer ajratilib, qurilish ishlari boshlab yuborildi.

АСР БИЛАН ҲАМҚАДАМ

Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий, маънавий-маърифий ислоҳотлар унинг мустақил давлат сифатидаги тараққиётини белгилайди. Дунё харитасида чинакам бўй кўрсатаётган давлатимиз бугунги кунда ўз обрў-эътиборини ҳар томонлама мустаҳкамлаб боришга эришмоқда.

Биз яшаётган асрда мамлакатларнинг миллий иқтисоди глобаллашиб бориб, ахборотлашган иқтисод шаклига айланмоқда, яъни миллий иқтисоддаги ахборот ва билимларнинг тутган ўрни юксалаётир. Демак, улар аниқ йўналишдаги ресурсга айланган. Дунёда жамғарилган ахборот ва билимларнинг 90 фоизи кейинги 30 йил мобайнида вужудга келган. Ахборот ва билимлар ҳажмининг кундан-кунга ортиб бориши миллий иқтисоднинг барча соҳаларида, таълимда ҳам ахборот-коммуникация технологияларидан кенг кўламда самарали фойдаланишни талаб этмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2002 йил 30 майдаги **"Компьютерлаштиришни янада ривожлантириш ва ахборот коммуникация технологияларини жорий этиш тўғрисида"**ги фармонида бу борадаги барча ишларнинг аниқ ва муҳим тамойиллари белгилаб берилди. Ушбу фармоннинг 7-бандида белгиланганидек, Тошкент электротехника алоқа институти Тошкент ахборот технологиялари университетига айлантирилди.

Ахборот технологияларига нисбатан эҳтиёжнинг кундан-кунга ошиб бориши ва қондирилиши маълум даражада таълим муассасалари фаолиятига ҳам бориб тақалади. Шу жиҳатдан ёндашадиган бўлсак, институт базасида университетнинг вужудга келиши ҳам ана шу эҳтиёж билан чамбарчас боғлиқ.

Университетимиз кўп йиллик тарихга эга. Аммо, юртимиз мустақиллиги йилларида у ўз ўтмишига нисбатан кўпроқ имкониятларга эга бўлганлигига гувоҳ бўляпмиз. Техника йўналишидаги олий таълим муассасалари орасида унинг муайян мавқеи бор. У республикамиздаги почта ва телекоммуникация тармоқлари учун етук мутахассислар тайёрлаб бераётган ягона даргоҳ ҳисобланади. Ҳозирги вақтда бу даргоҳнинг собиқ талабалари почта, телеграф, телефон ва ахборотлаштиришнинг бошқа тармоқларида хизмат қилишяпти.

Хўш, университетнинг бугунги таълим жараёнидаги иштироки ва фаоллиги қандай намоён бўлмоқда? Саволга жавоб берар эканмиз, турлича жиҳатдан ёндашишимизга тўғри келади.

Аввало, таълим йўналишларини замон талаблари асосида йўлга қўйиш, демак, шу асосда Кадрлар тайёрлаш миллий дастури ижросига ҳисса қўшиш керак. Университетда почта, алоқа, телекоммуникация тармоқлари бўйича кадрлар тайёрлаш учун давлат таълим стандартлари, ўқув-дастур ҳамда режалари ишлаб чиқилиб, таълим жараёнига татбиқ қилинди. Бакалавриат бўйича 10 та йўналиш ва магистратура таълимига тегишли 20 та мутахассислик ўқув жараёнида бу стандартлар ўзининг ижобий самарасини бера бошлади. 4500 нафарга яқин талаба тахсил олаётган университет фақат бугунини ўйлаётгани йўқ. Талабалар бугун ўқишга кирса, орадан ҳеч қанча вақт ўтмай диплом олиб, ўз қадрдон даргоҳларини тарк этишади. Уларнинг ўринбосарларини тайёрлашимиз керак. Тўғри, даргоҳ эшиги шу соҳага қизиқувчи ҳамма ёшлар учун очиқ. Аммо, университетимиз қошидаги лицей-интернатда 200 нафар, академик лицейда эса 300 нафар ўқувчининг ўқиётганлиги келгусида уларнинг аксарияти ўз тақдирларини ана шу муассаса билан боғлашидан далолат беради. Шунга умид борки, аниқ ва табиий фанларни мукаммал ўқиб-ўрганаётган бу ёшлар маълум фурсатдан сўнг бизнинг талабалар бўлишади.

Ҳар қандай таълим маскани: у хоҳ мактаб, хоҳ лицей, хоҳ коллеж бўлсин, унинг асосий кучи дарс берувчи ўқитувчи ва мураббийлардир. "Куч — билим ва тафаккурда" экан, бунинг асосий тарғиботчиси ўқитувчи халқи ҳисобланади.

(Давоми 2-бетда)

O'zbekiston — Vatanim manim

ҚЎШИҚЛАРДА КУЙЛАНАР ВАТАН

Ватанга юрак тўридан меҳр-муҳаббат берилади.
Ватаннинг сурати чизилади.
Ватан шеърда мадҳ этилади.
Ватан қўшиқда куйланади.

Демак, Ватан — ҳар доим ҳам ардоққа муносиб ошиён. Шу боис ҳам, саккиз йилдирки, Ўзбекистонда унинг ўзи ҳақидаги қўшиқлар жаранглайди. Шу боис ҳам бу қўшиқларнинг адоғи йўқ, чеки-чегараси йўқ. Улар бир-бирига ўхшамас, бир-бирини такрорламас.

Қўшиқлар аввал жамоада, сўнгра туман ва вилоят босқичларида куйланиб, сўнгра пойтахтимиздаги ҳашаматли саройларда ижро этилади. "Ўзбекистон — Ватаним маним" қўшиқ байрамининг анъанага мувофиқ, август ойи учинчи якшанбасида ўтказилиши ҳам тасодифий эмас. Чунки, орадан бир неча кун ўтиб, халқимиз Ўзбекистон мустақиллиги тантаналарини ўтказади. Байрам руҳи байрамга уланади.

... Бу йилги қўшиқ байрамида ҳам она-юрт ҳақидаги янгидан-янги тароналар якуний босқичга олиб чиқилди. Ватан ҳақида кимлар куйламади? Ватан ҳақидаги оҳангларни тинглаганда, кимлар сел бўлмади? Ватаннинг ўзи каби у ҳақдаги қўшиқларнинг ҳам поёни йўққа ўхшарди. Қўшиқ байрамининг якуний босқичида таълим муассасалари ҳам иштирок этишди. Зеро, таълим билан санъат айрича эмас, аксинча уларнинг чамбарчас боғлиқлиги бор.

Халқлар дўстлиги саройида бўлиб ўтган гала концертда кўплаб бадиий жамоалар, яккахон хонандалар қаторида таълим муассасалари ҳам ўзларининг Ватан ҳақидаги қўшиқларини тақдим этишди. Бу тароналар гўёки нафақат саройни, балки томошабинларнинг қалбини ҳам ларзага солди... Якуний босқичда иштирок этишга лозим деб топилган 22 та бадиий жамоа ва яккахон хонандалар учун Халқлар дўстлиги саройи ижобий маънодаги рақобат саҳнасига айланди. Гап ўринларда эмас, совринларда ҳам эмас, балки она диёримизни, унинг меҳнаткаш ва танти, мард ва сахий халқини, гўзал гўшалари — тоғларию боғларини тараннум этувчи янги қўшиқларнинг яратилишида, юракдан ижро этилишида эканини эътироф этмай бўладими?

Шуни қувонч ва мамнуният билан таъкидлаш керакки, "Ўзбекистон — Ватаним маним" қўшиқ байрамида иштирок этган таълим даргоҳлари бадиий жамоалари орасида Қорақалпоқ давлат ва Ўзбекистон Миллий университетлари ҳам бор. Уларнинг бирига, яъни қорақалпоғистонликларга "Ўзбекистон — танимда жоним" қўшиғи учун 3 та биринчи ўриннинг биттаси муносиб топилган бўлса, ЎзМУ бадиий жамоасининг "Ўзбе-кистон" деб аталган таронаси 3 та учинчи ўриннинг биттасини эгаллашга муваффақ бўлди.

Ватан ҳақида куйлаган ва куйланган, неча бор сайқалланган ижролардан устун дея топилган бу университетларнинг қўшиқсевар талабаларига ҳавас қиласан, киши.

Ҳ.ТЎЙМАНОВА

ИСЛОҲОТЛАР УМУМХАЛҚ ИШИГА АЙЛАНМАС ЭКАН...

Avgust kengashlari

... Ҳар йили август ойида бўлиб ўтадиган халқ таълими тизими ходимларининг анъанавий август анжумани ўз-ўзидан сарҳисоблар тусини олади. Янги ўқув йилининг режалари тузилади. Лекин ҳукуматнинг таълимни ривожлантириш борасида кўрсатаётган доимий гамхўрлигига жавобан олиб борилаётган ишлар самарасидан кўнгиллар ёруғми? Қай нуқтада ютуқларга эриша олдигу, фаолиятимиздаги бўшлиқларнинг илдизи қаерда? Келажагимиз ворислари, дея суянажагимиз ёш авлоднинг таълим-тарбиясида оғишмаяпмизми?..Бу каби ўнлаб саволлар кун тартибидан ўрин олаверади. Навоий вилоят халқ таълими ходимларининг бу йилги август анжумани ана шундай уйғоқ, ўз-ўзини танқид ва сарҳисоб руҳида ўтгани билан аҳамиятли бўлди.

Тадбир бошида вилоят ҳокими Б.Рўзиев кенгаш қатнашчиларини табриклаб, соҳанинг заҳматкаш фидойилари меҳнатини алоҳида тилга олди. Шундан сўнг йиғилганлар вилоят халқ таълими бошқармаси бошлиги Х.Якубаевнинг "Бош фаолият йўналишимиз таълим-тарбия ишларини ҳозирги замон талаблари даражасида йўлга қўйиш", вилоят педагогларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти ректори А.Бобомуродованинг "Педагогларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш ишларини давлат талаблари асосида ташкил этиш тўғрисида"ги маърузаларини тингладилар. Музокаралар анчагина давом этиб, таклифлар айтилди. Анжуман 2002 йил натижасига кўра севимли шоирамиз Зулфияхоним номидаги Давлат мукофоти совриндори, Навоий шаҳридаги 8-мактаб ўқувчиси Ҳулкар Ўринова ва "Умид ниҳоллари—2003" спорт мусобақаси республика босқичи ҳамда вилоят сиртқи олимпиадаси ғолибларини тақдирлаш тантаналарига уланиб кетди. Шундан сўнг кенгаш қатнашчиларининг вилоятдаги барча таълим ходимларига, ота-оналар, маҳаллалар, жамоат ташкилотларига мурожаат қилинди.

"... Таълим соҳасидаги ислоҳотлар умумхалқ ишига айлангандагина кўзланган мақсадга эришишимиз мумкин..." дейилади Мурожаатномада. Дарҳақиқат, баъзи ўринларда ёш авлод таълим-тарбияси фақатгина ўқитувчи хизматига таяниб қолинмаяптими? Айрим ҳолларда жамоат ташкилотларининг ўрни қоғозлардагина қолиб кетаётгани ҳеч биримизга сир эмас-ку?!

"Таълим тўғрисида"ги қонуннинг 30-моддасида "Вояга етмаган болаларнинг ота-оналари ёки қонуний вакиллари боланинг қонуний ҳуқуқлари ва манфаатларини ҳимоя қилишлари шарт ҳамда уларнинг тарбияси, мактабгача, умумий, ўрта махсус, касб-ҳунар таълимини олишлари учун жавобгардирлар", дея белгилаб қўйилган. Таълимда бош ислоҳотчи ота-оналар ҳисобланади. Таҳлилларга кўра, болалар тарбиясининг асосий қисми оила билан боғлиқ. Шундан 65-70 фоизи эса фақат оналар зиммасига тушар экан. Бир мисол: мактабларда анкета сўровлари ўтказилганда ота-оналар йиғилишларига қатнашаётган ота-оналарнинг ҳар ўн нафаридан етти-саккиз нафари онажонлари экани аён бўлди. Агар эътибор берсак, болаларга нисбатан бефарқлик ҳукмрон оилаларда улгаяётган фарзандлар фезл-атворида ҳиссий ожизлик, серзарда, қатъиятсизлик, ўзбошимчалик каби иллатлар яққол кўзга ташланади. "Бозор иқтисоди қийинчиликлари" баъзиларга бир баҳона ё рўкачга айланди. Ахир, халқимиз не-не қийинчиликлару йўқчиликларни бошидан ўтказмади. Шундай чоғларда ҳам зурриёди таълим-тарбиясига бору йўғини тиккан халқ авлодимиз-ку, биз! Ҳадису шарифлардан бирида "Пулларнинг энг хайрлиси, кишининг ўз оила аъзоларига, уларнинг тарбиясига сарф этилганидир..." дейилади. Афсуски, баъзи отажонларимиз қурдираётган қасрдек иморатлари, қилаётган дабдабали тўйлари, заҳмат чекиб топаётган молу дунёларини фарзандлари учун аташяпти-ю, ўғил-қизларининг илм олиши, хуш фазилатлар

(Давоми 2-бетда)

SO'NGGI UCH KUN MUJDALARI

MUVAFFAQIYAT YO'LIDA

Ikki yil avval «O'zDEUavto» qo'shma korxonasining bosh konveyeridan birinchi «Matiz» avtomobili chiqib, korxona mahsuloti turlarini boyitgan edi.

Shu paytgacha bir necha mingta yengil avtomashina ishlab chiqarildi, ularning yarmi Rossiya, Ukraina, Moldova, Qozog'istondagi iste'molchilarga yetkazib berildi.

Mamlakatimiz mustaqilligining 12 yilligiga munosib tuhfa tarzida avtomobilsozlar yangi model — «Lasetti»ni tayyorlashmoqda. Avtomatik uzatish qutisiga ega «Matiz»ning ishlab chiqarilishi esa ishchilarimizning yana bir bayram sovg'asi bo'ladi.

MAKTABLARGA INTERNET

Nukusda Xalqaro almashuvlar va tadqiqotlar bo'yicha kengash /IREX/ning «O'zbekiston maktablarida Internet» dasturi taqdimoti bo'lib o'tdi.

Loyiha AQSh Davlat departamentining ta'lim va madaniyat masalalari byurosi tomonidan moliyalanmoqda. Unga ko'ra Andijon, Farg'ona, Qashqadaryo, Namangan, Surxondaryo viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida Internetga ulangan oltmishta kompyuter markazi tashkil etiladi.

Dastur maktablarni Internetga ulash, o'qituvchilarga o'quv jarayonida butunjahon tarmoqdan foydalanish imkonini beradi. Loyiha doirasida eng faol ishtirokchilar AQShda uch haftalik malaka oshirishga yuboriladi.

BEG'ARAZ YORDAM DOIRASIDA

Koreyaning xalqaro hamkorlik agentligi /KOICA/ o'z hukumati nomidan beg'araz yordam doirasida O'zbekistonning qator tashkilotlariga umumiy qiymati 120 ming AQSh dollariga teng uskunalar berdi.

Koreya Respublikasining elchixonasidan xabar berishlaricha, uskunalarni oluvchilar orasida O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, O'zteleradiokompaniya, Samarqand davlat chet tillari instituti bor. Uskunalar turli ofis texnikasi, mashina va boshqalardan iborat.

(Davomi 2-betda)





АБДУМАЖИД ОТАНИНГ ХИММАТИ

Elim deganlar

Мактаб қураётган, ўқувчиларга стипендия жорий этаётган савобталаб, саховатпеша инсонларни тилга олганимда машҳур маърифатпарвар Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг **"Мактаб — дунё иморатларининг энг муқаддаси ва қадрлисидир.** Мактабнинг чин ва ҳақиқий маъносини билган миллатлар жонлари, моллари билан бутун ҳиммат ва ғайратларини сарфлайдилар" мазмунидаги сўзлари ёдимга тушаверади. Тошкент шаҳар Чилонзор туманининг Катта Қозиробод маҳалласи-да умргузаронлик қилаётган Абдумажид ҳожи Ёрмуҳаммедовнинг ўз маҳалласи ҳудудида амалга ошираётган хайрли ва эзгу ишларини кўриб, очиғи, ҳавасимиз келди. Обод маҳалла — обод Ватанни гуллаб-яшнатиш йўлидаги саъй-ҳаракатлари кўнглимизга ғурур бағишлади.

— Бундан икки-уч йил аввал Абдумажид ҳожи Ёрмуҳаммедов ўз сармоясидан мактабимизнинг ялпи таъмирига 4 миллион сўм пул маблағи ажратганди, — дейди Чилонзор туманидаги 138-умумий ўрта таълим мактабининг директори Оҳиста Алимова. — Ўғил-қизларимиз 2001-2002 ўқув йилини тамоман янгиланган синфхоналарда бошлагандилар.

Дарҳақиқат, ўша йили А.Ёрмуҳаммедов маҳалладошларининг дуосини олди, болажонларнинг қувончига қувонч қўшди. Орадан бироз вақт ўтказиб, маҳаллада «Хотира музейи»ни бунёд этиш ташаббуси билан чиқди. Айни кунда қурилиш ишлари давом эттирилмоқда. Қурилиш тугаллангач, музей бўлимларида улуғ бобокалонларимиз ҳақида, шунингдек, уруш қатнашчилари, истиқлол фидойиларига бағишланган стендлар, юртимиз тарихи ва бугунига оид кўргазмалар ташкил этилади.

Дарвоқе, илм масканини янги ўқув йилига ҳозирлаш қизғин кетаётган бир паллада А.Ёрмуҳаммедов ўз ҳисобидан мактабга бир миллион сўм маблағ ажратди ва мактаб ҳовлисининг кираверишига ҳашаматли, нақшинкор дарвоза қуриш ва гулзор яратиш ташаббуси билан чиқди.

Биз мактабда бўлган кунимиз умумхалқ ҳашари уюшқоқлик билан ўтказилаётгани шоҳиди бўлдик. Ўқувчиларнинг бир гуруҳи илм маскани ён-атрофини тозалашаётган бўлса, яна бир гуруҳи гулзордаги гулларни ларвариш қилишяпти. Абдумажид ота ҳам ўз қурувчилари билан биргаликда янги қурилиш ҳавзалари ёнида ишлаётган экан.

— Муҳтарам Президентимиз Ислом Каримовнинг «Савоб ишни ҳар ким, ҳар куни қилиши керак» мазмунидаги даъватлари ҳамда маҳаллаларни юксалтириш ва обод қилиш ҳақидаги фикрлари халқимиз онгига тобора кўпроқ сингиб бораяпти, савоб ишлар кўлами ошаяпти, — дейди А.Ёрмуҳаммедов. — Мен ҳам бу каби эзгу ишларга баҳоли қудрат ҳисса қўшаётганимдан мамнунман.

— Ҳам ҳашаматли дарвоза, ҳам «Хотира музейи» қурдиришга бошқош бўлаётирсиз. Қийналиб қолмаяпсизми?

— Аслида ҳар бир инсонда мўъжизалар яратишга қодир куч бўлади. Эзгу ишлар эса кучингизга куч қўшади. Натижада кўзлаган мақсадингизга эриша борасиз. Мабодо, қийналгудек бўлсам, ўғилларим ёрдамга келишади.

— Режаларингиз?

— Албатта, режадаги қурилишлар битса, қараб ўтирмаймиз. Илм маскани атрофини гулдор тўсиқлар билан ўраб чиқиш, тақир жойларга чим ётқизиш, иқтидорли ўқувчиларга стипендия жорий этиш каби юмушларга бош қўшмоқчимиз. Хуллас, маҳалла мактабини жамият кўркига айлантириш орзусидаман.

Ота мулоқот асносида тарих, истиқлол ва қадрият тушунчалари ҳақида батафсил гапириб, ўқувчиларни миллий қадриятларимизга муҳаббат руҳида тарбиялашга ҳам тўхталди.

Суҳбат, мусоҳабадан амин бўлдимки, бизнинг ҳар бир эзгу амалимиз, сўзимиз — қадрият. Урф-одатларимиз, анъаналаримизга содиқ бўлиш ҳам, юртимизнинг улуғ байрамларига тўёна билан бориш ҳам — қадрият. Зотан, қадриятлар, эзгу амаллар бола шахсини уйғун, ҳар томонлама етук, ақл-идрокли, она-Ватанини, халқини севадиган инсон қилиб тарбиялашда ўрнак вазифасини ўташи айни ҳақиқатдир. Бир сўз билан айтганда, хусусий тадбиркор Абдумажид ота Ёрмуҳаммедов ана шундай ҳиммат, эзгу амал-у шукроналик билан Истиқлолимизнинг 12 йиллик тўйини муносиб кутиб олаётир.

Қурбонбой МАТҚУРБОНОВ

Суратларда: Хусусий тадбиркор Абдумажид ота Ёрмуҳаммедов Чилонзор туманидаги 138-мактаб жамоаси билан биргаликда умумхалқ ҳашарида фаол иштирок этди; ҳадемай мактаб дарвозаси қурилиши поёнига етади.

Зафар БАКИЕВ олган суратлар.

ГАЗЕТАНИ ВАРАҚЛАГАНДА:

«ИСТИҚЛОЛИНГ БОҚИЙ БЎЛСИН, ЭЙ, ОНА ЮРТИМ!» 3-бет

YANGI DARSLIKLAR VA QO'LLANMALAR YANGI DASTUR ASOSIDA 4-бет

ТЎЙ ҚИЛИШ ОБРЎ ОРТТИРИШ «ПОЛИГОНИ» ЭМАС 6-бет

КУТУБХОНАГА БОРАЯПСАНМИ, ТЕНГДОШИМ? 6-бет

"DEU Yunitel" kompaniyasi tomonidan taqdim qilingan elektron telefon stantsiyasi o'quv mashg'ulotlarini amaliyot bilan bog'lashda texnikaviy majmua vazifasini o'tayapti.

Tuman(shahar) miqyosida o'tkazilgan olimpiadalarda 70-100 ball to'plagan o'quvchilar 3-bosqich viloyat olimpiadasida 14-23 atrofidagina ball yig'a olishiga sabab nima?

SO'NGGI UCH KUN MUJDALARI

SEMINAR

Respublika ko'z kasalliklari klinik shifoxonasida vitreoretinal jarrohlik masalalariga bag'ishlangan ilmiy seminar bo'lib o'tdi. Seminarda vitreoretinal jarrohlik amaliyotini o'tkazishda qo'l keladigan AQShning "Bausch & Lomb" firmasi tomonidan ishlab chiqarilgan "Millennium" apparatining taqdimoti bo'ldi.

YANGI SPORT MAJMUI

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 12 yilligi bayrami arafasida Ellikqal'a tumanidagi G'ani Odilov nomi kommunal shirkat xo'jaligida va Namangan shahridagi Gulzor mahallasida futbol, voleybol va basketbol maydonlari mavjud bo'lgan yangi sport majmui foydalanishga topshirildi.

NAMANGANDA LIBOSLAR YARMARKASI

Namangan viloyati xalq iste'moli mollari markazida kuz-qish mavsumi kiyim va poyafzallari yarmarkasi ochildi. Ulgurji chakana yarmarkada 24 ta to'qi-machilik va yengil sanoat korxonasi, o'nlab xususiy tadbirkorlar ishtirok etdi.

MARKALARDA DO'PPI TASVIRI

O'zbekiston tarixi davlat muzeyi jamoasi yangi bir xayrli ishga qo'l urdi. Marg'ilon, Chust, iroqi, zardo'zi do'ppilarining tasvirlari o'ziga xos tarzda pochta markalarida aks etadigan bo'ldi. Endilikda "O'zbek do'ppisi" deb nomlangan yangi markalar turkumi chop etila boshlandi. Ushbu markalar respublikamiz mustaqilligining 12 yilligi oldidan muzeyning kamyob eksponatlariga aylandi.

IJODKORLAR YO'LSOZLAR HUZURIDA

Dovrug'i dunyoga taralgan shoir va adiblarimiz — ijod ahli, Mustaqillik bayramining 12 yilligi oldidan mamlakatimiz bo'ylab safarga chiqib, mustaqilligimiz tuhfa etgan, xalqimiz tomonidan bunyod etilgan va etilayotgan inshootlar bilan yaqindan tanishmoqdalar. Ular shu kunga qadar Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida bo'lgan edilar. Bu gal esa, ijodkorlar Qamchiq dovoniga otlanib, yo'lsozlar bilan uchrashdi.

ISSIQLIK TIZIMI UCHUN IMZOLANGAN BITIM

Respublika Vazirlar Mahkamasida ikki yil avval "Andijon shahrini issiqlik va issiq suv bilan ta'minlash to'g'risida" qaror qabul qilingan edi. Shu qaror ijrosi o'laroq ETTB hamda mamlakatimiz o'rtasida bitim imzolanib, 15 yil muddatga 15 million AQSh dollari miqdorida kredit ajratiladigan bo'ldi. Ushbu mablag' qaror ijrosini ta'minlash uchun sarflanadi.

АСР БИЛАН ҲАМҚАДАМ

(Давоми. Боши 1-бетда)

Шу ўринда ўқитувчилар таркиби ҳақида гапириб ўтишим керак. Агар уларнинг умумий сони 500 киши бўлса, деярли ярмининг турли илмий даража ва унвонларга эга эканлиги маълум даражада кишига қониқиш ҳиссини беради. Чунки, олий таълим муассасасида ишловчи кадрларнинг илмий даражага эга бўлиши муҳим талаблардандир.

Талаба фақат маъруза матнини тинглаб, салоҳиятли кадр бўлиб етиша олмайди. Бунинг учун энг замонавий ўқув-техник асбоб-ускуналар, компьютерлар билан жиҳозланган аудиториялар ҳам керак. Махсус лингофон хоналаридан ташқари компьютер технологиялари ўрнатилган хоналарга ҳам эгамиз. 300 мингдан зиёд сақланиш бирлигига эга бўлган кутубхона, 750 ўринли ётоқхона, тиббиёт шахобчаси, 2 та ошхона, шаҳар ташқарисидаги дам олиш маскани ва шу сингари маданий-маиший объектлар талабаларга хизмат кўрсатяпти.

Университет ректорати, қолаверса, таълим жараёнига бевосита масъул бўлган шахсларнинг ўзаро маслаҳатлашувига биноан, барча факультетларда ўқиётган иқтидорли талабалар ҳар ўқув йилининг бошида аниқланади. Бу иш Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг "Иқтидорли талабаларни излаш, аниқлаш ва уларни мақсадли тайёрлаш тўғрисида"ги Низомига мувофиқ амалга оширилади. Чунки, ўз тенгқурларидан ажралиб турувчи бундай истеъдодли ёшларнинг имкониятини тўлиқ ишга солишига, етакчи мутахассислар бўлиб етишишига алоҳида эътибор қаратиш, шарт-шароит яратиш лозим. 2001 йилда худди ана шу мақсадни кўзлаб, "Иқтидорли талабалар ишини ташкил этиш ва мониторинги бўлими" ташкил этилди. Бўлим махсус танлов асосида иқтидорли талабалар гуруҳларини шакллантириш, уларга махсус фанларни чуқурлаштирилган дастур асосида ўқитиш, давлат ва хўжалик ҳисобидаги илмий текшириш ишларига жалб этиш, магистратура ва аспирантурага кириш учун илмий жиҳатдан тайёрланган кадрларни етиштириш ва кафедралар, илмий текшириш институтлари, конструкторлик бюроларида ишлаш учун малакали ходимларни тайёрлаб келмоқда. Жумладан, 2002-2003 ўқув йилида мавжуд факультетларда таҳсил олаётган 1, 2, 3-курсни "яхши" ва "аъло" баҳоларга тугатган талабалар орасида икки босқичдан иборат, яъни чет тилида суҳбат ва интеллект коэффициентини аниқловчи тест ўтказилиб, 160 нафар иқтидорли ёшлар танлаб олинди. Улардан 15 та иқтидорли талабалар гуруҳи ташкил қилинди. Улар махсус режа асосида чет тили, информатика, информацион технологиялар чуқурлаштирилиб ўқитилиши билан бир қаторда юқори курс талабалари мутахассислик кафедралари профессор-ўқитувчилари етакчилигида илмий иш ҳам олиб боришяпти. Талабанинг илмий мавзуси таълим йўналишига мос равишда унинг қизиқиши, билими ва имкониятларини ҳисобга олган ҳолда танланади. Улар ўз раҳбарлари билан биргаликда илмий иш натижаларини республика ва халқаро анжуманларга ҳам тавсия этишади. Ўтган ўқув йилида 100 дан зиёд иқтидорли талаба ва магистрантлар ўз илмий мақолалари билан турли анжуманларнинг иштирокчилари бўлишган эди.

Албатта, таълим сифатини ошириш ҳақида ўйлаш ҳар бир даргоҳнинг фақат ички муҳитига боғлиқ эмас. Университетимизнинг республика ва хориж компаниялари билан алоқаларига кенг йўл очилган. Бу эса талабаларнинг замонавий алоқа воситалари билан нафақат шунчаки танишишларига, балки ишлатиш жараёнини ўрганишларига ҳам имкон яратмоқда. Масалан, "ДЭУ Юнител" компанияси томонидан тақдим қилинган электрон телефон станцияси ўқув машғулотларини амалиёт билан боғлашда техникавий мажмуа вазифасини ўтаяпти. Шунингдек, "Уяли алоқа тизими" йўналиши бўйича уюштирилаётган лаборатория машғулотларини олиб боришда "Уздунробита", "Коском" қўшма корхоналари тақдим этган турли ускуналарга мурожаат қилинмоқда. Хитойнинг "Шанхай Белл" компанияси билан ҳамкорлигимиз ҳам таълимда кўзланаётган самарани беряпти. Улар ёрдами билан электрон телефон станцияси очилган бўлиб, у 1000 та рақамга эга ва бу лаборатория компьютер орқали бошқарилади.

32 та кафедранинг ҳар бири ўз ўқув режаларига эга бўлиб, уларнинг аксарияти мутахассисликка алоқадордир. Айниқса, "Дастурлаш технологиялари ва алгоритмлаш" кафедрасида олиб борилаётган ишларни тилга олиб ўтсак арзийди. Бу ерда компьютер дастурларини яратиш бўйича бой тажриба тўпланмоқда. "Ҳисоблаш машиналари, мажмуалар, тизимлар ва тармоқларни математик ҳамда дастурий таъминлаш" мутахассислиги бўйича магистрлар тайёрлашни кафедра ўз зиммасига олган. Бундан ташқари, "Бошқарув ва ахборотни қайта ишлашнинг автоматлаштирилган тизимлари" йўналишида малакали мутахассислар тайёрланаяпти. Кафедра қошида "Ёш дастурчилар мактаби"нинг ташкил этилиши ҳам айни муддао бўлди. Унинг машғулотлари изланувчан магистрантларнинг дастурлаш ва ахборот технологиялари бўйича билим ва малакаларини оширишга қаратилган.

Москва алоқа ва информатика университети билан йўлга қўйилган ҳамкорлигимиз бизнинг улардан, уларнинг эса биздан айрим тажрибаларни ўрганишимизда катта аҳамият касб этаётир. Бу университет ҳузурида фаолият кўрсатаётган "Связь" мувофиқлаштирувчи ўқув-услубий бирлашмасининг кадрлар тайёрлаш тизими бакалавр ва магистрантларни ўқитишда ижобий натижалар бера бошлади.

Маълумки, бутун дунёда масофавий ўқитишни йўлга қўйиш, мавжуд тажрибалардан фойдаланиш бугуннинг долзарб вазифасига айланган. Ўзбекистон илмий ва ўқув муассасаларида ҳам ахборот алмашишнинг ягона тармоғини яратиш концепцияси ишлаб чиқилди. Ушбу йўриқнома бўйича вилоятлар марказидаги таянч пунктлар орқали масофавий таълимни йўлга қўйиш чоралари кўриляпти. Бунинг натижасида интернет орқали Москва, Санкт-Петербург, Алмати, Бишкекдаги олий ўқув даргоҳлари билан ҳам ахборот айирбошлашга эришилади.

Мустақиллик йилларида университетимизнинг халқаро доирадаги обрў-эътибори анча мустаҳкамланиб бораётганини алоҳида таъкидлаб ўтмоқчиман. Биз 2002 йилда АҚШнинг "Карана" корпорациясига қарашли "USAID EDNET" таълим тармоғига аъзо қилиндик. АҚШ "ТДА" агентлиги билан "Хотин-қизлар телекоммуникациялар ва ахборот технологиялари ўқув маркази" лойиҳаси грантини техник-иқтисодий жиҳатдан асослаш бўйича битим тузилди. Калифорния университети, Сан Диего, UCSD симсиз алоқа маркази орқали талабаларни ўқитишга стипендиялар тайинланганлиги ҳақида ахборот олинди. Аспирант Ш.Отажоновнинг Европа патент халқаро академиясида малака ошириб келганлиги ҳам қувончли воқеадир. Малайзия ва Ўзбекистон ўртасида дипломатик алоқалар ўрнатилганининг 10 йиллиги муносабати билан дастурлаш бўйича лаборатория очилди. У 16 та замонавий компьютерга эга ва дастурлаш бўйича микропроцессорлар билан таъминланган. Ҳиндистон элчихонаси билан ҳамкорликда "Ахборот технологиялари ва дастурлаш" курсларида талабаларни ўқитишга келишиб олдик.

Умуман, институтнинг университетга айлантирилиши муассасамизнинг республика миқёсида, қолаверса, дунёдаги турдош олий ўқув даргоҳлари орасида ўзининг мустаҳкам ўрнини эгаллаб олишидаги имкониятларини яна ҳам кенгайтирди. Биз кўпинча хориждаги университетларга ҳавас қиламиз. Лекин, кадрлар тайёрлаш сифати, ўқув-моддий базаси, ўқитувчилар таркиби ва ҳоказо жиҳатларни солиштириб кўрсак, Ўзбекистондаги, хусусан, пойтахтимиздаги университет ва институтлар ўзга давлатларнинг таълим даргоҳларидан сира ҳам қолишмайди.

Ҳадемай янги 2003-2004 ўқув йили бошланади. Табиийки, даргоҳимизга янги талабалар қабул қилинди. Уларнинг 341 нафари давлат гранти, 449 нафари эса тўлов-контракт шаклида таълим олишни бошлайди. Айни пайтда 100 нафар бакалавр магистратурада ўқишни давом эттириш ҳаракатида. Бундан ташқари сиртқи ва махсус сиртқи бўлимларда ҳам давлат режасига мувофиқ, талабалар қабул қилинди. Ўйлайманки, улар ўзлари танлаган таълим даргоҳидаги ўқув жараёнига тезлик билан мослашиб олиб, яратилган шарт-шароит ва имкониятлардан фойдаланишади. Бу эса уларнинг келгусидаги фаолиятларида жуда ҳам асқотади. Зеро, юрт мустақиллигини мустаҳкамлашга университетимиз таҳсилини олган ва олаётган ёш кадрлар ҳам камтарона улуш қўшишларига ишончим комил.

Содиқжон ҚОСИМОВ,
Тошкент ахборот технологиялари университети ректори, техника фанлари доктори, профессор

ИСЛОҲОТЛАР УМУМХАЛҚ ИШИГА АЙЛАНМАС ЭКАН...

(Давоми. Боши 1-бетда)

соҳиби бўлиб камол топишлари, касб-ҳунар эгаллашлари борасидаги масъулликларини унутиб қўйишяпти. "Бирники мингта, мингники туманга" деганларидек, бу иллат "орзу-ҳавас" ниқоби билан илдиз ҳам отаяпти.

— Таълим самарадорлигини кўтариш йўлида мактабларимиздаги шарт-шароит, имкониятлар республикамизнинг бошқа ҳудудларидаги ўқув масканларидан кам эмас, — деди вилоят халқ таълими бошқармаси бошлиғи Х.Якубаев анжуманда сўзлаган маърузасида, — лекин айрим лоқайдлик ва бефарқликлар кўрсаткичларимизнинг пастлигига сабаб бўлаяпти. Эътиборингизни айрим кузатишларга қаратмоқчиман: мактабларимиздаги иқтидорли ўқувчиларимизни тўғри саралаб, фан олимпиадаларига жалб эта олмаяпмиз, назаримда. Эътибор берсангиз, олий ўқув юртига кирган аксарият ўқувчилар негадир вилоят ва республика фан олимпиадаларида қатнашмаяпти. Яна бир далил: туман(шаҳар) миқёсида ўтказилган олимпиадаларда 70-100 балл тўплаган ўқувчилар 3-босқич вилоят олимпиадасида 14-23 атрофидагина балл йиға олишига сабаб нима? Бугун шу каби саволларга жавоб топишимиз зарур.

Маълумотларга кўра, мактабдан ташқари муассасаларга ўқувчиларнинг 92,36 фоизга яқини жалб этилган. Лекин шу йил ҳолатига кўра, ички ишлар томонидан ҳисобга олинган ўсмирлар 210 нафарни ташкил этиши, 15 ўқувчининг жиноят содир эттанлиги мактабдан ташқари муассасалар фаолиятини янгича мазмун билан шакллантириш талабини ҳам қўймоқда. Айни пайтда республикамизда ўз ҳисобига эга мактаблар талайгина. Шу билан бирга вилоятда оддий қоғоз қаламу бинони жорий таъмир этиш учун маблағ тополмаётган ўқув муассасалари раҳбарлари ҳам йўқ эмас. Бошқарма томонидан ишлаб чиқилган махсус Низом асосида таълим муассасалари раҳбарлари ўртасида "Йилнинг энг яхши тадбиркор раҳбари" кўрик-танлови ўтказишнинг режалаштирилиши бу борада яхши самараларга эришилишига туртки бўлади, дея умид қилиш мумкин.

Халқимизда "Бир болага етти маҳалла ота-она" - деган нақл бор. Шундай экан, таълим тизими ислоҳотлари жараёнида маҳалла мактабнинг энг яқин ҳамкорига айланмоғи керак. Хусусан, маҳаллаларда "Уста-шогирд" мактабларини ташкил этиш, шу йўл билан навоийликларга хос ва мос бўлган миллий ҳунармандчиликни ривожлантиришда маҳаллаларнинг ўрни беқиёс.

Навоий вилоят ҳокимлиги таълим тизимидаги ислоҳотларни жадаллаштиришга доимий диққат-эътибор қаратмоқда. Биргина ҳокимликнинг ташаббуси билан ўтказилган "Мактаблар куни"да таълим муассасаларига беш юз миллион сўмдан ортиқ маблағ ажратилгани (турли ташкилотлар томонидан), ҳомийлар кўмаги билан 11 миллион 983 минг сўмлик дарсликлар олиниб, кам таъминланган оилалар фарзандларига тарқатилганлиги фикримизнинг далилидир.

... Ҳадемай, қўнғироқлар жаранглаб, мактабларда янги ўқув йили бошланади. Қутлуғ арафада бўлиб ўтган бу анжуман юрт ва миллат тақдирини белгиловчи таълим тизимидаги ислоҳотларни умумхалқ ишига айланмоғи шартлигини яна бир бора барчага уқтирган бу ишни сидқидилдан давом эттирмоққа ҳаммани ундагандек бўлди.

Ойбуви ОЧИЛОВА,
махсус мухбиримиз

Болаларда Ватан ҳақидаги тушунча ва туйғуларни камол топтиришнинг йўллари ва усуллари кўп. МТМларда воситали услубнинг яхши самара бераётгани аниқланган. Чироқчи туманидаги Ш.Мавлонов номидаги МТМ тарбиячиси Замира Қудратова ҳам айни шу йўналишда иш олиб боради. Суратда эса ушбу тарбиячининг катта гуруҳ тарбияланувчиларига давлатимиз рамзлари, мустақиллигимиз ҳақида тушунча бераётган вазият тасвирланган.

Б.РИЗО олган сурат.

ХАЙРИХОҲЛИК

Тоғолди Янгиқўрғон туманида кейинги беш-олти йилдан бери мавжуд барча таълим-тарбия муассасаларини янги ўқув йилига барвақт тайёрлаш борасида муайян ижобий тажриба тўпланган. Мустақиллигимизнинг ўн учинчи йилида давом этадиган янги ўқув йилига ҳам мавжуд 59 та мактаблар, 44 та мактабгача таълим муассасалари, бешта мактабдан ташқари муассасалар сифатли таъмирдан чиқарилиб, ишлар саранжомлаб қўйилди.

Ана шу бунёдкорлик ишларини мазмуни ва кўлами ҳақида туман халқ таълим соҳасига салкам йигирма йилдан бери узлуксиз раҳбарлик қилиб келаётган моҳир ташкилотчи Ҳасанбой ака Жамолов қуйидагиларни ҳикоя қилиб берди.

— Албатта, бозор иқтисоди шароитида тасарруфимиздаги мавжуд таълим муассасаларимизнинг мулкини кўз қорачиғидай сақлашга, уни янада бойитишга биринчи навбатда ўқитувчи-тарбиячиларимиз ўз саъй-ҳаракатларини ўғил-қизларимизнинг эртаси ғамида саховатпешалик қилаётган ҳомийлар, айниқса, оталиқ ташкилотлар, бағри кенг тадбиркорларимиз кези келса миллионлаб сўм маблағларини аяшмаяпти.

Бу борада ўзаклик юртдошимиз, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси депутати Неъматилла Қурбонбоевнинг ҳиммати ҳар қандай тахсинга лойиқ. У Ўзакдаги 31-мактабни таъмирлаш ишларига бир миллион сўмдан ортиқ пул ажратиб берди. Шунингдек, Усмонхон Нажмиддинов етакчилик қилаётган "Исковот" ширкат хўжалиги жамоаси 41-мактабнинг томини ёпиш ва бошқа қурилиш ашёлари билан таъминлашда салкам икки миллион сўм маблағни беминнат сарфлади.

Навкент қишлоғидаги 25-мактабнинг томини тўла шифер билан ёпишда эса Доли Сатторов номидаги ширкат хўжалиги барча сарф-харажатни қоплади. Тумандаги 32-мактабнинг мавжуд ўқув хоналарини замонавий таъмирлаш ва жиҳозлашда "Нанай" ширкат хўжалиги беминнат ёрдам кўрсатди.

Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, ўтган ўқув йили мобайнида таълим муассасаларимиздаги ота-оналар қўмиталари таъмирлаш ишларига алоҳида эътибор беришди. Уларнинг ташаббуслари ва саъй-ҳаракатлари билан 18 миллион сўм маблағ тўпланди. Бу борада 10 ва 22-мактабларга 1,5-2 миллион сўмдан ортиқ нақд пуллар ихтиёрий равишда таъмирталаб хоналарга сарф этилди.

Бизни қувонтирган жиҳат яна шу бўлдики, жойлардаги қишлоқ ва маҳалла фуқаролар йиғинлари фаоллари, кенг жамоатчилик ҳам қараб турмадилар. Уларнинг беминнат ёрдамлари туфайли 17, 19, 38, 42-мактабларнинг томини ёпишда ёғоч, мих каби зарур қурилиш материаллари бепул тортиқ этилди. Бу борада Бирлашган, Навкент, Зарбдор, Бекобод қишлоқ фуқаролар йиғинларидаги бир қатор маҳаллаларда ибратли ишлар қилинди.

Шу кунларда 35, 39 ва 46-мактаблар учун икки-учтадан қўшимча синф хоналари тиклаш ишлари жадал суратлар билан олиб борилаяпти.

Таъмирлаш ишларининг тез ва сифатли поёнига етказилишида "Қувасойцемент" ҳиссадорлик жамияти билан шифер олиш борасида тузган шартномамиз қўл келаяпти. Ҳозиргача уларга 15 миллион сўмга 5000 тадан ортиқ шифер тўғридан-тўғри олиб келинди. Натижада томи ёпилган барча 15 га яқин мактабларимиз бўйича 30 миллион сўмдан ортиқ маблағ тежалди. Албатта, мактаб, болалар боғчалари биноларини таъмирлаш билан яқинлашаётган ўқув йили учун бошқа соҳаларда ҳам алоҳида тайёргарлик кўриш диққат марказимизда бўлаяпти. Жумладан, болалар спортини ривожлантиришни энг муҳим омили — мактаб спорт майдонларини жиҳозлаш четда қолмади. Барча мактабларда спорт мажмуалари барпо этилаяпти.

"Умид ниҳоллари" спорт мусобақасининг республика босқичида қаторасига икки бора ғолиблар сафида келаётган 26-мактабнинг волейболчи қизлари муваффақияти бугунги кунда мустақил юртимиз бўйича маълуму машҳурлиги ҳеч кимга сир эмас. Унинг зафарли одимларини эътироф этган вилоятимиз ҳокими ташаббуси билан улар таълим олаётган 26-мактабда замонавий спорт мажмуаси қуриш бўйича лойиҳаси биносида спорт-соғломлаштириш маркази ташкил этилди. Ҳадемай бу ерда спортсевар йигит-қизларимиз уч турдаги тўгарақда машғулот ўтказа бошлашади.

Туманимиз ҳокими Иброҳимжон Мамажонов ташаббуси билан туман марказида "Болалар дунёси" савдо дўкони барпо этилаяпти. Уни жуда қисқа муддатда ишга тушириш чора-тадбирлари аниқ белгиланган. Янги ўқув йили арафасида бундай махсус савдо шахобчасини ташкил этишдан мақсад, у ерда ўқувчилар кундалик кийим-кечаклари, ўқув қуроллари ва бошқа мактаб жиҳозларини арзон нархда сотиш кўзланганидан барча мамнун.

Шу ўринда бошланажак ўқув йили учун нафақат туман маркази, балки барча қишлоқларда энг гавжум гузарлар ва мактабларни ўзида мактаб бозорчалари тинимсиз ишлаётганини айтиш лозим.

4—5-синфлар учун ижара бўйича дарсликлар келтиришни бошладик. Ўтган ўқув йилида шу йўсинда дарсликлар билан таъминланган 9-синф ўқувчиларидан ижарада бўлган ўн номдаги 3695 комплект, ўн миллион сўмдаги дарсликлар яна ижарага бериш учун кутубхоналарда сақланмоқда.

2—9-синфларнинг кам таъминланган ва серфарзанд оилаларнинг 5000 нафар болаларига имтиёзли ўқув қуроллари ва дарсликлар бериш режаси тузилган.

Анъанага кўра, Президентимиз ташаббуси билан 3800 нафар биринчи синфга қабул қилинадиган ўғил-қизларимиз учун 12 номдаги 30 миллион сўмлик ўқув қуроллари ва дарсликлар ҳозирлаб қўйдик. 1—4-синфларнинг 2000 дан ортиқ ўқувчиларига 25 миллион сўмлик кийим-кечак янги ўқув йили арафасида бепул тарқатилади.

Асқарали МАМАТОВ
ёзиб олди.
Наманган вилояти

Yangi o'quv yiliga tayyormisiz?

Bu yil biz istiqlolimizning 12 yilligini tantanali tarzda nishonlayapmiz. 12 raqamining ham o'zgacha ramziy ma'nosi bor. 12 oy, 12 muchal, 12 shahrimiz darvozasi. O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'idagi 12 ta yulduz tasviri ham tarixiy an'analarimiz, qadimgi quyosh yilnomamizga bevosita aloqadordir.

— Ha, Vatan tuyg'usi — bu Vatanni himoya qilib, Vatan deya fido bo'lgan To'maris, Shiroq, Spitamen, Najmiddin Kubro, Solihbek dodho, Mulla Alimqul dodho singari yuzlab sheryuraklarni eslashdir.

Milliy istiqlol g'oyasi

«ИСТИҚЛОЛИНГ БОҚИЙ БЎЛСИН, ЭЙ, ОНА ЮРТИМ!»

(Умумий ўрта таълим муассасаларида "Мустақиллик дарси"ни ўтиш бўйича намунавий сценарий)

Ҳур Ўзбекистонимиз умумтаълим мактабларида биринчи дарс истиқлолга бағишланиши анъанага айланиб қолди. Ўқувчилар она-Ватан, мустақиллик ҳақида кўп шеърлар ёд биладилар, етарли маълумотга эгалар. Шуни ҳисобга олган ҳолда дарсни гуруҳларга бўлиб, баҳс-мунозара тарзида ўтказиш ҳам мумкин. Қуйида ижодкор ўқитувчи, Тошкент шаҳар Юнусобод туманидаги 105-мактабнинг олий тоифали она тили ва адабиёт фани муаллимаси Гулжамила Аъзамхўжаеванинг "Истиқлолинг боқий бўлсин, эй, она юртим!" мавзуидаги мустақиллик дарси лойиҳасини эътиборингизга ҳавола этаётирмиз. Ундан ижодий фойдаланасиз, деган умиддамиз.

Дарснинг мақсади: Ўқувчиларга ўзлигини чуқурроқ танитиш. Уларда эрк, истиқлол, Ватан туйғуси тушунчаларини мустаҳкамлаш орқали юксак дидли, ақлан баркамол, маънавияти етук, мустақил фикрловчи ёшларни тарбиялаш. Берилган топшириқлар орқали ўқувчиларнинг китобхонлик малакасини ошириш, Ватанини севишга, унга муносиб комил фарзанд бўлишга ундаш.

Дарсга тайёргарлик ва дарснинг жиҳози: 1. Президентимиз Ислом Каримовнинг матбуотда баён этилган фикрлари. (Газета, журналлар кўргазмага қўйилади). 2 Президентимиз асарларидан намуналар. (Кўргазмага қўйилади). 3. Ватанимиз харитаси. 4. Ватанимизни ифодаловчи суратлар. 5. Ватанимиз ҳақидаги шеърлар. 6. Магнитофон, магнит тасмасига ёзилган Ватанимизни мадҳ этувчи мусиқалар ва ашулалар. 7. Биринчи дарсга бағишланган деворий газеталар.

Дарс услуби: Баҳс-мунозара.

Дарснинг бориши: Дарс саломлашишдан бошланади.

Истиқлол мусиқаси эшитилади.

Ватанимизни мадҳ этувчи шеър ўқилади.

1-ўқувчи:

Ассалом, улуғ халқ,
ўзбегим,
Дили пок, қутлуғ халқ,
ўзбегим.
Ассалом, ҳур тақдир,
истиқлол,
Иқболим, шарафим,
ўзлигим.

2-ўқувчи:

Тонг билан янграйди
мадҳиям,
Порлайди юксакда
қуёшим.
Йўл кўркам, эл кўркам,
дил кўркам,
Карвонинг бошлайвер,
Юртбошим!

Сўнгра тантана билан Ўзбекистон Республикасининг Давлат мадҳияси ижро этилади. Жонажон мактабимиз ҳақида шеър ўқилади.

3-ўқувчи:

Ассалом, мактабим —
улуғ кошона!
Ассалом, жон-таним,
Ватаним — она!
Мен сени соғиндим
юрак-юракдан —
Нақадар азизсан
офтоб — нурхона!

4-ўқувчи:

Истиқлол даврининг
гулбоғи — мактаб,
Буюк келажакнинг
чароғи — мактаб.
Ҳар ўғил, ҳар қизга
ҳаводай зарур,
Бокира туйғулар
булоғи — мактаб!

Ўқитувчи:

— Азиз ўқувчилар, аввалгамбор сизларни Билимлар куни билан, Истиқлол байрамимиз билан табриклайман. Мана, Ўзбекистонимиз давлат мустақиллигининг 12 йиллигини нишонламоқда. Миллий истиқлол ўзбек халқининг асрий орзуси, армони эди. Бу йўлда минг-минглаб Ватан, юрт фидойилари азиз жонларини қурбон қилдилар. Миллий мустақилликнинг қўлга киритилиши катта ютуқ, унинг қадрига етиш, мустаҳкамлаш, авайлаб сақлаб қолиш олдимиздаги шарафли бурчимиздир.

Ҳар қандай мамлакатнинг қудрати, унинг миллий мустақиллиги, давлат чегараларининг дахлсизлиги — ўша мамлакат фуқароларининг ўз юртига меҳр-муҳаббатли қилиб тарбияланганликлари, Ватан мустақиллиги ва миллий истиқлол учун курашда, зарур бўлса жон фидо қилишга ҳам тайёр бўлишдек олижаноб фазилатларга эга бўлишликларига боғлиқдир.

Асрларга татигулик ўтган 12 йил мамлакатимиз тарихига, халқимиз хотирасига беназир йиллар бўлиб кирди. Ўзбекистон довруғи оламга ёйилди. Юртбошимиз Бирлашган Миллатлар Ташкилоти — жаҳоннинг бош минбаридан нутқ сўзлаб, дунё халқлари тақдирининг муҳим жиҳатларини қамраб олган муаммоларни кўйди, мазкур муаммоларнинг аниқ ва равшан ечимларини кўрсатиб берди. Бугунги кунда жаҳон давлатларининг эшиклари бизга тобора кенгроқ очилмоқда.

Азиз ўқувчилар, бугунги биринчи дарсимиз истиқлол ҳақида, Президентимиз асарлари асосида, Ватанимиз тарихи ҳақида ўқилган китоблар ва тушунчалар асосида, буюк фидойиларимиз, алломаларимиз ва албатта, тенгдошларингиз, келажагингиз ҳақида ўз фикр-мулоҳазаларингиз асосида бўлади.

Дарсни гуруҳларга бўлиб, баҳс-мунозара тарзида ўтказамиз.

Гуруҳларда ишлаш:

Ўқувчилар уч гуруҳга бўлинадилар. Ҳар бир гуруҳга ном қўйилади ва ҳар бир гуруҳга мавзу берилади. Вақт белгиланади, ҳакамлар ҳайъатини сайлаймиз.

1. "Камалак" гуруҳига "Миллий истиқлол" мавзуси;
2. "Қуёш" гуруҳига "Ватан туйғуси" мавзуси;
3. "Лочин" гуруҳига "Маънавияти етук ёшлар" мавзулари берилади.

Белгиланган вақт давомида ўқувчилар "Мен нечун севаман Ўзбекистонни?" ашуласини эшитишади ва мавзуларга тайёрланишади. Сўнгра ўқувчилар берилган мавзулар асосида баҳс-мунозара юритишади.

Мунозарани "Камалак" гуруҳи бошлаб беради.

5-ўқувчи:

Эй, гўзал юртим, муборак шонли истиқлол сенга,
Ярқираб, тақдир қўли бахш айлаган иқбол сенга.
Шўх наво шодлик билан оламга кўрсат ўзлигинг,
Токи юлдузли самолар боқса боқсин лол сенга.

6-ўқувчи:

Ҳайрату фахр ичра мадҳингни қилурмиз, эй Ватан,
Ҳар нигоҳда меҳримиз изҳор этиб яққол сенга.
Дўстлигу тинчлик билан оламга машҳурсан ўзинг,
Эй, гўзал юртим, муборак шонли истиқлол сенга.

7-ўқувчи:

— Азиз устозлар ва тенгдошлар! Бу йил биз истиқлолимизнинг 12 йиллигини тантанали тарзда нишонлаяпмиз.

12 рақамининг ҳам ўзгача рамзий маъноси бор. 12 ой, 12 мучал, 12 шаҳримиз дарвозаси. Ўзбекистон Республикасининг Давлат байроғидаги 12 та юлдуз тасвири ҳам тарихий анъаналаримиз, қадимги қуёш йилномамизга бевосита алоқадордир. Бизнинг ўн икки юлдузга бўлган эътиборимиз Ўзбекистон сарҳадидаги қадимги давлатлар илмий тафаккурида "Нужум илми" тараққий этганлиги билан ҳам изоҳланади.

Давлат байроғимиздаги ўн икки юлдуз тасвирини ўзбек халқи маданияти қадимийлиги, унинг комилликка, ўз тупроғида саодатга интилиши рамзи сифатида тушуниш лозим.

8-ўқувчи:

— Мустақил Ўзбекистонимиз ҳаётидаги энг муҳим ҳодиса, дунё ҳамжамиятига тенг ҳуқуқли аъзо бўлиб кирганимиздадир. Ўзбекистон давлати унда ўз мавқеига муносиб ўринни эгаллади. Юзлаб давлатлар билан дипломатик алоқалар ўрнатилди. Дунёдаги энг йирик давлатларнинг элчихоналари мамлакатимизда фаолият кўрсатмоқда.

9-ўқувчи:

— Ўн икки кўркам баҳорни кўрган мустақил давлатимизнинг обрўси, унинг буюк келажаги ҳамма тарафдан тўлиқ эътироф этилмоқда ва ишонч билан тан олинмоқда. Мамлакатимизнинг ташқи дунё билан сиёсий ва иқтисодий алоқалари кун сайин сермазмун бўлиб бораётир. Мустақиллик туфайли давлатимиз байроғи БМТда ҳилпираб турибди.

10-ўқувчи:

— Мустақиллик, халқимизнинг ёшу қарисига, оддий фуқаросию сиёсат арбобларига афсонавий куч ато этди. Имон, эътиқод, Ватан, эрк туйғуси, тили, руҳи чекланган халқимизнинг бутун борлиғини қамраб олди ва ўзлигини билиш, бирикиш, эл бўлиш, жаҳон шоҳсупасида ўзининг кимлигини, буюк инсонийлиги, меҳнати, ақли билан танитиш сари етаклайди.

11-ўқувчи:

— Тўғри, "Ўзбекистон — келажаги буюк давлат!" — деб таъкидламоқ учун барча асослар бор. Республикамизда ҳамма нарса: табиий бойликлар, унумдор ер, қудратли иқтисодий ва маънавий салоҳият мавжуд. Энг муҳими, бу диёрда меҳнатсевар ва истеъдодли халқ яшайди.

Бозор муносабатига хос бўлган руҳият, дунёқараш шаклланиб, одамлар шунга мувофиқ равишда иш тутишмоқда.

12-ўқувчи:

— Мустақиллик — имон, эътиқод эркинлиги. Мустақиллик — миллий қадрият, маънавият ва маданият, маърифат ва дин-диёнат озодлиги. Мустақиллик — давлатнинг миллий чегараси, иқтисодий, сиёсий ва маънавий жиҳатдан дахлсизлиги. Мустақиллик — муайян давлатнинг давлат бошқарувига, унинг ички ишларига ҳеч кимнинг аралашмаслиги. Мустақиллик — миллий тилнинг давлат мавқеига эга бўлиши. Мустақиллик — миллий армиянинг барқарорлиги, яғоналиги ва унинг бошқаларга бўйсунмаслиги. Мустақиллик — давлат ҳудудидаги барча ер ости ва ер усти бойликларига, шунингдек, унга тегишли чегара осмонига дахлсизлик. Мустақиллик — ташқи мамлакатлар билан ҳар қандай алоқа ва муносабатлар эркинлиги.

Ўқитувчи:

— Тўғри фикр, жуда яхши. Энди навбатни "Қуёш" гуруҳига берамиз.

13-ўқувчи:

Ўз элимсан,
ўз тилимсан,
Ўзбекистоним ўзинг!
Бу жаҳонда
бир қуёшдай
Бир чароғбоним ўзинг!

14-ўқувчи:

— Муқаддас китобимиз — Қуръони каримда "Ватанни севмоқ имондандир", дейилади. Имон ишончдир. Демак, эътиқодли, аниқ фикрга эга, ориятли, виждонли, андишали, инсофли кишилар имонли ҳисобланади. Улар Ватаннинг қадрига етади ва кўз қорачиғидек асрайди.

Ватан табаррук маскан, аждодлардан авлодларга буюк мерос, азиз хотирадир. Ватан — киши туғилиб ўсган жой. Унинг тупроғи ҳам Ватан каби муқаддасдир, чунки бизнинг киндик қонимиз тўкилган замин тупроқдир.

15-ўқувчи:

— Ватан туйғуси, Ватан ҳисси — муқаддас туйғу. Бу Ўзбекистондир. Ўзбекистонни ўзбек халқи ўз меҳнати, ақл-идроки билан яратган. Ўзбекистонни мўъжизалар диёри, гўзал ва дўстлик мамлакати дейишади. Ватан ҳисси, бу унинг эгаси бўлмиш халқни севмоқ, ҳурмат қилмоқ, қадрламоқ ва эътироф этмоқ демакдир. Ҳақиқий Ватан муҳаббати, Ватан ҳисси мамлакат озод ва обод, халқ эркин бўлгандагина юзага келар экан.

Мана шундай озод ва обод диёрда яшар эканмиз, озодлигимиз учун курашиб, истиқлол тамал тошини қўйишда жонларини фидо қилганлар олдида бош эгиб, уларни эъзозлаб, ҳурмат билан тилга оламиз.

16-ўқувчи:

— Ҳа, тўғри, Ватан туйғуси — бу гўзал ақл-идроки билан жаҳон цивилизациясига улкан ҳисса қўшган Мусо ал-Хоразмий, Аҳмад ал-Фарғоний, Абу Наср ал-Форобий, Абу Мансур ас-Самарқандий, Абу Абдуллоҳ ал-Хоразмий, Абу Райҳон Беруний, Абу Али ибн Сино, Маҳмуд аз-Замахшарий, Мирзо Улуғбек сингари ўнлаб қомусий мутафаккирларни ёдга олишдир.

17-ўқувчи:

— Тўғри айтасиз, Ватан туйғуси, юксак бадиий салоҳиятлари билан ўлмас асарлар яратган адиб Аҳмад Югнакий, Юсуф Хос Ҳожиб, Маҳмуд Қошғарий, Аҳмад Яссавий, Сулаймон Боқирғоний, Насриддин Рабғузий, Абдураҳмон Жомий, Алишер Навоий каби мумтоз қалам соҳибларини ёдга олишдир.

18-ўқувчи:

— Ҳа, Ватан туйғуси — бу бутун мусулмон дунёси эътироф этган буюк муҳаддислар — имом ал-Бухорий, Абу Исо Муҳаммад ат-Термизийларни ёдга олиш. Улар ислом динида Қуръони каримдан кейин энг муқаддас ҳисобланувчи ҳадиси шариф тўпламларини тузиб, юртимизга ва халқимизга сўнмас шоншараф келтирдилар. Ватан туйғуси — ислом таълимоти равнақига бемисл ҳисса қўшган Бурҳониддин ал-Марғиноний, Баҳоуддин Нақшбанд, Шайх Хованд Таҳур, Ҳожа Аҳрор Валий сингари ўнлаб буюк зотларни ёдга олиш.

19-ўқувчи:

— Ҳа, Ватан туйғуси — бу Ватанни ҳимоя қилиб, Ватан дея фидо бўлган Тўмарис, Широқ, Спитамен, Нажмиддин Кубро, Солиҳбек додҳо, Мулла Алимқул додҳо сингари юзлаб шерюракларни эслашдир. Албатта, Ватан туйғуси — бу томирида охирги томчи қони қолгунча душманга қарши курашган Жалолиддин Мангуберди, Темур Малик, Мадаминбек, Намоз ботир сингари бўйсунмас баҳодирларнинг, ота юрти Туркистонга келиб, аёвсиз жангларда ҳалок бўлган Анвар пошшонинг, қулликдан ўлимни афзал билган Оқ масжид, Чимкент, Авлиё ота, Тошкент, Жиззах, Самарқанд, Зирабулоқ ҳимоячиларининг номини ёдга олиш.

20-ўқувчи:

— Ватан туйғуси, бу курашларда, кураги ерга тегмаган Паҳлавон Маҳмудни ёдга олиш. Ватан туйғуси, бу мустамлака тузумига қарши бош кўтарган Тошкент, Жиззах, Андижон қўзғолонлари иштирокчилари, Дукчи эшон хотирасини унутмасликдир. Ватан туйғуси, бу зулм-истибддоддан қутулиш учун халқни маърифатли бўлишга чорлаган, миллий уйғонишни ўлкамнинг кундан-кунга гўзаллашиши, турли қурилиш ишлари: чиройли йўллари, кенг ва мафтункор кўчалари, маҳобатли кўприклар, аждодларимизни ёд олиб қурилган хотира майдонлари, ёдгорлик бинолари, замонавий бунёдкорлик мажмуалари, ям-яшил боғлар, ҳар қадамда дилларга сурур бахш этувчи гулзорлар кишини ҳайратга солади.

22-ўқувчи:

— Тўғри, шундай гўзал диёрда истиқлолнинг илк бор порлаётган юлдузлари мана биз — ўқувчи-ёшлармиз. Ватанимиз келажагини яратувчилармиз. Биз ҳозирдан бошлаб бой маънавий ва маданий меросимизни чуқур ўрганишимиз, Ватанимизни жондан севишимиз, одобли, маърифатли, маънавияти етук, соғлом бўлиб, илм чўққиларини эгаллашимиз керак. Онгимизда миллий тафаккур ва миллий ғурурни шакллантиришимиз лозим.

23-ўқувчи:

— Халқимизнинг янги жамият барпо этиш йўлидаги орзу-интилишлари унинг миллий ғояси ва мафкурасини шакллантиришни ҳаётий заруратга айлантирди. Миллий истиқлол мафкурасининг бош ғояси озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт барпо этишдир. Миллий истиқлол мафкурасининг асосий ғоялари: Ватан равнақи, юрт тинчлиги, халқ фаровонлиги, комил инсон, ижтимоий ҳамкорлик, миллатлараро тотувлик, динлараро бағри кенгликдир.

Бу ғоя ягона мақсад йўлида меҳнат қилаётган турли миллат ва элатларга мансуб кишилар ўртасидаги ўзаро ҳурмат, дўстлик ва ҳамжиҳатликнинг маънавий асосидир. Шунинг учун у ҳар бир миллат вакилининг истеъдоди ва салоҳиятини тўла рўёбга чиқариш учун шароит яратади ва уни Ватан равнақи, юрт тинчлиги, халқ фаровонлиги каби эзгу мақсадлар сари сафарбар этади.

24-ўқувчи:

— Ҳа, ишончим комилки, биз — ёшларнинг она-Ватанга қўшаётган ҳиссаларимиз халқимизни янада бирлаштиради, унинг руҳига малҳам бўлади, иродасини бақувват, имонини бутун қилади. Биз босаётган ҳар бир шарафли излар ёш мустақил давлатимизнинг зар саҳифаларига тошга битилгандек ёзилади.

Билим олиш учун шунчалик имкониятлар мавжуд бўлган бир пайтда, афсуски, ёшларимиз орасида маънавий қашшоқ, савияси паст кишилар ҳам бор. Улар дин ниқоби остида иш кўрувчи турли экстремистик гуруҳлар қўлида осонгина ўйинчоқ бўлмоқдалар. Илмсизлик инсонни жаҳолатга етаклайди. Айрим ёшларимизнинг қора кучлар таъсирига тушиб қолиши илмсизликдан, онгсизликдан ва маънавиятсизликдандир. Шунинг учун 1999 йил 16 февраль воқеасини биз—ёшлар ҳеч қачон унутмаслигимиз керак. Ҳар доим огоҳ ва ҳушёр бўлишимиз лозим. Биз ҳам уларга қарши курашда ўз ҳиссамизни қўшишимиз керак. Бунинг учун билимдон бўлишимиз лозим. Юртбошимизнинг: "Фарзандларимиз биздан кўра кучли, билимли, доно ва албатта бахтли бўлишлари шарт", деган сўзлари ёшларнинг дастуруламалига айланди. Бу эса, биз — ёшларга куч бағишлайди. Чунки, ёшларимизнинг замонавий билимларни эгаллашлари, юртимиз келажагини бунёд этишлари учун барча шарт-шароитлар яратилмоқда. Энг иқтидорли ёшларимиз хориждаги нуфузли олий ўқув юртларида ўз билим-малакаларини оширмоқдалар. Бу эса, келажаги буюк давлатнинг яратувчилари, баркамол авлоднинг ўқишга бўлган ҳаваси тобора ортиб бораётганлигидан далолатдир.

25-ўқувчи:

— Президентимиз Ислом Каримов ташаббуслари билан "Умид ниҳоллари", "Баркамол авлод" ва "Универсиада" республика спорт ўйинларининг ташкил қилиниши жуда катта аҳамиятга эгадир. Натижада ёшларимиз чиниқмоқдалар, ватанпарварлик руҳида тарбияланмоқдалар, спорт заҳираси янги иқтидорли ёшлар билан тўлдирилмоқда. Бу ўйинлар "Фарзандлари соғлом юрт қудратли бўлур" шиори остида ўтиши ҳам бежиз эмас. Натижада юзлаб, минглаб, миллионлаб ёшлар спортга ошно тутинадилар ва соғлом келажакка замин яратилади.

26-ўқувчи:

— Ҳурматли Юртбошимизнинг "Биз ҳеч кимдан кам эмасмиз, кам бўлмаймиз!", дея айтган даъватлари мени тўлқинлантириб юборди. Ватанимга бўлган туйғу, муҳаббатимни оширди. Миллий ғуруримни уйғотди. Мен келажакда қайси касб эгаси бўлмай, аввало, Ватанимнинг ҳақиқий комил фарзанди бўлишга сўз бераман. Мен ҳам Ўзбекистон ифтихори бўлишни жудажуда истайман. Ёшлигимдан спорт билан шуғулланаман. Бокс бўйича 2001 йил Мустақиллик байрамига бағишланган очиқ мактаб биринчилигида 48 кг. вазнда шаҳарда 1-ўринни олганман.

Юртбошимиз биз — ёшларнинг соғлом, жисмонан бақувват, комил инсон бўлишимизга жондан ғамхўрлик қилмоқдалар. Бунинг учун биз — ёшлар ўз миннатдорчилигимизни билдирамиз. Мен ҳам илм чўққиларини эгаллаб, Ватаним олдидаги йигитлик бурчимни бажарсам, Ватанимни ҳимоя қилсам, унга содиқ, муносиб фарзанд бўлсам, Ватаним равнақи, юртим тинчлиги, халқимнинг фаровон ҳаёти учун катта ҳисса қўшсам дейман. Керак бўлса, Ватаним, халқим учун жонимни ҳам фидо қилишга тайёрман, чунки Ватан мен учун муқаддасдир. Буюк мутафаккир бобомиз Алишер Навоий:

Ноқис улдирким,
ўзин комил дегай,
Комил улким, нуқсин
исбот айлагай, —

деганларидек, биз — ёшлар комилликка интилиб яшар эканмиз, албатта, маънавияти етук ёшлар бўламиз.

Ўқитувчи:

— Жуда яхши. Мунозарада жуда фаол қатнашдингиз.

Ўтилган дарсни мустаҳкамлаш.

Ўқитувчи:

— Азиз ўқувчилар, Президентимиз Ислом Каримов жаҳонни кўра билмоқдалар, бизни ҳам шунга чорламоқдалар, мамлакатимизни тараққий этган давлатлар қаторига олиб чиқиш учун фидокорона курашмоқдалар, миллатни илғор миллатлар даражасига кўтариш учун жонкуярлик қилмоқдалар.

Ҳурматли Президентимиз халқимизнинг донишмандлигига, иродамизнинг мустаҳкамлигига ишонадилар. Бу ишончни, албатта, оқлашимиз, амалда ўзимизни кўрсатишимиз керак. Бу эса келажаги буюк давлат қуриш учун кураш йўлидир!

Бугунги дарсимизга якун ясар эканман, Президентимизнинг: "Амир Темур бобомизнинг "Куч — адолатда" деган машҳур таъбирини бугунги кунга нисбатан қўллаб айтадиган бўлсак, мен унга қўшимча қилиб: "Куч — билим ва тафаккурда" деган бўлардим", деб айтган ажойиб сўзлари билан ва ёшларимизга қарата: "Обод Ватаннинг озод фарзанди бўл!" дея оталарча айтган доно сўзлари билан якунламоқчиман.

Дарснинг якуни: Ватан ҳақидаги гўзал тарона дарс якунида эшиттирилади. Сўнгра ҳакамлар ғолиб гуруҳни аниқлашиб, баҳоларини эълон қилишади.

Уйга вазифа қилиб "Келажак кишиси — менинг тасаввуримда" мавзуси асосида ижодий иш ёзиб келиш топширилади.

Гулжамила АЪЗАМХЎЖАЕВА,
Тошкент шаҳар Юнусобод туманидаги 105-мактабнинг олий тоифали она тили ва адабиёт фани муаллимаси

YANGI DARSLIKLAR VA QO'LLANMALAR YANGI DASTUR ASOSIDA

X SINFLAR UCHUN O'QUV DASTUR

JISMONIY TARBIYA

UQTIRISH XATI

«Jismoniy tarbiya» fani bo'yicha baho, o'quvchilarning jismoniy tarbiyaga doir bilimlarini va harakat texnikasini qanchalik egallaganligiga, o'quv me'yorlarini bajarish natijalariga, shuningdek bajarish mumkin bo'lgan jismoniy mashqlarni mustaqil ravishda qanday bajara olishiga qarab qo'yiladi.

Dastur bo'limlarini o'tish uchun o'quv vaqtlarini misoliy taqsimlash.

Jismoniy tarbiya dasturining bo'limlari bo'yicha soatlar taqsimoti X sinf (2 soatdan jami 68 soat)

		1-var.	2-var.
1	Bilim asoslari jarayonida	Dars	
2	Gimnastika	18	10
3	Yengil atletika	24	18
4	Sport o'yinlari (voleybol, basketbol, futbol, qo'l to'pi)	26	16
5	Kurash (o'smirlar), raqs elementlari, badiiy va ritmik gimnastika (qizlar)	10	10
6	Suzish	+	14
7	Harakat sifatlarini rivojlantiruvchi mashqlar	+	+
	JAMI	68	68

Eslatma:

1-variantdagi dastur bo'limlari bo'yicha soatlardan:

— suzishni o'tish imkoni bo'lgan maktablarda suzish uchun o'quv yiliga 14 soat; dastur bo'limidagi soatlarni qisqartirishingiz hisobidan

— o'g'il bolalar uchun kurash usullarini, qiz bolalar uchun raqs elementlari, ritmik va badiiy gimnastikani o'tish uchun 10 soat dasturning gimnastika bo'limidagi soatlar hisobidan beriladi.

Maktab imkoniyatlaridan kelib chiqib o'quvchilar to'rtta sport o'yinlaridan (basketbol, qo'l to'pi, voleybol, futbol) ikkita sport turi majburiy va bitta xohlagan sport turi tanlanadi.

Maktabning moddiy-texnik bazasiga, o'qituvchining ixtisosligi va o'quvchilarning qiziqishlariga qarab ajratilgan soatlarning taqsimoti dasturning boshqa turlari hisobidan oshirilishi yoki qisqartirilishi viloyat, tuman, shahar ma'muriyati bilan kelishilgan holda ilmiy kengashda tasdiqlanishi shart.

Jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilarning salomatligini saqlash, jismoniy ko'nikma va malakalarini mustahkamlash va jismoniy rivojlantirish maqsadida hamda Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 27 maydagi 271-sonli «O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorini amalga oshirish maqsadida haftasiga 4-6 soatgacha (maktab ixtiyoridagi soatlardan) jismoniy tarbiya darsini o'tish mo'ljallangan. Bu imkoniyatdan qaysidir sport turini chuqurlashtirib o'tish uchun foydalanish lozim.

X sinflarda jismoniy tarbiya darslari o'g'il va qiz bolalar bilan alohida o'tilishi shart.

X SINF

BILIM ASOSLARI

Jismoniy tarbiya va sport — shaxsni har tomonlama kamol toptirish, mehnatga va ijtimoiy faoliyatga tayyorlashning asosiy vositasi ekanligi to'g'risida bilim berish. Jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishda o'z-o'zini nazorat qilish to'g'risidagi bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash.

Jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish vaqtida qizlar va o'g'il bolalar gigiyenasi to'g'risida tushuncha berish. Jismoniy mashqlarni bajarish ish qobiliyatlarni oshirish vositasidir. Darsdan tashqari jismoniy mashg'ulotlarni o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari.

GIMNASTIKA

Nazariy ma'lumotlar.

Mashqlarni bajarishda nafas olish qoidalari. Gimnastika mashg'ulotlarida umumrivojlantiruvchi mashqlar bajarilishining o'ziga xosligi.

Ko'nikma va malakalar.

Saf mashqlari. Yurib ketayotganda orqaga burilish. Yurishdan yugurishga o'tish va shuninig aksi; 3-4-qator bo'lib yurish jarayonida chapga, o'nga burilishlar.

AKROBATIKA

O'g'il bolalar: balandligi 90 sm.gacha bo'lgan to'siqdan oshib, uzun o'mbaloq oshishni bajarish; sherigi yordami bilan qo'llarda tik turish, shu holatda sherigi yordamida orqaga o'mbaloq oshish.

Qiz bolalar: burchak hosil qilib o'tirish, tizzalarda tik turgan holatda orqaga egilish. Kuraklarda tik turish. Ilgari o'rganilgan elmentlarni takrorlash va takomillashtirish. 5 ta elementlar bilan kombinatsiya tuzish.

Muvozanat saqlash mashqlari.

Yakka cho'pda ikki oyoq bilan depsinib, oyoqlarni almashtirib sakrash. Oyoqlarni kerib sakrab tushish.

OSILISH, TAYANIB SAKRASH

O'smirlar turnikda kuch bilan ko'tarilib qo'llarga tayanish, orqaga aylanib, yoysimon orqaga tebranib sakrab tushish. Oldinga siltanib ko'tarilish. Parallel buruslarda tayanib burchak hosil qilib oyoqlarni kerib o'tirish, oyoqlarni juftlab tebranib orqaga sakrab tushish.

Qizlar: Baland-past burusda, bir oyoqda depsinib ikkinchi oyoqda siltanib, to'ntarilib ko'tarilish. O'ng oyoqni oldinga o'tkazib ustida o'tirish, orqaga tusha turib, o'ng oyoqning tizza ostida osilib, chap oyoq oldinga turish, o'ng oyoqni qo'l orasidan o'tkazib orqaga sakrab tushish.

TIRMASHIB CHIQISH

O'smirlar: oyoq yordamisiz arqonga tirmashib chiqish. Ikkita arqonga oyoqlar yordamisiz tirmashib chiqish.

Qizlar: gimnastika devoriga 90 gradusgacha tirab qo'yilgan gimnastik o'rindig'ida tirmashib chiqish.

TAYANIB SAKRASH

O'g'il bolalar: balandligi 115-120 sm. gacha bo'lgan uzunasiga qo'yilgan «kon»ning ustida oyoqlarni kerib sakrash.

Qo'shimcha materiallar: ko'ndalang qo'yilgan «kon» ustidan oyoqlarni kerib bir oyoqda depsinib burchak hosil qilib sakrab o'tish («kon»ning balandligi 110 sm.).

MILLIY RAQS ELEMENTLARI

Milliy raqs elementlari; Ritmik gimnastika, Badiiy gimnastika elementlarini takrorlash.

O'quvchilarga qo'yiladigan talablar.

1. Gimnastika bo'yicha me'yor talablarini bajarishga tayyorgarlik ko'rish.
2. Darsning tayyorlov qismida bir guruh o'quvchilar bilan mashg'ulot o'tkazish.

YENGIL ATLETIKA

Nazariy ma'lumotlar:

1. Hakamlik qilish qoidalari.
2. . Musobaqada yugurish taktikasi.

Ko'nikma va malakalar.

800, 5000 m.ga yugurish. Vertikal va gorizontal to'siqlardan tayanmasdan oshib o'tish. Qisqa masofaga yugurish: 2-3x30 m. ga, 2-3x60 m.ga, 1-2x100 m.ga yugurish, 2-3x80 m. ga qayta yugurish, 1-2 daqiqadan keyin dam olish. 100 m.ga yugurishda tezlikni takomillashtirish. Estafetali yugurishda start olishlar. Yugurib kelib uzunlikka va balandlikka sakrash. Yugurib kelib o'smirlar 700 gr. li granatani, qizlar 150 gr. li koptokni uloqtirish.

O'quvchilarga qo'yiladigan talablar.

1. Jismoniy tayyorgarlik talab va me'yorlarini topshirish.
2. Organizm holatiga qarab beriladigan yuklamaning me'yorlarini, topshirish.

SPORT O'YINLARI

QO'L TO'PI

Nazariy ma'lumotlar:

1. Guruhli va komandali taktik harakatlar.
2. Hakamlik qilish qoidalari.

Ko'nikma va malakalar

Qo'l to'pi – yerga urilib qaytgan koptokni ilib olish va uzatish; chalishtirma harakat; himoyachi qarshilik ko'rsatayotgan vaziyatda koptok otish; himoyada o'zaro muhofaza; zonali himoya; koptokni oshirib berish va ilib olish; himoyachi qarshilik ko'rsatayotgan vaziyatda koptokni uzatib yuborish.

Himoyachini aldab o'tib koptokni darvozaga sakrab otish; 5x5, 6x6 vaziyatli himoyaga qarshi hujumda taktik harakat qilish; yo'riqchilik va hakamlik amaliyoti; ikki tomonlama o'yin.

Harakat sifatlarini rivojlantirish uchun beriladigan materiallar.

BASKETBOL

Nazariy ma'lumotlar:

1. Hozirgi zamon o'yin talablari va tutgan o'rni.
2. Hakamlik qilish qoidalari.

Ko'nikma va malakalar.

Basketbol shitga urilib qaytgan koptokni ilib olish; koptokni erga urib, balandligi va tezligini o'zgartirib olib yurish; pozitsion hujum; zonali himoya; hujum va himoyada turli usullar bilan harakat qilish; baland uchib ketayotgan va urilib qaytgan koptokni sakrab ikki qo'llab ilib olish; koptokni bosh yonidan uzatish; raqibini aldab o'tib koptokni xalqaga tashlash; ikki tomonlama o'yin.

Harakat sifatlarini rivojlantirish uchun beriladigan mashqlar.

Harakat aniqligi va sakrash chidamliligi, tezkor- kuch sifatlarini rivojlantirish uchun beriladigan mashqlarni bajarish.

VOLEYBOL

Nazariy ma'lumotlar.

1. Hozirgi zamon o'yin qoidalari va tutgan o'rni.
2. Guruhli va jamoali taktik harakatlar.

Ko'nikma va malakalar:

Voleybol koptokni 6-3-4, 6-3-2 zonalarda tepa va pastdan qabul qilish va to'r ustidan uzatish. Koptokni sakrab zarb bilan urish; to'r oldida sakrab to'siq qo'yish; zarb bilan urilgan koptokni qabul qilish va qaytarish; himoya va hujumda taktik harakatlar; ikki tomonlama o'yin.

FUTBOL

Nazariy ma'lumotlar:

1. Guruhli, jamoali taktik harakatlar.
2. Hakamlik qilish qoidalari.

Ko'nikma va malakalar

Futbol – uchib kelayotgan to'pni oyoq yuzasi bilan tepish; to'pni sakrab va yugurib kelib bosh bilan urib qaytarish, raqibdan olib qo'yish; o'rganilgan texnik va taktik harakatlarni qo'llagan holda ikki tomonlama o'yin.

O'quvchilarga qo'yiladigan talablar.

1. Sport o'yinlari qoidalariga amal qilgan holda o'ynash.
2. Sport o'yinlari bo'yicha bir guruh o'quvchilar bilan mashg'ulot o'tkazish.

KROSS TAYYORGARLIK

Nazariy ma'lumot:

Kross tayyorgarligi oldidan organizmni tayyorlash uchun mashq o'tkazish qoidalari.

Ko'nikma va malakalar.

Yugurish: 2-3 km. ga kross yugurish, 5x800 m. ga o'zgaruvchan tezlikda yugurish, har 300 m. dan keyin 1 marta sekin yugurish. Pastdan tepalikka yugurish, 600-700-1000-750-800m. ga o'zgaruvchan tezlikda yugurish. 2000 m.gacha sekin yurish. Past – baland joylardan 5-6 to'siqni oshib (50-60 sm.) o'tish va yo'nalishni o'zgartirib yugurish. To'siqlardan oshib yugurish: balandligi 75 sm. to'siqlardan o'tish; 10 m.ga yugurish; 1x1 m. o'lchamining vertikal nishoniga tennis to'pini uloqtirish va labirintdan o'tish; 10 m. ga yugurish.

Harakat sifatlarini rivojlantirish uchun beriladigan materiallar.

O'quvchilarga qo'yiladigan talablar.

1. O'quv me'yor talablarini topshirishga tayyorgarlik ko'rish va topshirish.

MILLIY KURASH

Nazariy ma'lumotlar:

1. Kurash bo'yicha musobaqa qoidalari haqida ma'lumot.
2. Hozirgi zamon kurashlari.

Ko'nikma va malakalar

O'z-o'zini himoya qilish usuli: yonlamasiga yiqilish, bir yondan ikkinchi yonga ag'darib olish. Qo'l, yelka bilan ko'kraklarga tayangan holda oldinga o'mbaloq oshish, emaklab turib sherigini ustidan oshib, yonlamasiga yiqilish. Yotib kurashish usullari bo'yicha oldingi sinflardagi materiallarni mustahkamlash. O'quv mashq bellashuvlari va musobaqalarda qatnashish.

Harakat sifatlarini rivojlantirish uchun beriladigan materiallar.

Bo'yinlarning harakatchanligi, kuchning, maxsus harakat koordinatsiyasini hamda chaqqonlikni rivojlantirishga beriladigan mashqlar:

— umumiy rivojlantirish va akrobatik mashqlar;
— tortilish bilan bajariladigan mashqlar;
— parterda bajariladigan mashqlar;
— kurashda bajariladigan mashqlar.

O'quvchilarga qo'yiladigan talablar.

1. O'rganilgan ikki yoki uchta usullarni ko'rsata bilish.

SUZISH

Nazariy ma'lumotlar:

1. Suzish bo'yicha musobaqa (burilishda, sekundametrist, kotibalik) da hakamlik qilish.
2. Og'izdan-og'izga sun'iy nafas olish usullari haqida.

Ko'nikma va malakalar

Cho'kayotgan kishiga yordam berishda uning changalidan xalos bo'lish usullari. Cho'kayotgan kishiga birinchi yordam ko'rsatish. Suvdagi predmetni turtib va sudrab olib chiqish. O'rganilgan suzish usullarining elementlariga rioya etgan holda suzish.

O'quvchilarga qo'yiladigan talablar.

Suzish bo'yicha qo'yilgan talab me'yorlarini bajarishga tayyorgarlik ko'rish va topshirish.

HARAKATLI O'YINLAR

«Soqqa», «Otib qochar», «Taqiya tushirar» , «Quloq cho'zma», «Oq suyak», «Arqon tortish», «Kim kuchli?», «Chavandoz», «Bo'ron», «Qal'ani olish» , «Qurshovdan chiqib ketma», «Uzoqqa sakrash», «Janglyorlar ikki to'p bilan», «Nishonga tekkizish», «Aldab o'tish», «To'pni davradan tepib chiqar!», «Epchil bolalar», «Eshak mindi», «Olib qochar», «50 m ga suzish» va boshqa o'yinlar orqali o'quvchilarda sezgirlik, zukkolik, diqqat, xotira va shunga o'xshash fazilatlarni tarbiyalash.

X SINF O'QUVCHILARI UCHUN JISMONIY TAYYORGARLIK BO'YICHA TALAB ME'YORLARI

№	Nazorat qilish mashqlari	O'g'il bolalar			Qiz bolalar		
		5	4	3	5	4	3
1	60 m. ga yugurish (son.)	8,4	8,7	9,0	9,2	9,7	10,1
2	100 m. ga yugurish (son.)	13,8	14,8	15,0	16,5	17,0	17,5
3	Yugurib kelib uzunlikka sakrash (sm.)	440	400	380	360	330	300
4	Yugurib kelib balandlikka sakrash (sm.)	130	125	120	115	110	105
5	150 gr. li koptokni uloqtirish (metr)	-	-	-	36	32	28
6	700 gr. li granatani uloqtirish (metr)	35	30	27	-	-	-7
	4x10 m. ga mokisimon yugurish (son.)	10,2	10,4	10,7	10,9	11,3	11,6
8	2000m. ga kross yugurish	-	-	-	Vaqt hisobga olinmaydi		
9	3000 m. ga kross yugurish (daq. son.)	13.00,0	13.30,0	14.30,0	-	-	-
10	Baland turnikka tortilish yoki kuch bilan to'ntarilib ko'tarilish (marta)	12	4	9	3	7	1
11	Qo'llar bosh orqasida chalqancha yotgan holatda gavdani ko'tarish (marta)	-	-	-	35	30	20
12	Past turnikda osilib yotgan holatda tortilish (marta)	-	-	-	23	20	16
13	4 m. li arqonga oyoqlar yordamisiz tirmashib chiqish (son.)	13	16	19	-	-	-
14	Arg'amchida 1 daqiqa davomida sakrash (marta)	100	95	90	120	110	100
15	1000m. ga kross yugurish (daqiqa, son.)	-	-	-	5.30,0	5.50,0	6.10,0
16	Joyidan turib uzunlikka sakrash (sm.)	230	220	210	170	150	130

IQTISODIYOT VA BIZNES ASOSLARI 10-SINF

"Iqtisodiyot va biznes asoslari" predmeti bo'yicha o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasida ta'lim islohotlari natijasida tarkib topayotgan umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinfi uchun mo'ljallangan. Mazkur dastur umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-9-sinflarida davlat ta'lim standartlari asosida olgan bilimlarni chuqurlashtirish va davom ettirishni nazarda tutgan holda tuzilgan.

"Iqtisodiy bilim asoslari" fani bo'yicha davlat ta'lim standarti va yangi o'quv dasturini ishlab chiqishda, 9 yillik umumiy o'rta ta'lim tizimiga o'tish munosabati bilan amaldagi 10-11 sinflar uchun "Iqtisodiyot va biznes asoslari" dasturidagi ayrim mavzular umumiy o'rta ta'lim nihoyasida o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan iqtisodiy bilim, ko'nikma va malakalarning minimal darajasi e'tiborga olingan holda, 8-9 sinflar o'quv dasturi tarkibiga kiritilgan.

Jumladan, "Ehtiyoj va resurslar", "Iqtisodiyotda pul", "Bozor tushunchasi va uning turlari", "Raqobat", "Talab va taklif", "Bozor iqtisodiyoti mohiyati" va "Mulk va xususiylashtirish" mavzulari 8-sinfda, "Biznes va tadbirkorlik", "Menejment", "Marketing", "Iqtisodiyotga davlatning ta'siri" boblari 9-sinfda o'rganiladi.

Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda, 10-sinf dasturiga 8-9 sinflarda soddalashtirib, qisqartirib berilgan yoki o'rganilmagan ayrim mavzular o'quvchilar yoshiga mos ravishda kiritilgan. Dasturda har bir bobdagi nazariy va amaliy mashg'ulotlarga ajratilgan dars soatlari keltirilgan.

1. "Iqtisodiyot va biznes asoslari" fani bo'yicha o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar.

Ushbu bo'limni o'rganish natijasida o'quvchilar 10-sinf oxirida quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi lozim:

✍ iqtisodiyot fanining mohiyatiga tushunib yetish;

✍ ehtiyojlarning turlarini, ularning zarurlik darajasiga qarab sinflarga ajratish va ehtiyojlarning ularni qondirish uchun zarur bo'lgan resurslar miqdoriga nisbatan nomutanosibligini anglash;

✍ iqtisodiyotning asosiy muammosining ma'nosini tushunib yetish va bu muammoni yechishning iqtisodiyot fani oldida turgan bosh masala ekanligini idrok qilish;

✍ ishlab chiqarish zarurligini anglash, ishlab chiqarish omillari va ularning vazifalarini farqlay bilish;

✍ natural xo'jalik munosabatlarining asosiy kamchiliklarini va ular ayirboshlashni keltirib chiqarganini tushunib yetish;

✍ tovar xo'jaligi va ayirboshlashning ixtisoslashuv va mehnat taqsimoti natijasida vujudga kelganligini idrok qilish;

✍ qimmatli qog'ozlar bozori – bozor infratuzilmasining muhim tarkibiy qismi ekanligini anglash;

✍ fond birjasining vazifalarini va unda qatnashuvchilarning rollarini farqlay olish;

✍ aksiyalar kursi, aksiyalarning nominal qiymati, fond birjasi indeksi, obligatsiyalar, "buqalar", "ayiqlar", "kompaniya narxi" kabi tushunchalar bilan tanish bo'lish va ularni o'z nutqlarida qo'llay olish;

✍ banklarning iqtisodiyotdagi ahamiyatini tushunib yetish;

✍ iqtisodiy ko'rsatkichlar: daromad, chiqim, foyda, zarar, rentabellik orqali iqtisodiy faoliyatni tahlil qila olish;

✍ xarajatlarni kamaytirib, daromadni ko'paytirgan holda yaxshi iqtisodiy natijalarga erishish malakasiga ega bo'lish;

✍ talab va taklif tushunchalarini o'zlashtirib, ularning bozordagi ahamiyati va o'rnini anglab yetish, ulardan amaliyotda foydalana olish;

✍ talab va taklifning o'zaro munosabati va ularning narx bilan o'zaro munosabatlarini aniqlay olish;

✍ talab va taklif egiluvchanligini hayotiy vaziyatlarda talqin qila olish;

✍ narxning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi belgilanish tamoyillari bilan tanishish va rejali iqtisodiyotdagi narx o'rnatilishi tamoyillaridan farqlarini anglash;

✍ tarixdagi iqtisodiy tizimlar, ayniqsa rejali iqtisodiyot kamchiliklari bo'yicha mulohaza yurita olish;

✍ bozor iqtisodiyotiga o'tish davridagi iqtisodiy faoliyatning o'ziga xosligini tushunib yetish;

✍ iste'molchining bozordagi mavqeini his eta olish;

✍ kamayib boruvchi chegaraviy naflilik qonunining mohiyatini anglab yetish va amalda qo'llay olish;

✍ iste'molchining nominal va real daromadlarini farqlay bilish;

✍ iste'mol krediti va sug'urta tushunchalari bilan tanish bo'lish;

✍ biznes (tadbirkorlik) va biznesmen (tadbirkor) tushunchalarning mohiyati va ularning bozor iqtisodiyotidagi ahamiyatini tushunish;

✍ firmalarning ochilishi va faoliyat ko'rsatishi uchun zarur shart-sharoitlar, ularni tashkil qilish qoidalari haqida tasavvurga ega bo'lish;

✍ tadbirkorni iqtisodiy omillarni birlashtiruvchi shaxs sifatida va boshqaruvchi sifatida tavsiflay olish;

✍ firmada tadbirkor va ishchi xodimlar o'rtasidagi munosabatlarning tamoyillarini bilish va modelli vaziyatda namoyon qila olish;

✍ tadbirkorlikni tashkil qilish bo'yicha boshlang'ich bilimlarga ega bo'lish;

✍ firma turlarini ajrata olish va ularning tuzilish qoidalari bilan tanish bo'lish;

✍ firmaning iqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlarni tahlil qila olish;

✍ firmaning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar bo'yicha boshlang'ich bilimlarga ega bo'lish va ularni amalda qo'llay olish malakasini egallash;

✍ raqobatning bozor iqtisodiyotida markaziy o'rin tutishi va erkin raqobatga yo'l ochish – iqtisodiy taraqqiyotga yo'l ochish ekanligini tushunib yetish;

✍ bozorning monopollashish nuqtai-nazaridan turlarini farqlay olish;

✍ davlatning erkin raqobatning himoyachisi ekanligi sabablarini tushuntira bilish;

✍ turli tarixiy davrlarda davlatning iqtisodiyotdagi rolini va tadbirkorlarga munosabatini tahlil qila olish;

✍ davlatning ijtimoiy ne'matlar yaratuvchisi sifatidagi rolini anglab yetish;

✍ davlat sektoriga kiruvchi korxonalarning iqtisodiyotda tutgan o'rnini va davlat sektorining turli mamlakatlardagi ko'lamlarini tasavvur qila olish;

✍ firma faoliyatiga tashqi ta'sirlarni va ularni hisobga olish tadbirkorlar uchun muhimligini tushuntirish.

10-sinf
(Mikroiqtisodiyot va tadbirkorlik asoslari)

№	Mavzu nomlari	Yillik yuklama soatlar
1.	Iqtisodiyot fani. Ishlab chiqarish.	2
2.	Iqtisodiy tizimlar	1
3.	Talab. Talab qonuni.	2
4.	Taklif. Muvozanat narx.	2
5.	Iste'mol.	2
6.	Daromadlar. Xarajatlar. Jamg'arma. Sug'urta.	2
7.	Firma. Kapital. Foyda.	3
8.	Raqobat. Monopoliya.	3
9.	Tadbirkorlikni tashkil qilish.	4
10.	Qimmatli qog'ozlar bozori.	2
11.	Pul. Banklar.	3
12.	Davlat va iqtisodiyot.	4
	Nazorat darslar:	4
	Jami:	34

Tavsiya qilinadigan adabiyotlar.

1. I. A. Karimov. O'zbekiston iqtisodiy yuksalish yo'lida. Toshkent. «O'zbekiston» 1996.

2. I. A. Karimov O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. Toshkent. «O'zbekiston» 1995.

3. I. A. Karimov. Islohotlarni amalga oshirishda qat'iyatli bo'laylik. Toshkent. «O'zbekiston» 1996.

4. I.A. Karimov Yuksak malakali mutaxassislar-taraqqiyot omili. Toshkent. «O'zbekiston» 1995.

5. B. A. Erkaev, G. I. Karimova. Bozor iqtisodiyoti (Izohli lug'at). Toshkent. Sharq 1997.

6. E. Sariqov, B. Haydarov. Iqtisodiy bilim asoslari, darslik, «O'qituvchi» 2001 y.

7. E. Sariqov, B. Haydarov. Iqtisodiy bilim asoslari,uslubiy ko'rsatmalar, «O'qituvchi» 2001y.

8. E. Sariqov, B. Haydarov. Iqtisodiy bilim asoslari, resurslar to'plami, «O'qituvchi» 2001 y.

Qaytishda ko'p-ko'p kelib turishimizni aytishgani vaqtimiz zoe ketmaganligidan darak bersa, haydovchimizning keyingi yozda farzandlarini shu oromgohlarning biriga olib kelishi haqidagi istagini mezbonlar mehnatining barakasi, deb bildik.

«... Shoir insoniyat ko'zgusidir, ya'ni o'zi his qilgan tuyg'ularni jonli ravishda insoniyat ongiga singdira oladi», — deydi Shopengauer.

ЁШЛАР ЗЕРИКМАСИН

Uchrashuv

Бўстонлиқ туманидаги "Сойли", "Гўзал", "Ҳумо" болалар дам олиш оромгоҳларида "Маънавият ва маърифат" маркази Тошкент вилояти бўлими, "Камолот" ёшлар ижтимоий ҳаракати вилоят Кенгаши, Бўстонлиқ тумани ҳокимлиги ҳамкорлигида "Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир" мавзуида тадбир бўлиб ўтди.

Болалар дунёни бошқача кўришгани учун улар билан бўлган учрашувлар қизиқарли бўлади. Ёшлар Бўстонлиқ тоғларининг салқин об-ҳавоси ва гўзал табиати қўйнида маза қилиб ҳордиқ чиқаришмоқда. Тўрт-беш маҳал овқат, чўмилиш ҳавзаси, оромгоҳ маъмурияти томонидан уюштирилаётган турли хил кўнгилочар учрашувлар дам олувчиларни зериктирмайди. Қолаверса, у ерда Тошкент шаҳри, Хоразм вилоятидан, қўшни туманлардан дўстлар орттиришган.

Шунчалик яхши шарт-шароитга қарамасдан, баъзи болалар уйларини соғинишганини айтишганда, дунёда ўзбекдек яшаш жойини жуда тез соғиниб қолувчи халқ камлигига амин бўлдим. Демак, Ватан соғинчи, юрт қадри, ота-она меҳрининг ўрнини моддий-маиший жиҳатлар боса олмас экан.

Борган вакиллар билан дам олувчилар ўртасидаги очиқ мулоқотдан шу нарса англашилдики, айрим болалар "мафкура", "маънавият", "миллий ғоя", "байналминал", "камолот", "камалак" каби сўз ва тушунчалар мазмуни, моҳиятини тўла англаб етмаган. Мазкур бўшлиқни тўлдириш мақсадида бунақа тадбирлар зарурлиги дам олувчилар томонидан эътироф этилди.

Қайтишда кўп-кўп келиб туришимизни айтишгани вақтимиз зое кетмаганлигидан дарак берса, ҳайдовчимизнинг кейинги ёзда фарзандларини шу оромгоҳларнинг бирига олиб келиши ҳақидаги истагини мезбонлар меҳнатининг баракаси, деб билдик.

Оллоёр БОБОНОВ,
Республика "Маънавият ва маърифат" маркази масъул ходими

МАЪНАВИЯТИМИЗ ПОЙДЕВОРИ

Биз яшаб турган дунё ўзининг қадим тарихий қадриятларига эга. Ер юзидаги барча миллатларнинг ўзига хос ва мос миллий қадриятлари мавжуд. Бинобарин, ўзбек халқи, ўзбек миллати ҳам дунёда қадим халқлардан саналади. Зеро, миллатимизнинг турли удумлари, расм-русумлари мақтагулик, ўрнак олишга арзигулик. Миллий қадриятларимиз энг аввалида фарзанднинг дунёга келиши, унга катта эъзоз ила исм қўйилиши, қулоғига азон айтилиши, бешикка илк бор беланиши ва ниҳоят дунёда энг улуғ қўшиқ бўлмиш алланинг она томонидан айтилишидир. Ана шу таомилларнинг бажарилиши фарзанднинг келажакда яхши инсон бўлиб етишувида озми-кўпми ўз маҳсулини беради.

Дунёда ўзбек халқидек фарзандга эътиборли, эъзозли ва меҳрибон халқ йўқ. Мучал тўй фарзанд 12 ёшга тўлганда нишонланади. Мучал тўйида ҳам фарзандга сарполар кийдирилади, ашула ва рақслар ижро этилади.

Миллий қадриятларимиз орасида энг нуфузлиларидан бири тўйдир. Тўй барча қариндош-уруғ, дўсту биродарларни тотувликка, меҳр оқибатлиликка етаклайди. Тўйда узоқ вақтлардан бери учрашмаганлар яна чин юракдан дийдорлашадилар. Ана шу дийдорлашув инсон маънавиятини янада теранлаштиради. Биргина шу тўй баҳона ечилмаган муаммолар барҳам топади, баъзи узоқ вақт қайсидир сабаб билан аразлашиб юрган қариндошлар, дўстлар аввалгидек қалинлашиб кетишади.

Fikr

Юртимиз мустақилликка эришган дастлабки кунларданоқ миллий қадриятларга эътибор давлат сиёсати даражасига кўтарилди. Ўзимиздан кейин шу гўзал юртда шу буюк давлатда яшаб, ҳалол меҳнат қиладиган, қолаверса, юртни, давлатни бошқарадиган ўринбосарларни тарбиялашда, аввало, ўқувчининг онгига миллий қадриятларимизнинг бебаҳо фазилатларини сингдиришимиз керак. Бу эса ёш, ўсиб келаётган ўқувчиларнинг энг аввало миллатга бўлган, қолаверса, аждодларимиз томонидан асрлардан бери асраб-авайлаб келинаётган миллий қадриятларга ҳурмати, қизиқишини орттиради.

Шу кунларда бутун республикамиз халқи Мустақиллигимиз 12 йиллигини нишонлаш арафасида. Барча ўқув юртларида бўлгани каби касб-ҳунар коллежларида ҳам 1 сентябрь — Мустақиллик дарслари бошланади. Ана шу Мустақиллик дарсларида ўқувчиларга мустақиллик буюк неъматларидан бири бўлмиш — миллий қадриятлар ҳақида ҳам маълумот берилса нур устига аъло нур бўларди. Миллий қадриятлар ҳар доим ўзбек халқининг дунё миқёсида тутган обрў-эътиборига мададкор бўлиб қолаверади. Миллий қадриятлардан баҳра олган ўқувчининг шаксиз маънавияти мустаҳкам, энг аввало у ўз юртига, элига содиқ ватанпарвар, инсонпарвар бўлиб улғаяди. Бу эса келажаги буюк Ўзбекистонни дунёга танитишда, яъни дунё тан олишида муҳим аҳамият касб этади.

Ҳаким МУҲАММАДИЕВ,
Ангор ижтимоий-иқтисодиёт коллежи директорининг маънавият ва маърифат ишлари бўйича ўринбосари

УНИВЕРСИТЕТНИНГ ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ

Кундалик, ойлик нашрлар маълум мақсадга йўналтирилганлиги билан ўз хизматини ўтайди. Ҳозирги вақтда эса газета ва журналларнинг сони ҳам, салмоғи ҳам кескин ошганини кузатиш мумкин.

Мамлакатимизнинг йирик олий ўқув даргоҳи Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университетида ҳам "Педагогик таълим" номли илмий журнал нашр этилмоқда. У 1999 йилдан буён икки ойда бир марта чиқади.

«Педагогик таълим» ўз номига яраша нашр. У обуна йўли билан тарқатилади ва ёзилиш чекланмаган. Журналда педагогик таълимнинг турлича қирралари қамраб олинади. Шу жиҳатдан қараганда, бундай мақолалар фақат олий таълим эмас, балки узлуксиз таълимнинг бошқа бўғинларини ҳам қамраб олиши мумкин. Хусусан, журналнинг 2002 йилги 5-сонини варақлаб чиқсангиз, университет профессор-

Nashr

лари, аспирантлари ва магистрантларининг турли мавзудаги илмий-амалий мақолаларига қўзингиз тушади. «Халқ педагогикаси манбалари» (М.Ҳайдаров), «Биолог бакалаврларни тайёрлашда модул дастурларидан фойдаланиш (Ж.Толипова), «Теоремаларни ўрганишда тескари мисолларнинг аҳамияти», Э.Сайдаматов, Р.Кошназаров «Касб таълими ўқитувчиларини тайёрлашнинг айрим муаммолари» (Н.Муслимов) каби мақолалар долзарб характерга эгалиги учун журналнинг олдинги саҳифаларидан жой олган.

«Педагогик таълим"га тавсия қилинаётган мақолалар экспертизадан ўтказилиб, агар илгари бундай мавзудаги мақола эълон қилинмаган бўлса, чоп этишга келишилади. Агар мавзу такрорий бўлса, муаллифга бунинг сабаби тушунтирилади.

Умуман, бу илмий журналнинг мунтазам равишда чоп қилиниши профессор-ўқитувчилар, докторантлар, аспирантлар, кичик илмий ходимлар учун айни муддодир. Улар журналда ўз мақолаларини чоп қилиш билан бирга, педагогик таълимнинг ранг-баранг қирраларидан ҳам хабардор бўлиб боришади.

МУХБИРИМИЗ

"Йилнинг энг яхши маъруза матни" Республика танловида иштирок этаётган маъруза матнлари РЎЙХАТИ

№	Муаллиф(лар)	Маъруза матни номи	Нашр йили	Тавсия қилган ташкилот
1	2	3	4	5
		Математика		
1.	А.Абдуғаниев, И.Боймуродов, Р.Ботиров Д.Раҳимов, З.Садритдинова, О.Убайдуллаев, Х.Ҳамидуллаев, А.Эшов, А.Абдурахманов, Э.Қаюмов, Б.Раззакова, Б.Тожибоев, Х.Ахмедова, Н.Минарова	"Олий математика" I, II, III, IV қисмлар	ТДТУ — 2002	ТДТУ
2.	B.R.Tadzhibaev	"Mathematics for engineering"	ТДТУ – 2002	ТДТУ
3.	Э.М.Мирзакаримов, А.Абдуразақов, А.Фозилов	"Олий математика" I, II қисмлар	Фарғона – 2002	ФарПИ
4.	Ю.Д.Янгибоев, Ш.Ш.Шохамидов, А.З.Маматов, М.А.Атажанова	"Олий математика" I, II, III қисмлар	ТТЕСИ – 2001,2002	ТТЕСИ
5.	А.Абдурахимов, Ш.Хуррамов	"Математик мантиқ"	Тошкент - 2002	ТАҚИ
6.	Х.Валижонов, М.Гафуров	"Олий математика" I, II, III, IV қисмлар	Тошкент – 2002	ТАЙИ
7.	Э.Холмуродов	"Олий математика" III қисм	Қарши — 2002	ҚарМИИ
		Физика		
8.	F.А.Набиев, Р.Тохиров, А.Халилов, А.Х.Хайдаров, Т.Х.Хомидов, С.О.Хотамов, Н.Х.Юлдашев, М.Таджибаев	"Физика" I, II, III қисмлар	Фарғона - 2002	ФарПИ
9.	Ш.Камолхўжаев, F.Ғоибов, О.Химматқулов	"Механика ва молекуляр физика"	ТДТУ — 2002	ТДТУ
10.	M.Sh.Isayev	"Physics for engineering" Part II	ТДТУ — 2002	ТДТУ
11.	А.А.Рахмонқулов	"Физика курси"	Қарши — 2002	ҚарМИИ
		Информатика		
12.	Д.Э.Тоштемиров	"Информатика ва ахборот технологиялари"	Гулистон — 2002	ГулДУ
13.	М.Х.Охунов, Ж.Нишонова	"Информатика" II қисм	Фарғона – 2002	ФарПИ
14.	М.В.Сагатов, О.Х.Ёқубов, Р.М.Ирмухамедова, Т.Э.Ғаниев, Д.К.Каримова, М.М.Қарахонова, В.Й.Бобохонова, М.Т.Юлдашева	"Информатика. Информацион технологиялар" I қисм	ТДТУ – 2002	ТДТУ
15.	Б.Носиров	"Компьютер амалиёти"	Қарши – 2002	ҚарМИИ
16.	Z.Uzakov	"Java Programming"	Қарши – 2002	ҚарМИИ
17.	Z.Uzakov	"Telematics Systems and Applications"	Қарши – 2002	ҚарМИИ
18.	З.Узаков	"Телематические сети. Начальные понятия"	Қарши – 2002	ҚарМИИ
19.	Б.Ш.Шоартиков, Ф.Х.Рахимова, Д.Ф.Шайхутдинова	"Информацион технологиялар"	Тошкент - 2002	ТАЙИ
		Кимё		
20.	М.У.Акбарова, Х.Абдуллажонов	"Кимё"	Фарғона — 2001	ФарПИ
21.	З.С.Собиров	"Органик кимё"	ТТЕСИ - 2001	ТТЕСИ
22.	Т.Дўстмуродов	"Кимё"	Қарши - 2002	ҚарМИИ
23.	К.Ахметов, Н.Норалиев, Т.Турғунов	"Информатика"	Тошкент — 1999	ТошДАУ
24.	Т.Сиддикова	"Химия"	Ташкент — 2002	ТАЙИ
25.	Қ.Ахмеров, А.Жалилов, Р.Сайфутдинов	"Умумий ва ноорганик кимё"	Тошкент – 2001	ТКТИ
26.	Б.Хасанов, М.Мавлонова, F.Рахмонбердиев	"Физик ва коллоид кимё"	Тошкент — 2002	ТКТИ
27.	Ҳ.С.Тожимуҳамедов	"Органик кимё"	Тошкент — 2000	ЎзМУ
28.	Sh.Abdullayev	"Kimyo oqitish metodikasi"	Namangan — 2002	НамДУ

Маъруза матнлари ҳақида фикр ва мулоҳазалар матбуотда эълон қилиниши ёки Олий ва ўрта мактаб муаммолари институтига (Тошкент, 700011, Пахтакор кўчаси 3-уй) ёзма тақриз шаклида 5 сентябргача юборилиши мумкин.

Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги

Dunyo faylasuflari

«ҲАЁТ ФАЛСАФАСИ»НИНГ АСОСЧИСИ

ёхуд Шопенгауэр фалсафаси хусусида

Зиёли шахс учун А.Шопенгауэрнинг фикрлари бугунги кун билан ҳамоҳангдек туюлади. Олмон файласуфи инсонни ўз "ўзлигини" англаб етиши учун йўналтиради. Бу мукаммал вазифанинг уддасидан чиқиш учун эса, инсон ўз ирода кучини ва шахсий кечинмаларини ишга солиши зарурлигини таъкидлайди. Бунда инсон эркин фикрлар дунёсига, иккинчидан эса, инсон табиати синоатларининг тубсизлигига амин бўлади. Ўз шахсий ҳаёт тажрибаларига суянган инсон ҳаёт оқимини чуқурроқ англайди, яшаш мазмунини теран ҳис этади.

Машҳур немис файласуфи Артур Шопенгауэр 1788 йили Германиянинг Данциг шаҳрида йирик тижоратчи оиласида туғилди. Унинг онаси Анна Шопенгауэр ўша даврнинг машҳур адибаси эди. Отасининг вафотидан сўнг Шопенгауэрнинг оиласи Веймер шаҳрига кўчиб ўтади. Уларнинг уйларида ўша даврнинг машҳур инсонлари Гёте, Виланд, Гримм, ака-ука Шлегель ва бошқалар йиғилишарди. Албатта, бундай йиғинлар А.Шопенгауэрнинг етук шахс бўлиб етишишига ўз таъсирини кўрсатмай қолмади.

Шопенгауэр 21 ёшга тўлганда Гетинген университетининг медицина факультетига ўқишга киради. Кейинчалик Г.Шульцнинг таъсирида фалсафага қизиқади. 1811 йилда у Берлинга кўчиб келади. Икки йилдан сўнг Шопенгауэр ўзининг биринчи асарини нашрдан чиқаради. ("Етарли асос қонунининг тўрт ибтидоси"). 1814 йили Шопенгауэр Дрезденга кўчиб ўтади ва ўзининг "Дунё: ирода ва тасаввур сифатида" номли асосий асарини ёзиб тугатади (1818).

1820 йилдан 1831 йилгача у талабаларга таҳсил бериб приват-доцент лавозимида ишлайди. Сўнг ўқитувчилик фаолиятини тўхтатиб, қолган умрини Франкфуртда ўтказади. 1860 йилда шу ерда вафот этади.

Албатта, А.Шопенгауэр замонавий-фалсафий фикр ривожига катта таъсир кўрсатган. Лекин кўпгина буюк шахслар каби ўз даврида тан олинмаган. Зотан, бунга сабаб мавҳумликка айланиб қолган фалсафанинг "ҳаётийлаштириш" учун баҳоли қудрат қилган саъй-ҳаракатидир, яъни фалсафанинг назарий билимларнинг умумий тизими сифатидаги вазифасини инкор этиб, уни оддий инсоннинг ҳаётий кечинмалари, таассуротлари даражасига олиб чиқиши бўлди. Шу билан бир қаторда А.Шопенгауэрнинг мероси кейинчалик "Ҳаёт фалсафаси" оқимининг вужудга келишида манба бўлиб хизмат қилди. У етук файласуф Ницшенинг устози эди.

Ўзининг ахлоқий қарашларида Шопенгауэр инсонга учта хислат хос деб қарайди. Булар: худбинлик, ғазаб ва нафрат, раҳм-шафқат. Барча ахлоқий ҳаракатларнинг заминида ўзгаларга раҳмдил бўлиш, ўзгаларга қўлдан келганча ёрдам бериш, уларга ғамхўрлик қилиш — раҳм-шафқатнинг асосий хусусияти. Шопенгауэр фикрича "раҳмдиллик — инсон маънавиятининг пойдевори", "фақат раҳмдиллик ҳақиқий инсонпарварлик ва адолатни белгилаб беради". Адолат ва инсонпарварлик эса маънавий қадриятлар ичида энг олийсидир. Раҳмдиллик хислатини Шопенгауэр нафақат инсонларга, балки ҳайвонларга нисбатан ҳам қўллаш лозим, дейди.

Унинг фикрича, дунёвий иродага интилиш шахсий ҳаётда шу иродани ҳис этишга олиб келади, яъни, инсон моддий неъматлардан ўзини тийиши лозим. Иродага интилиш бу хоҳишларни йўқотиш билан баробардир. Ички хотиржамлик таркидунёчиликдадир, дейди Шопенгауэр.

Юзаки қараганда, ўз-ўзини ўлдириш, ҳаётга бўлган интилишни йўқ қилувчи энг яхши чорадир. Лекин Шопенгауэр буни рад этиб, ўз-ўзини ўлдириш, аслида иродасизлик деб ҳисоблайди. Бунинг ўрнига, Шопенгауэр фикрича, барча хоҳишлар ва истакларни рад этиб, улардан воз кечмоқ лозим, яъни у христиан динига ва буддавийликка хос бўлган зоҳидлик, таркидунёчиликни хоҳишлар ўрнига қўяди.

Шопенгауэрнинг динга бўлган муносабати ўзига хос. Шопенгауэр фикрича, иродани абадийлиги оламнинг яратилганлигини инкор этади. Бундан ташқари, вақт мутлоқ абадий бўлмасдан, тасаввурлар оламига хосдир.

Унинг фикрича, фақат санъат, сўз, мусиқа, бадиий образ орқали оламнинг моҳиятини очиб бериш мумкин. Санъат даҳоларни юзага келтиради, даҳолик фақат санъатда намоён бўлади. Фақат санъат борликда яширинган соф ғояларни амалга ошира олади. Санъатнинг ягона манбаи — ғояларни билишдан, мақсади эса — билимни тарқатишдан иборатдир.

Агарда фан охирги мақсадга ҳеч етиша олмаса, тўлиқ қониқишга эга бўлолмаса, доимий йўлда бўлса, санъат эса доимо мақсадга яқиндир. Санъат ўз объектини дунё оқимидан ажратиб олиб, алоҳида мушоҳада қилади. Ана шу ажратилган қисмда бутунлик акс этади. Бу яхлитлик макон ва замондан ташқаридадир, замон ғилдирагини тўхтатади, замон бу яхлитлик ғоясидир, ғоя эса — объективдир. "Оддий инсон, шунингдек, олим ҳам табиат корхонаси ишлаб чиқарган маҳсулотдир. Мақсадсиз мушоҳадага фақатгина даҳоларгина қобилиятлидир. Албатта, ҳар бир инсонда ғояларни қисман ҳис қилиш қобилияти бор. Шунинг учун ҳам уларда санъат асарлари таъсирида ҳаяжонли ҳис-туйғулар уйғонади. Лекин улар шундай асарларни ўзлари ярата олмайдилар". Билишнинг хусусиятларини кўрсатиб, "онгимиз иродамизга тўла бўйсунар экан, хоҳишлар уммонига берилар экан, истаклар субъекти бўлиб қолаверар экан, ҳеч қачон бахтга эриша олмаймиз", — дейди файласуф.

Ғояни санъатнинг предмети сифатида талқин қилгани ҳолда, Шопенгауэр тушунчага ғояни қарама-қарши қўяди: "Ғоя бизнинг интуитив қабул қилишимизнинг маконий ва замонавий шакли туфайли кўпликка ажралиб кетган бирликдир, тушунча бу тафаккуримизнинг мавҳумлаштириш қобилиятига биноан кўпликдан қайтадан тикланган бирликдир", — дейди.

Шопенгауэр тушунчаларни, шунингдек, тафаккурни ҳам санъат олдида бемаҳсул ва кераксиздир, деб ҳисоблайди: "Англанган ғоя, фақатгина шу — ҳар қандай ҳақиқий санъат асарининг соф ва ягона манбаидир. Шунинг учун ҳам ғоя мусаввир томонидан аниқ тасаввур этилади: мусаввир инстинктив, онгсиз ҳис-туйғулар тилида гапиради".

Ғоя ва тушунча ўртасидаги зиддиятни мутлоқлаштириш йўли билан Шопенгауэр фалсафадаги рационализмга қарши курашади. Демак, айнан анъанавий рационал фалсафадан илмий, яъни тафаккурий, тушунчавий, мантиқий томонларини олиб ташлаш, унинг ўрнига интуитив, образли, инсон онги, қобилияти чексизлигини кўрсатиш — бу иррационал фалсафанинг асосий усулларидан бири бўлди. Ана шундай фалсафий йўналишнинг асосчиларидан бири Шопенгауэр ҳисобланади.

Шопенгауэр шеъриятнинг билишдаги ўрнини бўрттириб кўрсатади. Албатта, шу ўринда у қисман ҳақдир. Шеърият — инсоннинг ўз-ўзини англашида, инсониятни тушунишда жуда кучли восита ролини ўйнайди.

"Ҳақиқий шоир лирикасида бутун инсониятнинг руҳи акс этади, ўтмишида, ҳозирда ва келажакда яшовчи, миллионларнинг кечинмалари, ҳис-туйғулари қайта-қайта жонланиб, соф шеъриятда ўз акс-садосини топади. Шоир инсоният кўзгусидир, яъни ўзи ҳис қилган туйғуларни жонли равишда инсоният онгига сингдира олади", — дейди Шопенгауэр.

Албатта, шеъриятнинг аҳамиятини юқорибаҳолаб, олим уни тарихга қарама-қарши қўяди. Шопенгауэр айтадики: "... Ҳар қандай тарихда ҳақиқатга нисбатан бўҳтонлар кўпроқдир. Шоир эса инсониятнинг қандайдир бир томонини илғаб олиб, уни ўз руҳиятига сингдириб, майда хусусиятларигача жонлантириб аниқ кўрсатишга қодирдир. Шунинг учун ҳам шеърият ҳаётнинг ўзидир. Унда ҳеч қандай ёлғон йўқ". Мазкур фикрини ривожлантириб Шопенгауэр шундай дейди; "...даҳо, яъни шоир шеърида ўз руҳини қуйлайди. Бу руҳият инсоният борлигининг моҳиятидир: бу моҳият эса ғоянинг ўзидир. Шунинг учун ҳам шеъриятда соф ғоя, тарихга нисбатан ниҳоятда аниқ, равшан очилади ва соф ички ҳақиқат тарихда эмас, балки шеъриятда бўлади".

Шеъриятнинг қироли — трагедиядир, дейди Шопенгауэр. Трагедиянинг мақсади инсоният ҳаётининг, борлиғининг оғир-ғоҳиали томонларини кўрсатишдан иборат. Бу ерда олий даражада объектив ироданинг ўзўзи билан кураши яққол намоён бўлади. Бу кураш тасодифлар орқали юз берган инсонсита бўлса, мусиқа иродани бевосита, тўлиқлигича, худди ўзидагидек билади... Шунинг учун ҳам мусиқанинг таъсири жуда кучли ва чуқурки, бошқа санъат турлари бу даражага ета олмайди. Бошқа санъат соҳалари соялар ҳақида гапирса, мусиқа моҳият ҳақида сўзлайди". Мусиқа, Шопенгауэр фикрича, ҳаётнинг, ҳодисаларнинг қаймоғини акс эттиради. У ҳиссиётлар, эҳтиросларни тилида гапиради, сўз бўлса ақл, тафаккур тилидир. Албатта, файласуфнинг мусиқага оид фикрлари диққатга сазовордир. Мусиқа товушлар орқали "дунё, борлиқ ичидаги" моҳиятни очиб беради. Мусиқанинг ўзига хос хусусияти шундан иборатки, унинг тили товушлардан иборат. Товушлар — бизнинг дастлабки бевосита хисларимизни, кечинмаларимизни акс эттиради: хўрсиниш, оғриқ, кулги, йиғи, қўрқув, ваҳима, шодонлик, хуррамлик ва ҳоказолар. Товушларда нафақат инсон, балки, ҳайвонот олами ҳам ўз эҳтиросларини намоён қилади. Товушнинг имкониятлари чексиз, чегарасиздир.

Шундай қилиб, Шопенгауэр таълимотида иррационализм фалсафасининг дастлабки ларнинг шахсий хоҳишлари билан кўпчиликнинг ёлғон, жоҳилликлари тўқнаш келиб қолганда ҳам кўзга ташланади. Файласуф фикрича, трагедиядаги олижаноб, саховатли қаҳрамонларнинг фожиали ўлими учун қайғуриш керак эмас, чунки трагедиянинг асл мазмуни қаҳрамон гуноҳларининг ювилишидир: "гуноҳлар қаҳрамонларга тегишли эмас, балки мавжудот, одамзот пайдо бўлишидаги дастлабки гуноҳнинг борлигидир. Трагедияда акс этган буюк бахтсизлик — бу истисно эмас, балки инсоннинг моҳиятидан келиб чиқадиган, унинг борлиқда тутган ўрнидан келиб чиқадиган заруратдир".

*Шопенгауэр санъат тўғрисида фикр юритар экан, унинг турли соҳаларини таҳлил қилади. Лекин Шопенгауэрнинг мусиқага бўлган муносабати ўзгачадир: "Агарда санъатнинг бошқа соҳалари иродани қисман ёки билвосита ва ниҳоятда ажратилган ҳолда, Шопенгауэр тушунчаларнинг ўзаро боғлиқлиги ва ўзаро ўтишини кўрсатиб, ҳаётнинг ҳаракатлантирувчи кучлари ва ҳаётнинг ўзи ҳақидаги ўз фикрларини ифодалаган. Шопенгауэр ҳаётнинг ўзи ва ҳаётнинг ўзини ўлдириш

Eng achinarli tomoni shuki, bunday soxta xo'jako'rsinlik odatlari yoshlarimiz tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, keng jamoatchilikning haqli e'tirozlariga sabab bo'lmoqda.

Biroq afsuski, hozir aksariyat tengdoshlarimiz kitob o'qishni odatga aylantirmagan, hatto qiziqmaydilar ham.

Aks-sado

ТЎЙ ҚИЛИШ ОБРЎ ОРТТИРИШ «ПОЛИГОНИ» ЭМАС

Газетамизнинг яқин сонларидан бирида "Тўй ўзни кўрсатиш эмас" мақоласи нашр этилганди. Мақола сўнгида "Тўй" мавзуси бир мақола билан қамраб бўлмас мавзу эканлиги таъкидланиб, муштарийлардан бу борадаги фикр- мулоҳазалари билан ўртоқлашиш сўралганди. Республика маънавият ва маърифат маркази ходими, педагогика фанлари номзоди, доцент Акром Акмалов қуйидаги мақоласини таҳририятимизга йўллабди. Мақолада бир қанча ижобий фикрлар айтиб ўтилганки, бу ўқувчиларга албатта ўз фойдасини беради, деб ўйлаймиз. Қадимги юнон файласуфи Аристотел бойлик ва исрофгарчилик борасида қуйидагича фикр юритган экан: "Бойликка эга бўлганлар икки гуруҳга бўлинади. Биринчи тоифа исрофгарчиликка йўл қўйиб, тежамкорлик ҳақида ғам емайди. Иккинчи тоифа эса ўта хасис бўлиб, меъёридан ортиқ иқтисод қилади. Бу икки гуруҳ кишиларини фазилатли деб бўлмайди. Энг яхши кишилар ўртача сарф ва иқтисод йўлини тутадилар. Исрофгарчиликни вақт ва тажриба тузатади. Ўзига етарли бойлик ва маънавий фаолият ортиқча моддий маблағ талаб этмайди. Ҳатто ер сувга ҳоким бўлмасдан ҳам олижаноб ишларни амалга ошириш мумкин".

Дарҳақиқат шундай, исроф қилган киши бир кун келиб хорлик этагидан тутмоғи мумкин. Аммо, меъёр чегарасидан ҳатламаган киши кўпгина бало-қазолардан омонда бўлади.

Гапни мухтасар қилиб айтадиган бўлсак, мақолани туркум тарзида давом эттириш ниятимиз бор эди. Лекин унга келаётган акс-садолар бизни бу ниятдан қайтарди. Чунки, муштарийлар йўллаётган мактублардаги мулоҳазалар бошқа жиҳатларни ҳам очиб бермоқда.

* * *

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1998 йил 28 октябрдаги Пф-2100 сонли Фармонида "Кейинги вақтларда тўй-ҳашамлар, оилавий тантаналар, маърака ва маросимларни, марҳумлар хотирасига бағишланган тадбирларни ўтказишда мамлакатимизнинг кўп жойларида шуҳратпарастлик, дабдабабозлик, исрофгарчиликка йўл қўйиш, эл-юрт одатлари ва анъаналарини менсимаслик, ўзини кўз-кўз қилиш, атрофда яшаётган одамларнинг ҳолаҳволини инобатга олмаслик каби эскидан қолган асоратларга йўл қўйилмоқда. Энг ачинарли томони шуки, бундай сохта хўжакўрсинлик одатлари ёшларимиз тарбиясига салбий таъсир кўрсатмоқда, кенг жамоатчиликнинг ҳақли эътирозларига сабаб бўлмоқда", — деб бежиз таъкидланмаган.

Республикада мавжуд анъанавий удумлар, тўйлар, дафн маросимлари ва бошқа миллий маросимлар ва уларни замон талабларига жавоб берадиган тарзда, ихчам ҳамда тежамкорлик билан ўтказишга қаратилган "Маҳалла" жамғармасининг тавсиялари ишлаб чиқилган.

"Маърифат" газетасининг яқин сонларидан бирида "Тўй — ўзни кўрсатиш эмас" мақоласида кўтарилган масала энг нозик, ёшларимизнинг тарбияси, маънавиятига таъсир этувчи омиллардан айримларини кўрсатиб берганки, бу айни муддаодир.

Таъкидланганидек, битта ёки иккита мақолада тўйлар ва бошқа урф-одатларимиз миллий қадриятларимиз ҳақида фикр-мулоҳазалар, таҳлиллар бериш етарли бўлмайди.

Мазкур мақолада тўйларни айрим ҳолларда таъзияга, нохушликка айлантираётганига сабаб "сахий", бойвачча тўй эгасининг спиртли ичимликларга пулини аямаётганидир.

Айрим тўйларда келин-куёвнинг устидан пул сочишлар, "ЗАГС" маросимида "Лимузин" ёки бошқа чет маркали енгил машиналарни катта пулга ижарага олиш, фалон кило гуруч дамладим, фалончиникидан шунча кило кўп, деб керилишлар, аёллар эса, келинимнинг мебели ундай, сарполари бундай деб мақтанишларини қандай изоҳлашни билолмаймиз.

Ўйлаймизки, бундай исрофгарчилик, манманлик, такаббурликнинг олдини олишда маҳалла оқсоқоллари, тўй ўтказиш комиссияси, маҳалладаги обрўли отахон, онахонлар фаол, талабчан бўлсалар яхши бўларди. Маҳалла оқсоқоли ва фаоллари агар маърифатпарвар шоир Тавалло айтганидай:

Ош деса сиз
эрта туринг,
Эшмат ака
ошга боринг,
Ош бошига
бориб туринг,
Бу ҳам амал —
даврин суринг.
Карнайчи
карнайини чолиб,
Ноғорачи чўпин
қўлига олиб,
Бой тўрга,
камбағал қолиб,
Бу ҳам амал
даврин суринг,

бўлса, аминмизки, бундай маҳаллада ўтадиган тўйлардан ибрат олиб бўлмайди.

Бунақа гаплар жуда кўп гапириляпти, аммо унга қулоқ солувчилар кам топилади. Лекин танқидлардан ижобий хулоса чиқараётган маҳаллалар ҳам оз эмас. Шайхонтоҳур туманидаги Олим Хўжаев маҳалласида тўйларни ўтказишда анча ижобий натижаларга эришилмоқда. Жумладан, тўй эгасига ўзининг қариндошлари, иш жойини, ўзи яшаётган кўчадаги қўшниларини таклиф қилиш, чарлар, қуда чақириқни оилавий ўтказиш, келинларни ҳайит қилишлар каби удумлар анчайин тартибга келтирилган. Тўй эгасига маҳалладаги айрим ёлғиз кишиларга, ногиронларга тўй ошининг масаллиғидан ажратиш ва улардан хабар олиш таклиф қилинмоқда. Маҳаллада яна бир одат шаклланганки, бу кўп болали, кам таъминланган оилаларнинг фарзандларига дарсликларни ижара ҳақисиз фойдаланишни таъминлашдир. Булар албатта ижобий ҳол. Аммо, маҳалладаги тўй ўтказадиганларнинг ҳаммаси ҳам бундай таклифларга рози бўлаётгани йўқ. Айримлари тўйни ресторанда ўтказаман, маҳаллага эҳтиёжим йўқ, дейдиларку, оилада келишмовчилик ёки низо бўладиган бўлса дарҳол маҳалла оқсоқоли, яраштириш комиссиясига мурожаат қилишади.

Ҳозирги вақтда Тошкент шаҳрида тўй ўтказадиганлар юқорида айтганимиздек кафе, ресторанларни ҳам фарзандларининг истак, хоҳишига қараб танламоқдалар. Маҳалладаги, кўп қаватли уйлар орасидаги ўзлари қурган тўйхоналарда тўй қилишни кўпчилиги ор билишмоқда, ваҳоланки, кафе-ресторанларда тўланадиган ҳақларидан бир қисмини шу тўйхоналарга сарфлашса маҳалла гузари, тўйхоналар обод бўлади.

Тўй ва бошқа маросимларда ё эрта сахардан ёки кечаси соат 23. 24 ларгача овоз кучайтиргич билан баланд овозда ашула, мусиқа ёки маърузалар қўйилади. Тўй эгаси ёки маҳалла оқсоқоли ўйлармикан, бундан шу кўчадаги қўниқўшнилар, кексалар, беморлар азият чекишини? Тўй ва бошқа маросимларни ўтказиш вақти белгилаб қўйилган бўлса-да, унга кам амал қилинмоқда. Никоҳ тўйи кечасидаги яна бир ҳолат бошловчининг кудаларни ўзаро ўйинга таклиф қилишидир. Хўш, буни қандай баҳолаш мумкин, бу қайси меъёрга тўғри келади. Фикримизча, бу фақат ўзини "санъаткор" ҳисоблаган отарчиларга пул йиғиб беришдан бошқа нарса эмас. Тўғри тўйда шоду-хуррамлик қилинади, аммо балоғат ёшига етган қизлар оталари, акалари олдида калта, тор кийим кийиб сакраб рақса тушишлари бизнинг одобаҳлоқимизга зид эмасми?

Хулоса сифатида алоҳида таъкидлаш лозимки, бундай дабдабабозликлар ёшларимиз тарбиясига салбий таъсир этмасдан қолмайди.

Акром АКМАЛОВ

ИЛМГОҲНИНГ ҚУТЛУҒ ЙЎЛЛАРИ

Maxsus maktablarda

Барча фуқаролар сингари кўзи ожиз, кар-соқов, ақлан заиф болалар ҳам жисмоний жиҳатдан нуқсонлари бўлишига қарамасдан билим олиш ҳуқуқига эгадирлар. Бунинг учун мамлакатимизда юқоридаги йўналишлар бўйича бир неча ўнлаб махсус мактаб-интернатлар фаолият кўрсатиб келмоқда. Бундай мактабларда ўқиб, ҳаётга йўлланма олиб чиқаётган кишилар жамиятда ўзларининг муносиб ўринларини топмоқдалар. Худди шундай маърифат чаманларидан бири кўзи ожиз болаларнинг Бухоро шаҳридаги 24-махсус мактаб-интернатидир. Мазкур билим маскани 1953 йил 15 майда ташкил топган. Даставвал тўққиз нафар бола билан ўз фаолиятини бошлаган мактаб-интернат 90- йилларнинг бошларига келиб, 201 нафар ўқувчига эга бўлди. Ҳозирги пайтда бу махсус мактаб-интернатда 173 нафар ўқувчи таълим-тарбия олмоқда. Уларга ўн бир йиллик ўрта махсус таълими берилади. Шунингдек, мусиқа сабоғини ўрганишга қизиқиши бўлган иқтеъдодли болалар бу ерда узоқ йиллардан бери фаолият кўрсатиб келаётган мусиқа мактабининг шахобчасида ҳам ўқиб, малакага эга бўлиб чиқмоқдалар. Ярим аср давомида илмгоҳни 500 нафардан кўпроқ болалар битириб чиқишиб, уларнинг аксарияти олий ва ўрта махсус маълумотли мутахассислар бўлиб етишдилар. Филология фанлари доктори, профессор Роҳатой Сафарова, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артист, бастакор Ўлмас Расулов, Олим Хўжаев номидаги Бухоро давлат маданият коллежининг ўқитувчиси Зариф Назаров, кўзи ожизлар жамияти тизимига қарашли корхоналар, ташкилотлар, маданий-маърифий муассасаларнинг жуда кўплаб раҳбарлари, етакчи мутахассислари ва ходимлари шу мактаб-интернатнинг собиқ ўқувчилари ҳисобланадилар. Мазкур билим масканининг ўзида ҳам 24 нафар кўзи ожиз ўқитувчилар ўқувчиларнинг қалбига ёруғлик бахш этиб, эзгулик уруғини сочиб келишмоқда.

Бу ерда сабоқ бераётган ўқитувчиларнинг кўпчилиги олий ва биринчи тоифадаги педагоглардир. Улар орасида "Ўзбекистон халқ ўқитувчиси", "Халқ таълими аълочиси" соҳиблари ҳам бор. Шунинг учун бўлса керак, бу қутлуғ даргоҳдан кўплаб иқтидорли ёшлар етишиб чиқиб, олий ўқув юртларга киришади. Мактаб-интернат замон талабларига мослаб жиҳозланган кўплаб фан кабинетларига эга. Ўқувчиларга бир қатор фанлар асосидаги билимлар кабинет тизими жараёнида ўқитилади. Кутубхона, спорт зали ўқувчиларнинг доимий хизматида. Жисмоний тарбия ўқитувчиси Тўра Эргашев ўқувчилар билан мунтазам равишда дарс машғулотларини олиб бориш билан бир қаторда уларни дарсдан сўнг тўгарак ишларига ва қўшимча машғулотларга ҳам жалб этиб туради. Уларни турли мусобақаларга тайёрлашда жонбозлик, маҳорат ва ташаббускорлик кўрсатиб келади. Ундан ташқари турли йўналишлар ва фан тўгараклари барпо этилган бўлиб, ўқувчиларнинг аксарият қисми мазкур тўгараклларнинг фаол иштирокчиларидир. Барча зарурий спорт анжомлари ва ашёлари билан жиҳозланган спорт майдончаси ҳам доимий равишда ўқувчиларнинг, спорт ихлосмандлари ва мухлисларининг беминнат хизматида. Ўқувчиларни, айниқса, қиз болаларни мустақил ҳаётга, турмушга, уйрўзғор ишларига тайёрлашга алоҳида эътибор қаратилиб, аҳамият бериб келинмоқда. Жиҳозланган махсус хоналарда ўқувчилар пазандалик, пиширириқлар тайёрлаш, бичиш-тикиш ва тўқишнинг сирларини мукаммал ўрганадилар. Бу борада буларга меҳнат ўқитувчилари Мунира Жўраева, Самия Худойназаровалар талабчанлик билан астойдил ўргатиб келаётирлар. Норман Муродов, Самия Тўхтаевалар болалар орасидан энг иқтидорлиларини танлаб, уларга ақл гимнастикаси ҳисобланмиш шахмат-шашка ўйнашни мукаммал ўргатадилар. Мактаб-интернатнинг кўплаб собиқ ўқувчилари спортнинг шу соҳалари ва турлари бўйича ватанимизнинг барча бурчакларида мавжуд бўлиб, улар нуфузли мусобақаларда ўз вилоятларининг шарафини зўр маҳорат ва мардонаворлик билан ҳимоя қилиб келаётганлиги мактаб-интернат учун ҳам фахрлидир.

Акбар ҲАЙДАРОВ.
Бухоро шаҳри

ҚАМРОВ

Фарғона политехника институти ректори, техника фанлари доктори, профессор Расул Тожиев билан суҳбатда ўқув даргоҳидаги илмий ишлар ва улардан кўзланаётган мақсад, хориж билан алоқалар қамраб олинган.

— Маълумки, биз фан-техника тараққий этган асрда яшаяпмиз. Шундай экан, Сиз раҳбарлик қилаётган олий ўқув юртида техникани миридан- сиригача ўрганиш, унга бирор бир янгилик киритиш ишқи билан ёнаётган ёш олимлар, тадқиқотчилар ва талаба-ёшлар талайгина бўлса керак?

— Аввало, институт профессор-ўқитувчилари ва илмий-техник ходимлари тадқиқотларни жадал суръатлар билан ривожлантириш, олинган натижаларни ишлаб чиқаришга ва ўқув жараёнига кенг татбиқ этиш, унинг самарадорлигини ошириш хусусида ўйлашмоқда.

Фаннинг муҳим ва долзарб йўналишлари бўйича олиб борилаётган тадқиқотлар 60 та. Улар йирик мавзулардир. Фаннинг турли тармоқлари бўйича 15 та тўла жиҳозланган илмий -тадқиқот лабораториялари фаолият кўрсатмоқда. Булардан 12 таси Республика Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги илмий-техника тараққиётини мувофиқлаштирувчи кенгашнинг фан ва технологиялар маркази грантини қўлга киритган. 2002 йилда мазкур йўналишда 9,5 млн. сўмлик тадқиқот ишлари бажарилди. 2003 йилда эса тадқиқотлар учун давлат бюджетидан 25 млн. 370 минг сўм маблағ ажратилди.

Институтда олиб борилаётган илмий изланишларнинг деярли барча турлари, яъни давлат илмий-техника дастурлари, хўжалик шартномалари, давлат бюджети бўйича ва турли хорижий мамлакатларнинг грантлари асосида бажарилаётган тадқиқот ишлари республикамизда, хусусан, Фарғона водийсида ишлаб чиқариш билан узвий боғланган. Асосий эътибор бюджетдан ташқари маблағлар ишлаб топишга, ундан самарали фойдаланишга қаратилган. Институтда ҳар йили ўртача 50-60 млн. сўмлик хўжалик шартномасига кирган ишлар бажарилмоқда.

2002 йилнинг ўзида бундай шартномалар асосида институт ҳисобига 40 млн. сўмга яқин маблағ туширилди. Кейинги икки йил ичида давлат бюджети ва хўжалик шартномалари бўйича бажарилган илмий-изланишлардан 36 таси ишлаб чиқаришга жорий этиш учун тавсия қилинди. Бу илмий-тадқиқот ишларини бажаришга 18 нафар фан доктори, профессорлар, 235 нафар фан номзоди, доцентлар жалб қилинган.

Асосий эътиборни таълим, фан ва ишлаб чиқариш ўртасидаги интеграцияни чуқурлаштиришга, ҳар томонлама илмий ва амалий ҳамкорликни кучайтиришга қаратмоқдамиз. Кадрлар тайёрлаш ва илм-фанни ривожлантириш бўйича 30 га яқин хорижий давлатларнинг илмий марказлари ва олий ўқув юртлари билан ўзаро ҳамкорлик шартномалари тузилди. Фарғона вилоятининг кўплаб йирик ишлаб чиқариш корхоналари ва нуфузли ташкилотлари билан ҳам мустаҳкам алоқа ўрнатилган. Институт олимлари фан танловларида илмий изланишларимиз юқори баҳоланаяпти. 2001-2002 йилларда 3 та йирик ишланмага давлат гранти берилди.

Bilasizmi?

— Институтнинг хорижий мамлакатлардаги турдош ўқув юртлари билан алоқалари ҳақида сўзлаб берсангиз.

— Халқаро алоқаларни кенгайтириш ва кучайтириш, жаҳон андозалари талабларига мос келувчи рақобатбардош кадрлар тайёрлаш, хорижий таълим муассасаларидан қолишмайдиган кадрлар тайёрлаш, улар билан тажриба алмашиш, турли дастурлар лойиҳаларида қатнашишга алоҳида эътибор берилмоқда.

Хорижий ҳамкорликларимиз 48 та. Шу кунгача уларнинг 28 таси билан ҳамкорлик шартномаси тузилган. 2003 йилнинг январь ойида Ҳиндистоннинг Деҳли, молия ва технология институтлари билан ҳамкорлик шартномалари имзоланган бўлса, февраль ойида Бельгиянинг Монс политехника институти ва Лоувен университети билан ҳамкорлик шартномалари тузилди. Шунингдек, Англия, АҚШ, Польша, Германия, Австрия олий ўқув юртлари билан ҳам ҳамкорлик ўрнатдик.

Шунингдек, "ТЕМПУС", "СОРОС", "ДААД", "ЮСАЙД", "АКСЕЛС", "ТАСИС", "АЙРЕКС", "ЛСА" каби жамғармалар билан узвий алоқадамиз. Профессор-ўқитувчилар ва талабалар бу жамғармалар томонидан ташкил этилган семинар ва ўқишларда фаол қатнашмоқда. Ўқув жараёнига хорижий таълим муассасаларида ижобий баҳоланган янги педагогик технологиялар татбиқ этилмоқда.

Суҳбатдош:
Нодира ҚУРБОНОВА

Мамлакатимизда ҳар жиҳатдан баркамол, соғлом авлод тарбияси йўлида кўпгина хайрли ва савобли ишлар қилинмоқда. Баркамол авлод нафақат жисмоний жиҳатдан етук, балки маънавий, ақлий жиҳатдан ҳам салоҳиятли бўлиши лозим. Маънавиятимиз, ўтмиш ва бугунги маданиятимиз, буюк аждодларимиз яратган шонли тарих ва эртанги келажагимиз хусусида дунёқарашга эга бўлган, шунингдек, сўз, нутқ бойлиги юксак даражада шаклланган авлодни тарбиялашда кутубхоналарнинг ўрни ва аҳамияти беқиёс.

Азалдан Шарқда китобга бўлган эътибор юксак даражада бўлган. Китобга меҳр-муҳаббат, уни ардоқлаш ҳар бир йигит-қизнинг болалигидан бошланади. Ҳар биримиз мактабгача бўлган даврда ўнлаб эртак китоблар, уларда тасвирланган қаҳрамонлар образларини ҳалиҳануз эслаймиз. Айни шу мўъжаз, минг йиллик афсоналар болалигимиздаёқ, шууримизни бойитиб, тафаккуримизни ривожлантирган, ҳаётга нисбатан меҳр-муҳаббат туйғуларини шакллантирган. Зеро, ҳар бир китоб киши маънавиятини юксалтириб, билимини бойитишга хизмат қилади.

Бироқ афсуски, ҳозир аксарият тенгдошларимиз китоб ўқишни одатга айлантирмаган, ҳатто қизиқмайдилар ҳам. Бу ҳолатнинг сабабини бир неча омиллар билан изоҳлаш мумкин. Айни пайтда болалар учун қизиқарли, кўпчилик эътиборини тортадиган, турфа мавзулардаги китоблар чоп қилинмаяпти, дея айта олмаймиз. Чунки, ҳар йили юзлаб нашриётлар томонидан бирбиридан қизиқарли китоблар нашр қилиб борилмоқда.

Балки бу ҳолатга ота-оналарнинг, мактабдаги мураббийларининг эътиборсизлиги сабаб бўлаётир, дейишингиз ҳам мумкин. Бироқ, бу фикрга ҳам кўшила олмаймиз. Чунки, ўқишга бўлган иштиёқ ва интилиш аввало, боланинг ўзида бўлиши лозим. Ҳеч бир болани мажбурлаб бирон-бир асарни ўқита олмайсиз.

КУТУБХОНАГА БОРАЯПСАНМИ, ТЕНГДОШИМ?

Бугуннинг болалари Интернет, ундаги турли ўйинларга ишқибоз. Айни пайтда замонавий технологияларнинг тез суръатларда такомиллашиб бораётгани боис, йигит-қизларнинг бу каби воситаларга берилиб кетиши жадал ўсиб бормоқда. Компьютер, Интернетнинг инсон дунёқарашини бойитиши, билимини ошириши рост. Аммо, ҳар қандай энг сўнгги, такомиллашган технология бўлмасин, у китобнинг ўрнини боса олмайди. Инсон маънавий қиёфаси шаклланишида китобнинг аҳамиятини ҳар бир восита билан алмашиб бўлмайди, албатта. Шу ўринда пойтахтимиздаги китоблар хазинаси бўлмиш — кутубхоналар тарихига бир назар ташласак.

Тошкент шаҳрининг Чорсу даҳасидаги «Турон» илмий универсал кутубхонаси Туркистон ҳудудида ташкил этилган биринчи миллий кутубхоналардан биридир. 1913 йили «Турон» ҳаваскорлар театр труппаси ташкил этилиб, мазкур труппани мунтазам саҳна асарлари билан таъминлаш мақсадида озарбайжон, турк, татар тилларидаги асарлар жамлана бошланган. Ана шу асарлардан китобхонларнинг ҳам фойдаланиши илк бор йўлга қўйилган ва қироатхона, кутубхона ташкил этилган. Кутубхона китоб жамғармасини бойитиш мақсадида маърифатпарвар зиёлилар ташаббус кўрсатдилар ва ўз хусусий жамғармаларидан 1500 дона нодир китобларни кутубхонага тақдим қилганлар.

1918 йилда пойтахтимизнинг Эски шаҳаридаги «Маҳсидўзлик» маҳалласида «Турон» кутубхонаси расман иш бошлади. Маърифатпарвар зиёлиларнинг 1500 дона китоб ҳадялари билан шаклланган кутубхонада бугунги кунга қадар 432 мингдан зиёд адабиётлар жамғарилди. Улар орасида туркий, форсий, шарқ тиллари ва рус тилидаги нодир асарлар бор.

2003 йилнинг январь ойидан ҳозирга қадар кутубхонага 1350 нафар китобхон аъзоликка қабул қилинди. Уларнинг 80 фоизини талабалар, 10 фоизини эса ўқувчилар ва қолганини ўқитувчи-домлалар, хизматчилар ташкил этади. Кутубхонага энг кўп ташриф буюрувчилар — Ўзбекистон Миллий университети, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари ва Тошкент давлат педагогика университети талабаларидир. Улар кутубхонада мутолаа орқали ўз билим ва дунёқарашини кенгайтириб, маънавий озуқа олишга доимо эҳтиёжманддир.

Лекин пойтахтимиздаги айрим олий таълим муассасаларида шундай талабалар ҳам борки, улар фақатгина реферат, маъруза, тақриз, ёзги ва қишки сессия пайтидагина кутубхонада пайдо бўлиб қоладилар. Кутубхона ходимаси Нозима Нормуҳамедова бу хусусда шундай дейди:

— Талабаларнинг 60 фоизи фақат ўзи учун ўқийдиган, билимга чанқоқ, интилувчан, дунёқараши кенг, китобга меҳр қўйган талабалардир. Айни шу тоифадаги ўсмирёшлар кутубхонада асосан ижтимоий-сиёсий, фалсафий, тарихий адабиётларни сўраб, мутолаа қиладилар. Улар орасида бадиий адабиётга қизиққанлари ҳам талайгина.

Жорий йилда кутубхонамизга 3000 дан ортиқ янги китоблар харид қилдик, — дея ўз сўзини давом эттирди Нозима опа. — Вилоят ҳокимлиги кўмаги билан ушбу йилда яна юзлаб янги рисолалар ва энциклопедияларни сотиб олишни режалаштирганмиз.

Яқинда кутубхонанинг иккинчи қаватида ҳуқуқий-ахборот маркази ташкил этилибди. Бу ерда иқтисодий, ҳуқуқий мавзулардаги сара асарлар жамланган. Марказ сўнгги русумдаги компьютер технологиялар билан жиҳозланган бўлиб, улар ёрдамида электрон асарларни ўқиш имконияти ҳам яратилган. Бундан ташқари, бу ерга ташриф буюрувчилар зарур адабиётлардан нусха олиш учун ксерокс, сканердан, шу билан бирга видеопроекторлардан фойдаланиши мумкин. Марказдаги 10 га яқин компьютер Интернет тармоғига уланганлиги айниқса бизни қувонтирди.

Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси Ёшлар ахборот-ресурс марказида айни пайтда 40 мингдан зиёд китоб сақланмоқда. Бу рисолаларнинг аксарияти Россия Федерацияси ва бошқа МДҲ мамлакатларидан келтирилган. Бу ерда ўзбек тилидаги асарлар кам бўлса-да, аммо тарих, иқтисодиёт, ҳуқуқ ва фалсафий мавзуларда сўнгги йилларда нашр қилинган нодир китобларнинг мавжудлиги билан эътиборлидир.

Кутубхона ёшлар маркази 2001 йилда ташкил этилган бўлиб, уни ривожлантиришда Сорос жамғармаси томонидан ажратилган 20 минг АҚШ доллари миқдоридаги грант маблағи катта ҳисса қўшди. Ушбу грант лойиҳасига асосан кутубхонадаги янги марказга 4 мингга яқин илмий-техникавий мавзулардаги китоблар, энциклопедия ва замонавий компьютер жиҳозлари келтирилди. Ўтган давр мобайнида марказга 12 минг нафардан зиёд китобхон аъзо бўлди. Уларнинг аксариятини талабалар, академик лицей ва касб-ҳунар коллежи, умумий ўрта таълим ўқувчилари ташкил этади. Марказга ҳар куни қарийб 70 нафар китобхон ташриф буюради. Китобхонлар асосан 14 ёшдан бошлаб аъзоликка қабул қилинади.

Ёшларнинг ахборот-ресурс маркази мудираси Любовь Горбуновадан бу ерга ташриф буюрувчи китобхонларнинг қизиқишлари хусусида сўраганимизда, уларнинг аксарияти Президент асарларини, шу билан бирга фалсафий, иқтисодий, ҳуқуқий мавзудаги асарларни мутолаа қилишини айтди. Шу билан бирга, марказнинг китоб жамғармаси у қадар бой эмаслигидан бироз нолигандек бўлди:

— Психология, нотиқлик санъати, жаҳон иқтисодиёти ва ҳуқуқи, фалсафа, Ўзбекистон тарихига оид асарлар ўзбек тилида кўпроқ бўлишини истар эдим, — деди у. Яна Левитаннинг «Эпоха Каримова» китобининг 3-томини, ўзбек тилида Гиннеснинг рекордлар китобини беришларини хоҳлардим.

Марказда ёшлар учун турли тадбирлар, фонд ва каталоглар билан танишиш мақсадида экскурсиялар ўтказилади. Бу ерда шунингдек, ёш журналистлар клуби ҳам фаолият кўрсатиб, клуб аъзолари томонидан ҳар ойда бир марта газета нашр этиб борилади.

Nigoh

Юлдуз РАҲМОНБЕРДИЕВА,
ЎзДЖТУ халқаро журналистика факультети 2-босқич талабаси



ЭЛЕКТР ҚУВВАТЛАРИ ҚАНДАЙ ЎЧГАН

Ўтган ҳафтада Нью-Йоркдаги электр қувватларининг ўчиб қолишини "Абу-Хафси" гуруҳи бажарганлигини айтмоқда. Улар бу ишни Усама Бин Лоден буйруғига биноан содир этганлигини ва АҚШ иқтисодига зарар келтириш учун қилинганлигини таъкидлашмоқда.

Бу гуруҳ икки электр станцияга ҳужум қилишган, лекин бу ҳужум қай тарзда амалга оширилгани ҳақида ҳеч қандай ахборот йўқ.

Оқ уй раҳбарлари эса бу ҳодисаларга "Ал-Қоида" гуруҳининг ҳеч қандай алоқаси йўқлигини айтмоқда. Лекин ҳозирча соҳа мутахассислари электр станцияларининг ишдан чиқиш сабабларини аниқлай олмаяптилар.

ЯНГИ СНАЙПЕР

АҚШда бир неча қотилликлар содир бўлди. Чарлстон шаҳридаги қотилликлар америкаликларни қаттиқ ташвишлантирмоқда. Шаҳар бензин қуйиш шахобчалари олдида 4 киши ҳар хил вақт ичида отиб ўлдирилган. Чарлстон полициячилари 100 дан ортиқ кишиларни сўроқ қилди. Янги пайдо бўлган снайпер ҳаракатлари қўлга олинган "вашингтонлик снайпер" ҳаракатларига ўхшайди. Америка Федерал хизмати 12 та алоҳида гуруҳлар тузиб қотилни қидиришмоқда. Гувоҳларнинг айтишича бу воқеа содир бўлишидан олдин Ford-150 автоуловни кўришган. Лекин бунақанги машинадан кўпгина шаҳар аҳолиси, ҳатто полиция ходимлари ҳам фойдаланади. Қотиллик жойида топилган ўқ гильзалари бир-бирига ўхшаш. Бу шундан далолатки, қотиллик 1 киши томонидан амалга оширилмоқда.

КИТОБЛАР КЎРГАЗМАСИ

Москвада халқаро китоблар кўргазмаси иш бошлади. Унда 60 та давлатдан вакиллар иштирок этмоқда. Халқаро кўргазманинг бош директори Никол Овсянниковнинг айтишича ярмаркада бир қанча Африка давлатлари ҳам иштирок этмоқда.

Бу кўргазма 8 сентябргача Россиянинг марказий шаҳарларида намойиш этилади. Ярмаркада янги нашр этилган Россия энциклопедиясининг тақдимоти ҳам бўлиб ўтади. Бундан ташқари 15 та номинация бўйича "Йил китоби" конкурси ҳам ўтказилади. Унда ғолиб чиққан китоблар Франкфурт китоблар ярмаркасига тақдим этилади.

ЖАЗИРАМА — ДОВУЛГА АЙЛАНДИ

Бу йил Европа об-ҳавоси ҳаммани ҳайратлантирмоқда. Мисли кўрилмаган жазирамадан азият чекаётган аҳоли салқин ёмғирли кунларни кутмоқда эди. Лекин бу кутилган об-ҳаво Испанияга янада қимматга тушди. Иссиқдан бирданига ҳавонинг пасайиши ёмғирга сабаб бўлди. Кучли давом этган довул ҳароратни 10 даражага пасайтирди ва дарё тошқинларини келтириб чиқарди. Табиий офат натижасида мамлакатнинг Каталония, Арагон ва Валенсия вилоятларида электр узилишлари бўлди. Йирик автомобиль ва темир йўлларда қатнов тўхтаб қолди. Кўп жойларда дарёлар ўзанидан чиқиб кетди ва уй-жойлар ҳамда экинзорларга катта зарар келтирмоқда. Арагон маҳаллий ҳукумати Мадрид ҳудудини табиий офат зонаси деб эълон қилишга чақирмоқда.

АВИА-ШОУ

Куни кеча Москва яқинидаги Жуковск аэродромида халқаро МАКС-2003 авиа-шоуси бошланди.

Унда Россиянинг 500 га яқин, 38 та давлатнинг 200 тача компаниялари қатнашмоқда. Унда 200 та самолётнинг парвози кутилмоқда. Биринчилардан бўлиб АҚШ, Италия, Фрация учувчилари парвозга кўтарилди.

Авиа-шоуда кўпчиликни қизиқтираётган нарса бу Россиянинг ҳарбий қирувчи F-15, F-16 ҳамда бомбардимончи B-52 самолётларининг парвозидир.

«ЖИҲОД»ГА АНИҚЛИК КИРИТИЛДИ

Саудия Арабистонининг юқори диний бошқармаси "Жиҳод" сўзининг маъносига аниқлик киритди. Террор хуружлари учун ва ўзини-ўзи қурбон қилиш "жиҳод" — деб аталмаслигини тушунтирди. Бундай ҳолатларга қарши фатво эълон қилинди.

ЯНА БИР ҚЎПОРУВЧИЛИК

Тель-Авив шаҳри ресторанларининг бирида портлаш содир бўлди. Натижада 1 нафар киши ҳалок бўлиб, 4 нафар киши оғир жароҳатланди.

Полиция маҳкамасининг хабар беришича, портлаш икки жиноий гуруҳ келишмовчилиги оқибатида содир бўлган.

Маълумотларга қараганда жиноятчиларнинг мақсади бинонинг тўртинчи қаватидаги "казино" ва "ланбард"га зиён етказиш бўлган.

ФРАНЦИЯ ИССИҚДАН АЗИЯТ ЧЕКМОҚДА

Франциядаги мисли кўрилмаган иссиқ ҳарорат натижасида кўплаб инсонлар қурбон бўлмоқда.

Соғлиқни сақлаш вазирлигининг маълумотларига қараганда иссиқдан беш минг киши азият чекиши мумкин экан. Францияда бу қадар иссиқ ҳарорат ярим асрдан буён кузатилмаган экан.

Жазирама иссиқ асосан катта ёшдагиларга ва (гипертония) касали билан оғриганларга таъсир қилмоқда.

Ҳозирда иссиқлик даражаси 40°С дан ошган бўлиб, охирги 3 ҳафта ичида уч минг киши ҳалок бўлган.

"Журнал дю димонш"нинг ёзишича Париж шаҳрининг ўзидагина иссиқдан шу кеча-кундузда 200 нафар киши қурбон бўлган.

Синоптикларнинг маълумотига қараганда август ойининг иккинчи ярмида ҳаво салқинлашиши мумкин экан.

Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги раҳбарияти ва жамоаси вазирнинг биринчи ўринбосари Р.Аҳлидиновга волидаи муҳтарамаси

ШАРИФАХОН аянинг

вафоти муносабати билан ҳамдардлик изҳор қилади.

"Маърифат" газетаси таҳририяти жамоаси Халқ таълими вазирининг биринчи ўринбосари Р.Аҳлидиновга волидаи муҳтарамаси

ШАРИФАХОН аянинг

вафоти муносабати билан ҳамдардлик билдиради.

Педагогика фанлари илмий тадқиқот институти жамоаси Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирининг биринчи ўринбосари Р.Аҳлидиновга онаси

ШАРИФА аянинг

вафоти муносабати билан таъзия изҳор этади.

ҲУДУДИЙ СЕМИНАР

Самарқанд шаҳри Темирйўл туманидаги 51-мактабда республика ҳудудий семинари бўлиб ўтди.

Йиғилишда Сирдарё, Жиззах, Самарқанд вилоятларининг халқ таълими бошқармаси бошлиқлари, туман, шаҳар халқ таълими бўлими мудирлари ҳамда "Ёшлик" кўнгилли спорт жамияти раиси муовинлари иштирок этдилар.

Анжуманда келаси йили Самарқандда бўлиб ўтадиган "Умид ниҳоллари" спорт мусобақаларини ўтказишга тайёргарлик кўриш, мактабгача таълим муассасаларини хусусийлаштириш ва таълим муассасаларида умумий овқатланишни ташкил этиш тўғрисида фикр-мулоҳазалар юритилди.

Шунингдек, семинар иштирокчилари Сиёб туманидаги «Оби-Машат» маҳалласидаги Ўзбекистонда хизмат кўрсатган спорт устози Мамажон Аҳмедовнинг спорт уй-музейини ҳамда «Ахмад» полвон соғломлаштириш масканини кўздан кечирдилар.

ПАСТДАРҒОМЛИКЛАР ЮҚОРИ ШОҲСУПАДА

Самарқанд шаҳридаги кооператив тижорат коллежининг спорт мажмуида вилоят кичик, ўрта бизнес, матлубот кооперация, савдо ходимлари ва хусусий тадбиркорлар касаба уюшма ходимлари ўртасида вилоят спартакиадаси ўтказилди.

Ушбу спорт анжуманида Оқдарё, Жомбой, Самарқанд, Ургут, Тайлоқ, Пастдарғом туманларидан ташриф буюрган спортчилар, спортнинг енгил атлетика, стол тенниси, волейбол (қизлар), тош кўтариш, оилавий жамоалар турлари бўйича ғолиблик учун баҳс олиб бордилар. Қизиқарли кечган мусобақалар якунига кўра умумжамоа ҳисобида 36 очко тўплаган Пастдарғом тумани 1-ўринни, Жомбой тумани 26 очко билан 2-ўринни ва 14 очко тўплаган Тайлоқ тумани 3-ўринни эгаллади.

Мусобақа якунига кўра спорт турлари бўйича вилоят терма жамоалари тузилиб, улар республика мусобақасида вилоят шарафини ҳимоя қиладилар.

М.АҲМЕДОВ

УЗУННИНГ ФИДОЙИ ФАРЗАНДЛАРИ

ёхуд Узун туманидаги 2-мактабда ташкил этилган «Фидойилар клуби» аъзолари олиб бораётган ишлар хусусида

Яқинда хизмат сафари билан Узун туманида бўлганимизда, туман ХТБ мудири Ҳикматилло Шоймардонов туман миқёсида амалга оширилган таълим янгиликлари ҳақида гапира туриб, 2-мактабда ташкил этилган "Фидойилар клуби" фаолиятига алоҳида тўхталди.

Янги ишни ўрганиш мақсадида ўша заҳотиёқ 2-мактабга йўл олдик.

Мактаб директори Ибодилло Хўжаев илм масканида олиб борилаётган ишлар, 734 нафар ўқувчию, 60 нафарга яқин ўқитувчига яратилган шарт-шароитлар хусусида, келгуси режалар ҳақида гапириб берди. Сўнгра таклифимиз билан бизни «Фидойилар клуби»га етаклади.

Кенг ва ёруғ, шарқона услубларда безатилган хона. У асосан юртимизнинг тарихи ва бугунига оид кўргазмалар билан жиҳозланган. Хонада кичкина кутубхона, яъни газета ва журналлар тўпламлари ҳам ташкил этилган.

— Бу киши маънавият ишлари бўйича директор ўринбосари Дилором Хўжамқулова бўлади, — деди И.Хўжаев. — «Фидойилар клуби»ни ташкил этиш ташаббуси ҳам шу кишидан чиққан...

Биз Дилором Хўжамқулова билан анчагина суҳбатлашдик. «Фидойилар клуби» аъзолари олиб бораётган ишларни сўраб-суриштирдик. Ўқувчилар гарчи таътилда бўлишса-да, клубларига келиб-кетишни канда қилишмайди. Мана ҳозир ҳам 15 нафар ўқувчишу ерда.

— Булар фидойиларимизнинг ҳам фидойилари — дейди Д.Хўжамқулова, — келишади, нималарнидир ўқиб-ўрганишади, келгуси ишлар тўғрисида режалар тузишади. Мана бу ўқувчимиз Дилдора Худойбердиева. У 8-синфни тугатиб, 9-синфга ўтди. У «Фидойилар клуби»мизнинг раисаси...

Сўраб-суриштирганимиз сайин клуб аъзоларининг ишлари кенг қамровли эканлигига, қолаверса, улар олиб бораётган ишлар долзарб ишлар эканлигига иқрор бўлдик. "Фидойилар клуби"нинг 4 нафар доимий аъзоси бор. Улар мактабда мавжуд 30 та синфнинг барча тарбиявий тадбирларига кириб бора олганлар, деб айтиш мумкин. Клуб аъзолари Она-Ватанни севиш, миллий қадриятларимизни қадрлаш, тарихимизни ўрганиш, эркин фикрлашга ўрганиш, шу кунимизнинг янгиликлари билан танишиб бориш каби қатор муҳим йўналишлар бўйича барча синфларда кечалар, маънавият соатлари, баҳс ва мушоиралар, давра суҳбатлари уюштирадилар. Улар у ёки бу мавзу бўйича, аввалича синфлар бўйича сўнгра мактаб миқёсида танловлар ўтказишади.

— Клубимиз аъзолари якунланган ўқув йили давомида кўплаб тадбирлар ўтказдилар, — дейди Дилором Хўжамқулова. — Уларнинг барчаси асосан Ватанни севиш, қадриятларимизни қадрлаш, она тилимизни улуғлаш каби аниқ мақсадларга қаратилган тадбирлардир. Айниқса, «Сен нима билан фахрланасан?», «Мен шу Она-Ватанга муносиб фарзандманми?», «Узуннинг узун тарихи» каби баҳс ва давра суҳбатлари ўқувчиларимиз хотираларида муҳрланиб қолди, деб ўйлайман...

— Хўш айтинг-чи, фидойи деган номни олмоқ учун 2-мактаб ўқувчилари нима қилишлари керак?

— Она-Ватанни жонларидан ортиқ севмоқлари, унга муносиб фарзанд бўлиб етишмоқлари керак. Ана шунда ўша ўқувчи «Фидойилар клуби»мизнинг фидойи ўқувчиси рўйхатига ёзилади...

Тан олмоқ жоизки, Узун туманининг 2-мактабида ташкил этилган «Фидойилар клуби» аъзолари ўқувчиларни улуғ мақсадлар сари етаклаяптилар.

Абдували ОБИДДИН,
"Ma'rifat" мухбири

O'rnak

ФРАНЦИЯДА ЎҚИШ ҚАНДАЙ?

Xorijda ta'lim

Рақамларга қарайдиган бўлсак, Франция олий таълими ниҳоятда жозибадор. Мамлакатда яшайдиган ёшларнинг 2 миллиони Франция олий таълим муассасаларида таҳсил олади. Бу эса умумий талабаларнинг учдан икки қисмини ташкил этади. Талабаларнинг 16,6 фоизи икки йиллик муҳандислик курсида "BTS" (Bretvetdet erhnicien supor:eur) ёки DUT (diplome uninversitaire de terhnologie) дипломларига эга бўладилар, қолганлари эса бизнес ва менежмент соҳасини ташкил қилади.

2001-2002 ўқув йилида Франция олий ўқув юртларида 190.000 хорижлик талабалар таҳсил олган бўлса, бу умумий Франция талабаларининг 11,4 фоизини ташкил қилар экан. Хорижлик талабаларнинг кўплиги жиҳатидан Франция дунёда фақаттина Буюк Британиядан кейинги ўринда туради. 1998 йилдан ўрганилаётган фанлар ичида энг обрўлиси иқтисод бўлиб, олдинги тиббиётга бўлган қизиқишни ортда қолдирди.

Кўпгина хорижлик талабалар Францияга Осиё, Африка ва Америкадан келиб ўқишади. Қўшни давлатлардан келган талабалар сони эса анчагина кам. Европа ва Америкадан келган кўпгина талабалар гуманитар фанлар бўйича таҳсил оладилар. Франция шаҳарларидан Парижда ўқиш обрўлироқ. Франция жаҳон талабаларини ўзига жалб этиш учун олий ўқув юртлари кўргазмаларини уюштириб туради. Айниқса, жаҳон талабаларини Франция олий таълим мактабларининг кам харжлиги қизиқтирмоқда. Масалан, 130 евродан 700 еврогача кутубхона, лаборатория ва талабалар шаҳарчасида фойдаланиладиган хизматлар учун тўланади. Ётоқхонада туриш эса 140-400 еврога боради. Овқатланишга эса 130 евродан 200 еврогача харажат қилинади. Лекин, энг муҳими шундаки, хорижлик талабалар олий ўқув муассасаларига синов ва имтиҳонларсиз қабул қилинади. Франция университетларига ўрта мактабни битириб кириш мумкин, аммо ўрта таълим аттестатидан ташқари француз тилини мукаммал билиш ҳақидаги диплом, яъни DELE/DALF сертификатлари бўлиши лозим. Ўрта мактаб аттестати баҳолари эса қайси йўналишда ўқишингизни белгилаб беради. Францияга ўқишга келган талабалар учун яна бир имконият бор, бу Франция ҳукумати тарафидан яшаш ва уй-жой харажатларини тўлашга ёрдам бериш, яъни харажатларнинг 20 фоиздан 40 фоизгача тўланишидир. Талабаларга ўқишдан бўш вақтларида ишлашга ҳам рухсат берилади. Аммо, иш вақти ҳафтасига 19,5 соатдан, ойига эса 84,5 соатдан ошмаслиги лозим. Вақтинча ишлашга рухсатномани ўқиш жойидаги префектурадан олиш мумкин. Энг кам маош миқдори соатига 6,72 евро ни ташкил этади. Франция университетларидаги ўқув жараёни уч босқич жараёнга бўлинган, ҳар бири якуний имтиҳон топшириш ва диплом олиш билан якунланади. Биринчи жараён лицейни битиргач бошланади ва икки йил умумий таълим олиш билан битирилади. Кейинги босқич "baccalaureat" бўлиб, Буюк Британия "baccalaureat"идан фарқ қилади. Франция "baccalaureat" лицейни тамомлаш биланоқ фақат синов ва имтиҳонларини тўлалигича топшира олганларга берилади. Бу уларга олий ўқув юртига кириш ҳуқуқини беради. Университетда икки йил ўқигач, талабалар синов имтиҳонларини топширишади. Ундан сўнг умумий университет маълумотига эга бўлишади ёки DEUG, илмий-техник маълумот ҳақида диплом берилади. Иккинчи босқич жараён ҳам 2 йил давом этиб, талабалар ихтисослаштирилган билимларга эга бўлишади. Иккинчи босқич жараённинг биринчи йили "licence" деб номланади ва лиценцият даражаси берилиши билан якунланади. Лиценцият яна бир йил ўқиб "maitrise" даражасига эга бўлади, аммо бунинг учун талаба мавзу танлаб диплом ишини ёқлаши керак.

Учинчи босқич жараёни кўпгина хорижий талабаларни ўзига тортади, бу босқич бир йил давом этиб, тўлиқ олий маълумот дипломини беради. Олий маълумот ҳақидаги диплом ҳам ўз навбатида иккига ажратилади. Биринчиси DESS махсус олий маълумот ҳақидаги диплом бўлиб, у ўз ичига амалиёт муддати камида 3 ойдан 6 ойгача бўлган вақтни ўз ичига олади. Амалиёт жойи тўғри танланиши кейинчалик иш жойига муваффақиятли жойлашиш кафолатидир. Иккинчи диплом эса DEA деб номланиб, чуқурлаштирилган олий маълумот эгаси эканлигингизни билдиради. Бу диплом эгасига илмий ишлар ва диссертация ёқлашга имкон берилади ва кейинчалик эса докторлик ишларини ҳам ҳимоя қилишга имконият беради. Қолаверса, бу жуда машаққатли йўл бўлиб, фақат қоғоздагина осон кўринади. Талабаларнинг 40 фоизи ўқиш давридаги машаққатларга чидай олмай университетларни тарк этишади. Франциянинг университетлари куллиётлари ва йўналишлари хилма хил бўлиб, бу ерда ҳар бир илмга чанқоқ инсон ўзи хоҳлаган мутахассислигини эгаллаши мумкин.

Интернет манбалари асосида
Сарвар ФАЙЗУЛЛАЕВ
тайёрлади.

ИМКОНИЯТ БОРЛИГИГА НИМА ЕТСИН?

Ta'lim va sport

Спорт иншоотларининг мавжудлигини ҳар бир таълим муассасасининг катта имконияти деб баҳолаш керак. Чунки таълим билан спорт худди эгизаклардай ёнма-ён юради.

Университетлараро мусобақалари келаси йили Самарқандда ўтказилади. Бунга эса ҳар томонлама тараддуд кўриш лозим. Спорт иншоотлари қуриш ва мавжудларини капитал таъмирлашдан тортиб, жамоаларнинг маҳоратларини ошириб боришгача булган жараён самарқандликларнинг хаёлини банд этган.

Шаҳардаги кўҳна ва навқирон Самарқанд давлат университети талабалар касаба уюшма қўмитаси, айниқса, бу каби масалаларга жиддий эътибор қаратяпти. Университетда спортнинг анчагина мустаҳкам базаси яратилган. 4 та усти ёпиқ спорт зали, 9 та очиқ майдон, жумладан 4 та волейбол майдони, 2 та қўл тўпи майдони ташкил этилган.

Спорт ишларини аралаш-қуралаш тарзда ва дуч келган шароитда йўлга қўйиш пароканда-ликка олиб келади. Маълум тизимга ва тартибга солинган ишлар эса ортиқча даражада қийинчилик туғдирмайди. Университетдаги "Талаба" спорт клуби 18 та тур билан шуғулланиш имкониятини беради. Унда 2000 дан зиёд талабалар шуғулланишмоқда. Фақат шуғулланишнинг ўзи спортчига кифоя қилмайди. Вақти-вақти билан у катта-кичик мусобақаларда ўзининг нимага қодир эканлигини намоён қилиб туриши ҳам керак.

Шу йил баҳор ойларида шаҳардаги мавжуд олий ўқув юртлари спортчилари ўртасида кичик универсиада ўтказилган эди. Университет талабалари битта спорт тури бўйича биринчи ўринни, 2 та турдан эса иккинчи ўринни эгаллашди. Бу қониқтирадиган натижа, аммо ҳамма тур бўйича биринчи ўринни эгаллаганга нима етсин?

— Спортчиларни одатда очколар, юқори ўринлар қизиқтиради. Бу, аслида яхши маънодаги рақобатдир. Чунки юқори ўринга интилиш спорт билан шуғулланаётганларни ўз имкониятларидан ҳар доим ўзишга ундайди, тенгқури ундан ўзиб кетса, нега мен шунга эришмадим, деб ўзига-ўзи савол беради.

— Университетимизда спортчиларнинг кўплигидан хурсанд бўлиш керак. Чунки, бу рақобат муҳитини кучайтиради. 6 нафар халқаро тоифадаги спорт устаси, жаҳон чемпионлари, жаҳон чемпионати иштирокчилари, 61 нафар спорт устаси ва республика чемпионлари ҳамда 100 дан ошиқ биринчи даражали спортчилар таҳсил олишяпти. Менимча, бу рақамлар пасаймайди, чунки бу талабалар битириб кетишса ҳам, уларнинг ўрнини бошқа талабалар босишади, — дейди талабалар касаба уюшма қўмитаси раиси Бурҳон Ялғошев.

МУХБИРИМИЗ

АЙРЕКС ва АҚШ Давлат Департаменти
Таълим ва Маданият масалалари бўлимининг
"Ўзбекистон мактабларида Интернет" дастури

IREX

Андижон, Фарғона, Қарши, Наманган, Термез ва Нукус шаҳарларида Регионал ўқитувчи лавозимига танлов эълон қилади

Регионал Ўқитувчининг вазифалари:

- *Дастур иштирокчилари ҳисобланган мактаб ўқитувчи ва ўқувчилари учун тренинглар ўтказиш;*
- *Ўқувчиларнинг Интернетга йўналтирилган фаолиятини ривожлантириш ва мониторинг ўтказиш;*
- *Ўқув Интернет Маркази администраторларининг ишини бошқариш;*
- *Ота-оналар ва ўқитувчилар кенгаши фаолиятига кўмаклашиш;*
- *Маҳаллий маъмурият билан ўзаро муносабатларни ташкил этиш;*
- *Интернет марказидан унумли фойдаланиш учун жамоат ташкилотлари ва маҳалла билан ишлаш;*
- *Тошкент шаҳрида ўтказиладиган конференцияларда иштирок этиш;*
- *Дастур координаторига ҳисобот бериш;*

Талаблар:

- *Ўзбекистон Республикаси фуқароси;*
- *Гуруҳ бўлиб ишлаш қобилияти, меҳнатсеварлик;*
- *АҚШ лойиҳаларида ишлаш таржрибаси;*
- *Компьютерда ишлаш тажрибаси (Word, Excl, Accrss, Power Point, HTML программалари билан);*
- *Олий маълумот;*
- *Педагогик малакаси;*
- *Интернет билан ишлаш тажрибаси;*
- *Ўзбек, рус ва инглиз тилларини билиши мақсадга мувофиқ;*
- *Сафарларга бориш эҳтимоллиги.*

Танловда иштирок этиш учун хат ва хатга илова қилинган резюмени 2003 йил 22 августгача lkhafizova@irex.uz электрон манзили ёки + (99871) 1525147 факс орқали юборишингизни сўраймиз.

ҲУРМАТЛИ ИШБИЛАРМОН ВА ТАДБИРКОРЛАР!

Тошкент шаҳар муниципал биржа маркази 2003 йил 19,26 сентябрь, 3,10 октябрь кунлари соат 11. 00 да Давлат мулки қўмитасининг Тошкент шаҳар бошқармаси биносида кимошди савдолари ўтказади.

КИМОШДИ САВДОЛАРИГА ҚУЙИДАГИЛАР ҚЎЙИЛАДИ:

Тошкент шаҳар, Бектемир тумани, Остонов кўчаси, 28-уйда жойлашган банкрот деб эълон қилинган "Янтак Брит" қўшма корхонасининг мол-мулк мажмуаси, бошланғич нархи 350,0 млн.сўм.

Савдода қатнашиш учун харидорлар объектларнинг бошланғич нархининг 10 фоизи миқдорида гаров пули тўлашлари шарт. Савдода қатнашиш тартиби ва шарт-шароитлари билан боғлиқ барча масалалар юзасидан қуйидаги манзилга мурожаат қилишингиз мумкин:

Тошкент шаҳар, Миробод тумани, Мовароуннаҳр кўчаси, 16а-уй, 402-хона. Телефонлар: 133-20-74, 132-25-51.

Chunki bu el esh ekan,
Bir-biriga xesh ekan.
Do'stlik ekan panohi,
Adolat podishohi.

Buning o'rniga insonning doimo sog'lom va tetik bo'lib yurishini ta'minlovchi va xushkayfiyat bag'ishlovchi sport bilan shug'ullanilsa har jihatdan foydali bo'ladi-ku!

ГҮЛДҮРСҮН

Кенгликлар чорлайди чақноқ
кўзимни,
Ватан жоним ётур сарҳадларингда.
Бир кун майса каби яшилланурман,
Қуёшдан тўкилган ҳайратларингда.

Ўтли болалигим ҳамон ёдимда,
Дилга яқин уйим остоналари.
Ёдимда тунларни эритиб қўйган,
Азиз бувижоним афсоналари.

Бари бир туш каби ўтди, шекилли,
Аммо юрагимда оппоқ булутлар.
Намхуш ҳаво билан ўйнашган шамол
Ва бизни ёмғирдан асраган тутлар.

Ватан, ўша дарахт сен эдинг асли,
Хокисор тупроқлар билан тиллашган.
Болалик йилларим кафтида тутиб,
Изғирин ел билан дадил беллашган.

Ногаҳон сезаман жоним ичида,
Болалик уйимнинг остонасини.
Ва ёдим дарёси куйлай бошлайди,
Бувимнинг энг қадим афсонасини.

* * *

Қадим ўтган замонда,
Қуёш юрти томонда,
Омон-омон замонда,
Бахтиёр эл бор экан,
Шодлик унга ёр экан...

Ариқларда оқиб бол,
Ҳар уйда кулиб иқбол.
Адолат подшоҳ экан,
Армонлари йўқ экан.

Меҳнатда топиб камол,
Омад кўрсатиб жамол.
Бу халқни сийлар экан,
Умидга белар экан.

Бу юртнинг таърифини,
Камоли шарифини,
Очкўз ёв эшитибди,
Бир режа пишитибди.

Ўзга юрт талошидан,
Урушнинг балосидан
Бахтиёр эл бехабар
Қайғу йўллабди чопар.

Шунда қалъа посбони,
Халқумга келиб жони,
Она халқин ёрлабди,
Курашмоққа чорлабди.

Бу тинчлик қўрғонини,
Куёш юртин жонини,
Ҳеч ким енголмас экан,
Ҳеч зот ололмас экан.

Чунки бу эл эш экан,
Бир-бирига хеш экан.
Дўстлик экан паноҳи,
Адолат подишоҳи.

Ҳужумга кириб дарров,
Зарбалар берибди ёв.
Аммо қалъа ичинда
Боғлашибди маҳкам бел,
Бир-бирини қўллаб эл.

Қирқ кечаю, қирқ кундуз
Курашибди маккор ёв.
Ҳар бир жангчи жонини
Тиллага қўйиб гаров.

Қанча куйиб пишмасин,
Машаққатлари зое.
Ўзга юрт бойлигини
Ўйлаган ҳоли воей.

Ёв экан ўта айёр,
Қайтмабди ниятидан.
Ёв лашкарин бошлиғи
Тушмабди ҳеч отидан.

Еру кўкни титратиб,
Тинмабди ларзалари.
Қалъага тегар-тегмас
Синибди найзалари.

Қанча-қанча аскарлар
Қонига беланибди.
Юртга қайтайлик дея,
Шоҳига эланибди.

Аммо дунёпараст шоҳ
Бунга қулоқ солмабди.
Лашкарнинг фиғонини
Назарига илмабди.

Бу пайт қалъа ичинда
Халқнинг ҳоли танг экан.
Халқни қандай асрай деб,
Шоҳ боши гаранг экан.

Шоҳнинг бир қизи бўлиб,
Экан қулинг ўргулсин.
Ҳуснини ой талашган,
Оти экан Гулдурсун.

У бир куни қалъадан
Ёв томон мўралабди.
Ёв шоҳининг кўзлари
Унга сирли қарабди.

Боши айланиб қизнинг
Севги этибди карахт.
Гўё унинг қалбини
Асир этмиш ширин бахт.

Ўша кундан бошлаб у,
Ёв шоҳини пойлабди.
Юрагига ишқ дея,
Фожеани жойлабди.

Халқ ғамида одил шоҳ
Сезмабди қиз ҳолини.
Билса нима бўларди,
Қоп-қора иқболини.

Аммо руҳи баланд эл
Бир-бирини қўллабди.
Ёвуз ёв томонига
Нафратини йўллабди.

Кундан-кунга халқ ҳоли
Ёмонлашиб борибди.
Егулигу дону дун
Тугайин деб қолибди.

Шунда адолатли шоҳ
Халқини йиғиб бирга.
Ўйлаб-ўйлаб охири,
Тузишибди зўр режа.

Ёвни чалғитмоқ учун
Асрайин деб жонларни,
Сигирга тутибдилар
Сўнгги дону дунларни.

Обдон тўйган сигирни
Ёв томон ҳайдабдилар.
Чиқаришиб қалъадан,
Режага бойлабдилар.

Ёв шоҳига аскарлар
Сигирни келтирибди.
Шоҳ оч жангчиларига,
Сигирни сўйдирибди.

Кўришсаки сигирнинг
Ичи буғдоймиш таранг.
Ҳолдан тойган ёвларнинг
Шоҳи бўлмиш ҳангу манг.

Бир сигири шунча тўқ,
Демак ҳали кўп дони.
Қалъани қамал билан
Олишнинг йўқ имкони.

Шунда дебди ёв шоҳи:
«Вақт ўтказиб нетамиз.
Тўқ элни енгиб бўлмас,
Энди ортга қайтамиз».

Умидини узган шоҳ,
Бошла дер сарбозини.
Қайтаркан эшитибди
Бир қизнинг овозини.

"Шошилманглар,
шошманглар,
Қалъа элин ҳоли танг.
Сизлар сўйган у сигир,
Асли эди бир найранг".

Қалъа сирин бирма-бир,
Айтибди у шу йўсин.
Ёв шоҳига ошиқ қиз,
Юзи қора Гулдурсун.

Ёвуз шоҳнинг кўзида
Яна умид порлабди.
Қани жангга киринг деб,
Аскарларни чорлабди.

Қуёш шаҳрин бир кунда
Қиличдан ўтказибди.
Юзиқора Гулдурсун
Ўзига гўр қазибди.

Ёвуз шоҳ бир амаллаб
Эгаллаб бўлгач тахтни.
"От думига боғлаб, — дер,
Судратинг қиз-бадбахтни.

Ўз юртини билмаган,
Бизга қиларму вафо.
Хиёнаткор кимсага
Лойиқдир шундай жазо".

Эшитиб бу фармонни,
Гулдурсун ялинибди.
Шу дам қулоқларига
Бу сўзлар чалинибди.

Билибдики қалбида,
Унга хиёнат ниши.
Уни дуоибад қилган,
Ота руҳи қарғиши.

ОТА РУҲИ ҚАРҒИШИ

Гулдурсуно, Гулдурсун,
Сани тупроқ ўлдурсун.
Гулдурсуно, Гулдурсун,
Сани тузим ўлдурсун.

Гулдурсуно, Гулдурсун,
Сани ишқинг ўлдурсун.
Гулдурсуно, Гулдурсун,
Отанг руҳи ўлдурсун.

От думида судралар,
Хор бўлган бир ит йўсин.
Бутун бир халқ бошига
Етган нонкўр Гулдурсун.

Ким тупроғин хор этар,
Уни кутади хорлик.
Ватанини сотганнинг,
Кўзларин ёпар зорлик.

* * *

Кенгликлар чорлайди
чақноқ кўзимни,
Ватан, жоним ётур
сарҳадларингда.
Бир кун майса каби
яшилланурман,
Қуёшдан тўкилган
ҳайратларингда.

Ўтли болалигим ҳамон ёдимда,
Дилга яқин уйим остоналари.
Ёдимда тунларни эритиб қўйган
Азиз бувижоним афсоналари.

Ҳалима ЖУМАНИЁЗОВА,
Республика ижтимоий
йўналишдаги
гимназия ўқитувчиси

Doston

Ta'kid

Бекатда автобус кутиб тургандим. Ёши 16-17лардаги бир йигит келиб шу ерда сигарет, резина сақич (жевачка), писта, қурут, мағиз ва бошқа майда-чуйда нарсалар билан савдо қилаётган аёлдан:

— "PINE" неча сўм?, — деб сигаретнинг нархини сўради.

— 500 сўм, — жавоб берди аёл.

Харидор 2 та 200 сўмлик ва 1 та 100 сўмлик бериб уни сотиб олди. Лекин, у ўз саломатлигининг кушандасини сотиб олганлигини хаёлиги ҳам келтирмади.

Энди шу ўринда: Хўш, ўсмирлар ҳам бундан мустасно эмас. Бу эса оилада соғлом авлодни вояга етказишга салбий таъсир кўрсатмайдими? Агар уларнинг ота-оналари ва бошқа оила аъзолари, ўқувчиларнинг устозлари томонидан назорат кучайтирилмас экан, яқин келажакда бунинг оқибатлари нималарга олиб келишига ҳайронман! Ҳаттоки чекишга ниҳоятда ружу қўйган ва унга қарам бўлиб қолган кишилар танасида наркоманияга мойиллик уйғониши тиббиётда исботланган. Бундан ташқари у чекувчининг оиласида маълум даражадаги иқтисодий қийинчиликни ҳам юзага келтиради. Сигаретлар жуда турли-туман бўлиб улардан «XON», «XON Lights», «XON ULTRA Lights», «KARVON» ва юқорида зикр этилган «PINE» каби турлари кўпроқ истеъмол қилинмоқда. Ўз навбатида уларнинг нархи ҳам турлича, яъни "PINE"нинг бир қутиси 500 сўм бўлса, «XON»-300, «XON Lights» ва «XON ULTRA Lights» лар 400 сўмдан, «KARVON» эса 175 сўмни ташкил этади. Оиласидаги ҳар қандай иқтисодий қийинчиликларга қарамасдан чекиш учун пул топадиган ёки пули йўқлигида бошқалардан сўраб чекадиганлар ҳам бор. Агарда чекувчи бир қути сигаретни ўртача 2 кун чекишини (бир кунда бир қути чекадиганлар ҳам оз эмас) ҳисобга олсак, бир ойда унга «PINE»-7500 сўм, «XON»-4500, «XON Lights» ва «XON ULTRA Lights»лар-6000 сўмдан, «KARVON»-2625 сўм зарар келтирар экан. Бу рақамлар кўпчилик учун арзимас бўлиб кўриниши мумкин. Бироқ, чекишнинг оқибатларини унинг 10-20 баробар, кези келганда 100 баробар нархини сарфлаб ҳам бартараф этиш амримаҳол.

Шундай экан, чеккандан кўра чекмаган минг бора афзал эмасми? Бунинг ўрнига инсоннинг доимо соғлом ва тетик бўлиб юришини таъминловчи ва хушкайфият бағишловчи спорт билан шуғулланилса ҳар жиҳатдан фойдали бўлади-ку!

Хуршид СУЛТОНОВ,
журналист

«PINE» НЕЧА ПУЛ?

нима бўпти? Бу ҳар куни, ҳар жойда ва ҳар қадамда учрайдиган ҳодисаку? Ҳамма ҳам чекади-да, деган савол туғилиши табиий. Аммо чекишдан мақсад нима ўзи? У инсонга бирор наф келтирадими? Билмадиму... Баъзи чекувчилардан «сиз нега чекасиз?» деб сўрасангиз, «юрагим сиқилиб кетганда чекаман» дейишади. Гўёки сигарет ўша кишининг юрак сиқилишини тарқатадигандек. Улар шунга ишонишади. Ваҳоланки, у юракни янада сиқиб, организмдаги қон айланиш функциясининг бузилишига олиб келади. Наҳотки чекувчилар буни билишмаса! Шу маҳсулот билан савдо қилаётган кишилар (бу иш билан кўпроқ аёллар шуғулланишади) ака-укалари ёки фарзандлари қатори инсонлар соғлиғидан ўз тирикчиликларини афзал билишса?

Донишманд ҳакимлардан бири "Касал минг хил, лекин саломатлик биттадир" деган экан. Биргина чекишнинг ўзи ошқозон ичак яраси, ўпка сили каби касалликларни келтириб чиқарувчи омилларнинг ривожланиши учун шароит яратади ва тишларнинг носоғлом ўсишига сабаб бўлади. Энг ачинарлиси шундаки, бугунги кунда баъзи аёллар ва ҳали турмушга чиқмаган ёш қизлар ҳам бунга одатланишган. Вояга етмаган

Xullas...

АСКАР БОЛАЛИККА ҚАЙТДИ... АММО НИМА УЧУН?

Владивостокдаги ўйинчоқ сотиладиган магазинда кутилмаган ўғрилик содир бўлди. Кўпинча ўғрилар аввал судланган ёки ишсиз юрган фуқаролар бўларди. Бу галгиси эса 20 ёшлардаги аскар йигит.

Приморье ўлкаси ички ишлар бошқармасининг матбуот хизмати хабарига кўра, оператив ҳарбий қисм хизматчиси бўлган бу йигит дўкон ойнасини тап тортмасдан синдирган. Сўнгра ичкарига кириб, ерости йўлаги орқали ташқарига чиққан. Ўмарган иккита ўйинчоғини ҳали ташқарига олиб чиқиб кетмаёк, дўкондаги сигнализатор жиринглаб овоз берган.

Зудлик билан етиб келган милиция ходимлари жиноятчини осонгина қўлга олишди. Ўйинчоқлар ўша заҳоти дўконга қайтарилди. Ҳарбий хизматчига нисбатан эса жиноий иш қўзғатилди. Жумбоқ жумбоқлигича қолмоқда. Аскар йигитга ўйинчоқлар нима учун керак бўлди экан? Бу судга қадар аниқланса керак.

ДЕЛЬФИНЛАР ҲАЛОКАТИ

48 та дельфин ўлими!

Бу — чинакам фожеа.

Қачон ва қаерда дейсизми?

Руминиянинг Сулин шаҳарчасига яқинроқ жойдаги сув ҳавзаси юзасига чиқиб олган ўлик дельфинларни кўриш чиндан ҳам аянчли эди. Денгиз сут эмизувчилари улканлиги, бақувватлиги, вазминлиги ва ҳушёрлиги билан ўзларини эҳтиёткорона сақлайди. Афсуски, ҳалокат туфайли 48 та улкан денгиз сут эмизувчилари сув юзасида қалқиб-қалқиб, жонсиз ҳолатда туришарди.

Экологлар ва полиция ходимлари сув ҳавзасида иккинчи бор рўй берган нохуш ҳодисанинг сабабини билолмай гаранг. Ўтган йили ҳам худди шу жойда 12 та дельфин ўлган эди. Аммо ўшанда жониворларнинг ўлимига балиқчилар сув ҳавзасига ташлаган тўрлар сабаб бўлганлиги аниқланган эди. Бу галгиси қандайдир сирли, лекин экологлар бунинг сабабини ҳам топишга муваффақ бўладилар.

РЕЦЕПТ "ИШ" БЕРМАДИ

Гимназия ўқувчилари — Улаф Далгрен ва Карл Левендал кутубхонадаги эски манбалардан бирини ўқиб, ажойиб-ғаройиб рецептга дуч келдилар. Қадимги жангчилар жанг олдидан танга куч-қувват бахш этувчи ичимлик ичишган. Шунда уларда кўркув туйғуси чекинган ва душман устидан ғолиб чиқишган.

Кўлёзмада бу ичимликни қандай тайёрлаш лозимлиги кўрсатилган эди. Қанча миқдорда ичиш эса айтилмаган. Оқ ва қизил заҳарли замбуруғ сувда эритилади ва тиндириб қўйилгач, бир соатлар ўтиб ичилади. Ўзбошимча ўсмирлар рецептда кўрсатилганидек, ҳалиги ичимликни тайёрлашди. Сўнгра бир стакандан сипқориб юборишди.

Орадан ҳеч қанча вақт ўтмай, уларнинг иккиси ҳам шифохонанинг реанимация бўлимида ётишарди. Бояги ичимлик уларнинг ошқозонини ювмоқ тугул, илвиратиб ташлаган эди. Эҳтимол, улар куч-қувват бахш этувчи бу ичимликни кўп миқдорда ичишгандир, деб бу воқеани хулосалайди швед газетаси "Экспрессен".

ana shunaqa gaplar

«ЗАРАФШОН» КРОССВОРДИ



САВОЛЛАР

ЭНИГА. 1. Келажак. 5. Бир неча вилоятларнинг асосий сув манбаи бўлган дарё. 9. Навоий ҳоким бўлган шаҳар. 13. Музокара олиб бориш санъатини биладиган киши. 17. Оналар қўшиғи. 18. Бўёқ мойи. 19. Доимий яшил дарахт. 28. Нина. 29. Илоҳим. 30. Шайтони... 31. Бир-бирига ўхшаш, киши юрса адашиб кетадиган чалкаш йўллар. 34. Қисқа ўйлайдиган одам. 37. Эгар орқасига боғлаб қўйиладиган мўла ёстиқча. 40. Балиқларни узоқ вақт тирик сақлайдиган шиша идиш. 43. Дарс мақсадларидан бири. 47. Халқ зиёлилари газетаси. 51. Мумкин бўлмаган ҳаёлий орзу. 55. Тасвирни қабул қилиб олувчи электрон нур труба. 59. Мактабда бериладиган таълимот. 60. Худди ўзи. 61. Афсонавий қуш. 70. Африкадаги давлат. 71. Бойқуш. 72. Икки шохчали таёқ. 73. Нотиқлик назарияси. 76. Итбурун (ўсимлик). 79. Душманни чал-ғитиш учун кўриладиган тадбир. 82. Замонавий ошхона. 85. Ечилиши қийин масала. 89. Механиканинг динамикасини ўз ичига олган бўлими. 93. "Ошиқ Ғариб ва..." (достон). 97. Ҳажвий кўрсатув. 101. Одамга ўрганмаган от. 102. Заррабин. 103. Тунги дам олиш. 112. Шеър ўлчови. 113. Кийимнинг тугма ўтказадиган тешиги. 114. Ҳайвон. 115. Инсоннинг фикрлаш қобилияти. 118. Сурхондарё вилоятидаги қадимий мақбара. 121. Ўзига-ўзи қўйиб олган бошқа ном. 124. Магнит. 127. Сув остида кийиладиган махсус кийим. 131. Асл, нусха. 135. Суғориш усули. 139. Ҳар қандай тирик мавжудот. 143. Молга берсанг соз..., бошқар сени ёзу-қиш. 144. Кўп, бир талай. 145. Доно. 154. Исмли. 155. Германияда олий табақа аёлларига қўшиб айтиладиган сўз. 156. Орфография. 157. Сон. 158. Илмий даража. 159. Фильмларни суратга олишдан олдинги режа. 160. Олма гулли ранг.

БЎЙИГА: 1. Мустақиллик, эркинлик. 4. Ҳиқилдоқ шиллиқ пардаларининг яллиғланиши. 5. Тўп. 8. Куя дори. 9. Самарқанднинг қадимий харобаси. 12. Алгебрик функция. 13. Ўқув хонаси. 16. "Кулги устахонаси" (радиоэшиттириш). 32. Болалар тилида овқат ёки таомнинг аталиши. 33. Марҳум ўзбек халқ артисти (исми). 35. Дарёдан ажралиб чиққан ариқ. 36. Хижолат. 38. Гина, араз. 39. ... оғзида қолди. 41. Ўғир. 42. Эрта билан (русча). 43. Мунтазам пирамида. 46. Бирор жойга ишга борувчига бериладиган расмий ҳужжат. 47. Цитрус мева. 50. Мўътабар, азиз. 51. Тинч океанининг ғарбий қисмидаги архипелаг. 54. Ҳақиқий сонни тақрибий ҳисоблаш. 55. Ҳарбий қисм бошлиғи. 58. Баҳодир. 74. Дур. 75. Чайла. 77. Асло. 78. Салом жавоби. 80. Ёзма иш. 81. Секин. 83. Кифт. 84. Дурадгорлик асбоби. 85. Ишқ, севги. 88. Узлуксиз таълим турларидан бири. 89. Координата ўқлари ҳосил қилган бурчак. 92. Кумушсимон оқ, енгил, қайишқоқ металл. 93. Шайтонлар макони. 96. О.Ёқубов асари. 97. Ҳур каби гўзал, лобар. 100. Ўзига ортиқча баҳо бериш. 116. Арқоғи ва ўриши ярим пишитилган ипдан қўл дўконда тўқилган мато. 117. Жамғарма. 119. Бас. 120. Увилдириқ. 122. Йўқлик ёки рамз сифатида ишлатиладиган афсонавий қуш. 123. Моҳир. 125. Фироқ. 126. Из қолдирмай кетиш. 127. Энг катта ва энг кичик сонларнинг ёзилиш шакли. 130. Самарқанддаги уч мадрасадан иборат ансамбль. 131. Пазандалик. 134. Манзараси бир хил бўлган жой. 135. Қисқа дам. 138. Бухородаги мақбаралардан бири. 139. Ўзига мафтун қилиб, дилдан урадиган ғоят гўзал аёл. 142. Товушни узоқ масофага узатадиган асбоб.

Ёйларда. 2. Нозли. 3. Ғазабли. 6. Жуда қизиқ. 7. Ўзбек маърифатпарвар шоири. 10. Бичими келишмаган, бесўнақай кийим. 11. Физиканинг бир бўлими. 14. Кислота ва ишқорни аниқлаш учун ишлатиладиган қоғоз. 15. Ватанимиз сарҳадлари ҳақидаги видеофильм. 20. Қашқадарё вилоятидаги шаҳар. 21. Жарроҳлик пичоғи. 22. Ой. 23. Геометрик фигура. 24. Дунёни кўриш ва ўрганиш мақсадидаги сафар. 25. Журнал. 26. Қимматбаҳо нарсалар сақланадиган жой. 27. Бошлиқ. 44. Юк ёки йўловчи ташийдиган катта тез юрар кема. 45. Яқин Шарқдаги давлат. 48. Спорт ўйинларида кўрсатилган энг юқори кўрсаткич. 49. Зирак. 52. Юлдуз туркумларидан бири. 53. Жаноб (туркча). 56. Бино остидаги хона. 57. Нарсалар сиртига берилган жило. 62. Абадий хайрлашув. 63. Ҳакам. 64. Расм чизиладиган дафтар. 65. Бирор соҳага ва унинг тартиб-қоидаларига оид китобча. 66. Қишки кийим. 67. Зимдан кузатиш. 68. Бўлиш. 69. Бошлангич савод китоби. 86. Илм-фаннинг бир неча соҳасини, мукаммал эгаллаган одам. 87. Йил. 90. "Негизлар" асарининг муаллифи. 91. Билим. 94. Индустрия. 95.Тонгда. 98. Муғомбир. 99. Алгебра. 104. Ёт, нотаниш. 105. Қуш. 106. "Шоҳнома" асаридаги образ. 107. Ниначи. 108. Оловдан қўтариладиган ёлқин.109. Уй-рўзғор асбоби. 110. Шарқ халқлари орасида тенги йўқ ҳаким. 111. Ёғоч кавуш. 128. Амр. 129. Ҳамма фанлардан фақат бешга ўқийдиган ўқувчи. 132. Босма даврий нашр. 133. Миллат. 136. Сар-ҳад. 137. Ғўла устига ўрнатилган ёғочнинг икки бошига ўтириб ўйналадиган болалар ўйини. 140. Одилона ва холисона иш тутиш. 141. Донгдор. 146. Мужмал. 147. Танча. 148. Қимматбаҳо тош. 149. Онгли. 150. Арава. 151. Қарши. 152. Икки дона. 153. Ой.

Тузувчи Абдумалик УСАНОВ

Ma'rifat

ТАЪСИС ЭТУВЧИЛАР:
Ўзбекистон Халқ таълими вазирлиги, Ўзбекистон Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Таълим ва фан ходимлари касаба уюшмаси Марказий Қўмитаси.

Бош муҳаррир:
Ҳалим САИДОВ

Таҳрир ҳайъати: Йўлдош АҲМЕДОВ, Жуманазар БЕКНАЗАРОВ, Икром БЎРИБОЕВ (бош муҳаррир ўринбосари), Шукур ЖОНБОЕВ, Фахриддин КАРИМОВ (масъул котиб), Қурбонбой МАТҚУРБОНОВ, Усмонали МУСАЕВ, Абдусамат РАҲИМОВ (бош муҳаррир ўринбосари), Ҳулкар ТЎЙМАНОВА, Нурлан УСМОНОВ, Саъдулла ҲАКИМОВ, Ўткир ҲОШИМОВ

Газета Ўзбекистон Республикаси Давлат Матбуот Қўмитасида № 20 рақам билан 12 июнь 1998 йил рўйхатга олинган.

ИНДЕКС: 149, 150. Г-726.
Тиражи 19380. Г. 1 2 3 4 5 6 Ҳажми 4 босма табоқ. Офсет усулида босилган, қоғоз бичими А-2

Навбатчи муҳаррир:
Ҳусан НИШОНОВ,
Навбатчи:
Азиз НОРҚУЛОВ.

«Маърифат»дан материалларни кўчириб босиш таҳририят рухсати билан амалга оширилиши шарт.
Таҳририятга юборилган материаллар муаллифга қайтарилмайди.
(М) белгиси остида реклама материаллари берилади

МАНЗИЛИМИЗ: 700083, Тошкент, Матбуотчилар кўчаси, 32.
E-mail: marifat@ars-inform.uz

ТЕЛЕФОНЛАР: масъул котиб—136-57-89, олий таълим янгиликлари бўлими, мактабгача ва мактабдан ташқари таълим янгиликлари бўлими —136-55-58, хатлар, маънавий ва сиёсий ҳаёт янгиликлари бўлими — 136-54-23, умумий ўрта таълим янгиликлари бўлими, ўқувчиларни касбга йўналтириш ва ўрта махсус таълим янгиликлари бўлими — 136-54-03, реклама ва тарғибот бўлими — 136-54-69 (факс).

Баҳоси сотувда эркин нархда

Pentium IV компьютерида Лилия БИНАШЕВА ва Малоҳат ТОШОВА саҳифалади.

«Шарқ» нашриёт-матбаа акционерлик компанияси босмахонаси.
Корхона манзили: «Буюк Турон» кўчаси 41-уй

Босишга топшириш вақти—21.00.
Топширилди — 21.00